

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

GULCHEXRA YUSUPOVA

KOREYS VA O‘ZBEK NUTQIY ETIKETLARI

Monografiya

Toshkent – 2024

UO‘K: 811.531+811.512.133:81’1

KBK: 81.3/5(5Kor)+(5Uzb)

Yu-96

ISBN 978-9910-8941-8-3

Yusupova, Gulchexra

Koreys va o‘zbek nutqiy etiketlari [matn]: monografiya / G.Yusupova.
– T., 2024. – 128 b.

Mazkur monografiya koreys va o‘zbek nutqiy etiketlarining sotsiolingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda nutqiy etiketlarning mohiyati, ularning lisoniy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari, “salomlashish” va “xayrlashish” vaziyatlaridagi qo‘llanilish holatlari, nutqiy odatlarni shakllantiruvchi yosh, zamon makon va gender omillari tadqiq etilgan. Muloqot jarayonida nutqiy etiketlarning verbal va noverbal shakllarining turli vaziyatlar bilan bog‘liq holda qo‘llanilishi ko‘rsatib berilgan.

Ushbu monografiyadan tadqiqotchilar, magistrantlar, talabalar, shuningdek, keng kitobxonlar ommasi foydalanishi mumkin.

Mas’ul muharrir:

Shoira Usmanova,

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Durdona Xudoyberganova,

filologiya fanlari doktori

Diloram Ashirbayeva,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024-yil 28-noyabrda 4-sonli majlisi bayoni asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8941-8-3

© **Yusupova G.A.**

© **Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024.**

KIRISH

Jahon tilshunosligida o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, nutqiy muloqotni sotsiolingvistik aspektda tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Til faktlarini nutqiy muloqotning muayyan ijtimoiy omillari bilan bog'liq holda o'rganish natijasida jamiyatning tilga va tilning jamiyatga ta'siri masalasiga doir qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Til hodisalarini sotsiolingvistik jihatdan tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikni mazmunan boyitishga xizmat qildi.

Dunyo tilshunosligida nutqiy etiketlarni bir vaqtda sotsiolingvistik, lingvomadaniyatshunoslik hamda qiyosiy aspektlarda tadqiq etishga qaratilgan ishlar ham mavjud. Nutqiy etiketlar tadqiqiga bunday yondashuv kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot, madaniyatlararo munosabatlar, ulardagi umumiy va o'ziga xos tomonlar, o'xshash va farqli jihatlarni qiyosan o'rganish, muloqotda madaniy va kognitiv tushunmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashtiruv, integratsiyalashtiruv davrida davlatlar o'rtasida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diplomatik hamda turizm aloqalari rivojlanib borayotgan paytda har bir xalqning nutqiy etiket qoidalarini o'rganish, ularning umumiy, o'xshash va o'ziga xos jihatlarni qiyoslash asnosida sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilish har jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur monografiyada nutqiy etiketlarning mohiyati, ularning lisoniy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari, nutqiy etiket birliklarining koreys va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, koreys va o'zbek nutqiy etiketida "Salomlashish" va "Xayrlashish" vaziyatlarining sotsiolingvistik aspektlari, nutqiy etiket birliklarining jonli nutqda qo'llanish darajasi anketa-so'rovnomalari vositasida tadqiq etilgan.

Monografiyaning "Nutqiy etiketlar tadqiqining ilmiy-nazariy asoslari" deb nomlangan bo'limida nutqiy etiketlarning tavsifi, tasnifi, ularning sotsiolingvistik va madaniy xususiyatlari, nutqiy etiketlarning koreys va o'zbek tillarida o'rganilishi kabi masalalar yoritilgan.

Monografiyaning “Koreys va o‘zbek nutqiy etiketida “salomlashish” va “xayrlashish” vaziyatlarining sotsiolingvistik aspekti” deb nomlangan bo‘limida “salomlashish” va “xayrlashish” vaziyatlari va unga ta‘sir etuvchi ijtimoiy omillar tadqiq etilgan. Salomlashish vaziyatidagi verbal va noverbal shakllarning qo‘llanilishi turli vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi ko‘rsatib berilgan.

Koreys va o‘zbek nutqiy etiketlarining “salomlashish” va “xayrlashish” vaziyatlari 1) “Salomlashish” va “xayrlashish” vaziyatiga yosh omilining ta‘siri; 2) “Salomlashish” va “xayrlashish” vaziyatiga zamon omilining ta‘siri; 3) “Salomlashish” va “xayrlashish” vaziyatiga makon omilining ta‘siri; 4) “Salomlashish” va “xayrlashish” vaziyatiga gender omilining ta‘siri kabi turlarga ajratilib tahlil qilingan va nutqiy etiket birliklarini qo‘llashda koreys va o‘zbek lingvojamoasidagi umumiy jihatlar va o‘ziga xos farqliliklar ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, koreys va o‘zbek nutqiy etiketida “Salomlashish” vaziyatidagi yosh omili jamiyatdagi pog‘onali munosabatlarga asoslanishi yoritilib, unda koreys jamiyatidagi iyerarxik munosabatlarning o‘zbek jamiyatiga nisbatan kuchli ekanligi axloqiy mezonlar asosida dalillangan.

Monografiyaning “Koreys va o‘zbek nutqiy etiketlari yuzasidan o‘tkazilgan anketa-so‘rovnomalari natijasi” deb nomlangan bo‘limida anketa-so‘rovnoma o‘tkazish metodikasi, “salomlashish” va “xayrlashish” mavzuiy guruhlarida qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari, shuningdek, koreys va o‘zbek tillaridagi anketa-so‘rovnoma natijalari yoritilgan.

Umuman, nutqiy etiketlar milliy va madaniy xususiyatga ega bo‘lgan xushmuomalalik va mulozamat ifodalovchi birliklardir. Har bir lingvojamoaa‘zosi nutqiy etiket birliklaridan muloqot zamon, joyi, muhiti, suhbatdoshning yoshi, mavqeyi hamda gender xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanadi. Nutqiy etiketlarni o‘rganish orqali lisoniy hamjamiyatning muomala madaniyati, axloq-odob me‘yorlari va milliy-madaniy qarashlari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

NUTQIY ETIKETLAR TADQIQINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Nutqiy etiketlar va ularning tasnifi

Nutqiy etiketlarning umumiy xususiyatlari. Nutqiy etiket individual madaniyat, qadriyatlarga ko‘ra anglashiluvchi tushunchadir. Insonda nutqiy etiket atrof-muhit, oila va jamiyatdagi vaziyat hamda boshqa omillar ta’sirida bolalikdan shakllana boradi. Turli millatlarda nutqiy etiket shu millatning o‘ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda turlicha bo‘lishi tabiiy. Nutqiy etiketning turli qirralari nafaqat tilshunoslar, balki sotsiolog va madaniyatshunoslar tomonidan o‘rganilgan, rang-barang konsepsiyalar ilgari surilgan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda bu masalaga qiziqish tobora ortib bormoqda. Chunki nutq etiketi davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biriga aylanmoqda. Tilshunoslikda nutqiy etiket turli aspektlarda o‘rganilgani uchun ham ushbu fenomenni tavsiflovchi, uning u yoki bu tomonlarini ta’kidlaydigan har xil ta’riflar mavjud¹.

Nutqiy etiketning ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilishi dunyo tilshunosligida XX asrning o‘rtalarida boshlandi. Xususan, G‘arb tilshunosligida “Politeness”, ya’ni “Nutqiy etiket” tushunchasi XX asrning 60-yillaridan boshlab ilmiy muomalaga kiritildi va alohida soha sifatida tadqiqotga tortildi. Nutqiy etiket fenomeni dastavval amerikalik tadqiqotchi R.Lakoff, britaniyalik P.Brown, S.Levinson va G.Leech² larning izlanishlarida alohida obyekt sifatida o‘rganildi. Binobarin, nutqiy etiket nazariyotchisi R.Lakoffning fikricha, “nutqiy etiket jamiyatda rivojlangan yaxshi xulq-atvor ko‘rinishi”dir. Olima “insonlar orasida o‘zaro muloqotdagi ziddiyatlarni kamaytirish, suhbat va dialogni muvaffaqiyatli yakunlash tamoyillarini o‘zlashtirish uchun nutqiy etiketni o‘rganish maqsadga muvofiq”³ ekanligini ta’kidlaydi.

¹ Турдиева Х. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 13.

² Lakoff R. The logic of politeness: or minding your p's and q's // Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1973. – P. 292-305.; Brown P., & Levinson S. Universals in Language usage: Politeness phenomena. – London, 1978. – 345 p.; Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.

³ Lakoff R. The logic of politeness: or minding your p's and q's // Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1973. – P. 292-305.

Sotsiolog olim E.Goffman nutqiy etiket nazariyasiga “face – yuzni yo‘qotish”, “yuzni saqlab qolish” tushunchalarini kiritib, “yuz – bu o‘zimizni boshqalarga qanday ko‘rsatishimiz in’ikosidir”⁴ deb ta’rif bergan. Bu o‘rinda G‘arb tilshunosligidan ancha oldinroq Xitoy nutqiy etiketida juda qadim davrlardan beri davom etib kelayotgan va xitoyshunos olimlarning tadqiqotlarida ⁵ muntazam ravishda o‘rganib kelingan, xitoyliklar muloqotining tavsiflovchi muhim xususiyatlaridan biri – “yuz” (面子 miàn zi) tushunchasini alohida ta’kidlash joizdir. “Ushbu tushuncha xitoy lingvomadaniyati vakili uchun o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatini saqlab qolish, o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaslik, shuningdek, boshqalar oldida “yuzini yo‘qotmaslik”, ya’ni “obro‘yini to‘kmaslikka” harakat qilishni anglatadi. Bundan xitoyliklarning muloqot uslubida “murosaga kelish” hamda “muvofiglik” tushunchalarining ustuvorligi ayon bo‘ladi”⁶. Bu o‘rinda Konfutsiy qadriyatlari va mafkurasi chuqur ildiz otgan koreys jamiyatida ham muloqot ishtirokchilarining imkon qadar “yuzni saqlab qolish”ga alohida e’tibor qaratishlarini ta’kidlash lozim.

P.Grice nutqiy etiket masalasiga adresantning huquqlari nuqtayi nazaridan yondashib, muloqotdoshlarning maqsadi suhbat chog‘ida hamkorlik qilishga intilish ekanligini alohida qayd etadi⁷.

Shuningdek, G.Kasper nutqiy etiketni kommunikatsiya vaziyatiga mos keladigan fikrni amalga oshirish uchun til jamoalarida qo‘llaniladigan urf⁸, D.F.Akindele nutqiy etiketni ijtimoiy majburiyatlarni bajarish va shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish maqsadida o‘zaro aloqada bo‘lgan

⁴ Goffman E. Interaction ritual: Essays in face-to-face behavior. – New York: Pantheon Books, 1967. – P. 9-10.

⁵ Васильев Л.С. Особенности системы мышления, поведения и психологии в традиционном Китае // Китай: традиции и современность: Сборник научных статей. – М.: Наука, 1976. – С. 52-82; Тань Аошуан. Китайская картина мира: Язык, культура, ментальность / Тань Аошуан – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 240 с; Сорокин Ю.А. Китайский психотип языковой личности / Ю.А. Сорокин // Филология и культура: Материалы III международной научной конференции 16-18 мая 2001 г./Отв. Ред. Н.Н. Болдырев. – Тамбов: ТГУ им. Г.Р. Державина, 2001. – С. 11-14; Сорокин, Ю.А. Сознание и модусы его существования (китайская лингвокультурная общность в 1966-1976 гг.). Ретроспективные размышления / Ю.А. Сорокин // Языковая личность в дискурсе: полифония структур и культур. Материалы международной научно-практической конференции / Отв. Ред. Проф. А.А. Романов. – М., – Тверь: ИЯ РАН, ТвГУ, ТГСХА, 2005. – С. 75-92.

⁶ Shamsiyeva Sh. Madaniyatlararo muloqot (Xitoy va o‘zbek madaniyatlari misolida). – Toshkent: “BOOKMANY PRINT”, 2023. – B. 46-47.

⁷ Grice, Paul. Logic and Conversation. // Peter Cole and Jerry Morgan (eds.) Syntax and Semantics, Vol.3: Speech Acts. New York: Academic Press, 1975. – P. 41-58.

⁸ Kasper G. Linguistic etiquette. Intercultural discourse and communication: The essential readings, 2005. – P. 58-67.

odamlar o'rtasida almashinadigan so'z⁹, L.Jdetawy va M.Hamzahlar esa muloyim muloqot va til xulq-atvorining mosligini ta'minlash uchun til xatti-harakatlari qoidalarini nutqiy etiket sifatida belgilagan¹⁰.

Umuman, G'arb tilshunosligi nutqiy etiket masalalarining nazariy asoslarini shakllantirish bilan birga, bu sohaning pragmatik aspektlariga katta ahamiyat qaratdi.

Nutqiy etiketning nazariy masalalari rus tilshunoslari tomonidan XX asrning 80-yillaridan boshlab tadqiq etila boshlandi. Jumladan, N.I.Formanovskaya, N.N.Romanova, A.V.Filippov, Ye.A.Rudneva, R.Ratmayr, Ye.Malyuga, I.I.Ridanova, N.A.Trofimova¹¹ singari qator tilshunoslarning izlanishlarida nutqiy etiket masalalari rus xalqi uchun xos bo'lgan muloqotning milliy belgilari asosida tadqiq etildi. L.P.Stupin, K.S.Ignatyev va T.V.Larina¹² kabi tadqiqotchilarning ishlarida nutqiy etiketning lingvomadaniy jihatlari qiyosiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, nutqiy etiket sohasining sotsiolingvistik jihatlari tadqiqotchilar I.I.Lejneva, R.V.Buxayeva, V.Buliginalar¹³ tomonidan o'rganilib, so'zlovchilarning

⁹ Akindele D. F. Lumela/Lumela: A socio-pragmatic analysis of Sesotho greetings// Nordic Journal of African Studies, 16 (1), 2007. – P. 1-17.

¹⁰ Jdetawy L., & Hamzah M. Linguistic etiquette: a review from a pragmatic perspective // Technium Social Sciences Journal, 14(-), 2020. – P. 695-717.

¹¹ Формановская Н.И. Речевой этикет. – М.: Русский язык: Энциклопедия, 1979; Формановская Н.И. Употребление русского речевого этикета. – М., 1982; Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методологический аспекты. – М.: Рус.яз., 1982. – 126 с.; Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – М.: Книга по Требованию, 1989. – 156 с.; Формановская Н.И. Культура общения и речевой этикет. – М.: ИКАР, 2005. – 2-е изд. – 250 с.; Формановская Н.И. Ритуалы вежливости и толерантность // Философские и лингвокультурологические проблемы толерантности: сборник статей. – Екатеринбург: Издательство Уральского государственного университета, 2003. – С. 345-362.; Романова Н.Н., Филиппов А.В. Словарь. Культура речевого общения: этика, прагматика, психология. – М.: Флинта, 2009. – 304 с.; Руднева Е.А. Стратегии лингвистической вежливости в спонтанном речевом взаимодействии: Дисс. ...канд. филол. наук. – СПб., 2018. – 280 с.; Ратмайр Р. Вежливость в русском языке и культуре // Русская речь и рынок: традиции и инновации в деловом и повседневном общении. – М.: Языки славянской культуры, 2013. – С. 140-220.; Малиюга Е. Н. Лингвопрагматические аспекты женской и мужской речи в межкультурном деловом интервью // Научные ведомости Белгородского государственного университета. Серия Гуманитарные науки, том 13, № 156, 2013. – С. 107-112.; Рыданова И.И. Уроки этикета. – Минск: Вышэйшая школа, 1988. – 158 с.; Трофимова Н.А. Экспрессивные речевые акты в диалогическом дискурсе. Семантический, прагматический, грамматический анализ: Монография. – СПб.: ВВМ, 2008. – 376 с.

¹² Ступин Л.П., Игнатьев К.С. Современный английский речевой этикет. – Л.: ЛГУ, 1980. – 143 с.; Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации: Сопоставление английской и русской лингвокультурных традиций. – М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. – 512 с.

¹³ Лежнева И.И. Социолингвистическое развитие английского и русского речевого этикета (на материале форм обращения, формул приветствия и прощания): Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2001. – 163 с.; Бухаева Р.В. Этнокультурные стереотипы речевого общения (на материале бурятского языка): Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Улан-Удэ, 2015. – 409 с.; Булыгина В. Речевой этикет в

ijtimoiy va kommunikativ rollari, muloqot xulqining ijtimoiy sharti, milliy xususiyatlari va h.k. masalalari tahlil etildi. Binobarin, I.I. Lejnevaning qayd etishicha, “nutqiy etiket tabiatiga ko‘ra, nutqiy muloqot sohasiga tegishli bo‘lib, u o‘z navbatida murakkab ijtimoiy o‘zaro ta‘sirning, ya‘ni umumiy muloqotning faqat bir tomonini aks ettiradigan aloqadir. Shu bilan birga, barcha muhim nutqiy etiket hodisalari vaqt o‘tishi bilan tilda mustahkamlanadi va aynan shu o‘rinda etiket tushunchasining mohiyati asl ma‘nosida namoyon bo‘ladi”¹⁴.

Umuman, “etiket” so‘zi (fransuzcha etiquette – yorliq, etiketka) insonlarga bo‘lgan munosabatning tashqi ko‘rinishlarini (boshqalar bilan muomala qilish, jamoat joylarida o‘zini tutish, kiyinish odobi va h.k.) tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalarini anglatadi. “Etiket – axloqiy madaniyatda yaqqol ko‘zga tashlanadigan munosabat ko‘rinishlaridan biri. U ko‘proq insonning tashqi madaniyati, o‘zgalar bilan bo‘lgan munosabatlarda o‘zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala jarayonida inson o‘z harakatlariga ijodiy yondashsa, ya‘ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo‘lsa, etiket muayyan holat uchun qoidalashtirib qo‘yilgan xatti-harakatni taqozo etadi. Etiket keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u, ma‘lum ma‘noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi”¹⁵.

A.K. Bayburin va A.L. Toporkovlar etiketni “ma‘lum bir belgilar tizimi sifatida hamda kishilar muloqotini tartibga solishning o‘ziga xos shakli sifatida” ko‘rib chiqish mumkinligini ta‘kidlashadi¹⁶.

N.I. Formanovskayaga ko‘ra, “nutqiy etiketning keng ma‘noda odob-axloq qoidalari (etiket)ga nisbatan o‘ziga xosligi shundan iboratki, etiket bizning xatti-harakatlarimizni ijtimoiy jihatdan tartibga solsa, nutqiy etiket bizning muloqotimizni, nutqiy xatti-harakatlarimizni tartibga soladi. Nutqiy etiket – bu xatti-harakatlar odobini og‘zaki ifodalovchi, ziddiyatli bo‘lmagan, “kishilarga normal munosabatni, ya‘ni xayrixoh munosabatni” ifodalash

социолингвистическом аспекте (на материале марийской и эстонской коммуникативных культур: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тарту, 2017. – 136 с.

¹⁴ Лежнева И.И. Социолингвистическое развитие английского и русского речевого этикета (на материале форм обращения, формул приветствия и прощания): Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2001. – С. 6-7.

¹⁵ Кахаров Қ. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2020. – Б.14.

¹⁶ Байбурин А.К., Топорков А.Л. У истоков этикета. Этнографические очерки. – Л.: Наука, 1990. – С. 61.

uchun har bir jamiyatda to‘plangan til vositalarini beradigan til va nutq birliklarining katta zaxirasidir”¹⁷.

N.I.Formanovskaya o‘z fikrlarini davom ettirib, nutqiy etiketning ijtimoiyligiga alohida urg‘u beradi: “Nutqiy etiket tushunchasi nutqiy xulqni tartibga soluvchi qoidalar, suhbatdoshlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish, ko‘zlangan maqsadda aloqani saqlab turish va uni to‘xtatish uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan aloqaning o‘ziga xos milliy qoliplari hamda turg‘un shakllar tizimidir”¹⁸.

Boshqa tilshunoslar tomonidan nutqiy etiketga berilgan ta’riflar ushbu hodisaning yuqoridagi xususiyatlariga asoslanadi, lekin ko‘pincha ular qo‘shimcha to‘ldirishlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, L.P.Stupin va K.S.Ignatyevlar nutqiy etiketni ijtimoiy ma’qullangan muloqot me’yorlari to‘plami, yagona millat vakillari uchun nutqiy xatti-harakatlarning me’yoriy shakli sifatida qayd etishadi. Tor ma’noda esa mualliflar nutqiy etiketni nutqiy odob-axloq formulalari to‘plamini, ya’ni “muayyan bir ijtimoiy va kommunikativ vaziyatlarda foydalanish uchun ma’lum bir til ham-jamiyatidagi milliy-madaniy va lingvistik an’analar bilan mustahkamlangan tipik ifodalarni”¹⁹ nazarda tutadilar.

Shuningdek, I.I.Ridanova tomonidan ham nutqiy etiketning ijtimoiy tabiati qayd etiladi. Olimaning “Odob saboqlari” asarida: “Xushmuomalalik formulalari jiddiy ma’noga ega bo‘lib, ular insonga nisbatan hurmatni ifodalab, uning kayfiyatiga, holatiga ta’sir etuvchi jamiyat tomonidan tasdiqlangan muloqot me’yorlari to‘plamidir”²⁰.

Nutqiy etiketning insoniy munosabatlardagi roliga N.I.Formanovskaya alohida e’tibor qaratadi va nutqiy etiketni “sehr” deb ataydi. Uning fikriga ko‘ra, nutqiy etiket nafaqat “muloqotda almashadigan ma’lumotlarning alohida darajasini aks ettiradi”, balki “bizning insoniy o‘zaro munosabatlarimiz uchun eshiklarni ochadi”²¹. Ko‘rinadiki, nutqiy etiket muloqot uchun “muvozanat mexanizmi”²² bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilganlar bilan birga, nutqiy etiket, bir tomondan “suhbatdoshlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish, nutq xatti-harakatlari qoidalariga

¹⁷ Формановская Н.И. Речевой этикет. – М.: Русский язык: Энциклопедия, 1979. – С. 46.

¹⁸ Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методологический аспекты. – М.: Рус.яз., 1982. – С.7.

¹⁹ Ступин Л.П., Игнатьев К.С. Современный английский речевого этикет. – Л.: ЛГУ, 1980. – С. 6-7.

²⁰ Рыданова И.И. Уроки этикета. – Минск: Вышэйшая школа, 1988. – С. 72.

²¹ Формановская Н.И. Речевой этикет. – М.: Русский язык: Энциклопедия, 1979. – С. 51.

²² Байбурин А.К., Топорков А.Л. У истоков этикета. Этнографические очерки. – Л.: Наука, 1990. – С.7.

muvofoiq kerakli ohangda aloqani saqlash uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan va belgilangan milliy o'ziga xos og'zaki birliklarning mikrotizimi"²³ hisoblanadi.

Ikkinchidan, nutqiy etiket birliklari "jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan, jamiyat a'zolari uchun majburiy bo'lgan, milliy xususiyatga ega, qat'iy nutqiy formulalarga solingan va ayni paytda tarixan o'zgaruvchan nutqiy xatti-harakat qoidalari"²⁴ dir.

Koreys tilshunoslarining ham nutqiy etiket borasidagi turli ta'rif va tasniflarini kuzatish mumkin. Binobarin, Jang Wonho (장원호) nutqiy etiketga shunday ta'rif beradi: "Nutqiy etiket bu – boshqa odamga e'tiborli bo'lgan holda vaziyatga qarab ishlatilishi kerak bo'lgan to'g'ri nutq, yuz ifodasi va gavdani tutishni anglatadi"²⁵.

Koreys tilshunosi Lee Seokju (이석주) nutqiy etiketni suhbatdoshga e'tiborli bo'lish va o'z so'zlari va harakatlariga ehtiyot bo'lish bilan bir qatorda, vaziyatga mos ravishda o'ziga nisbatan kamtar iboralar va suhbatdoshga nisbatan hurmatni ifodalovchi iboralar sifatida ta'riflagan²⁶.

Jeong Minyeong (정민영)ga ko'ra, koreys jamiyatida boshdan kechirilishi mumkin bo'lgan turli xil mulohaza muhitlariga muvofiq rioya qilinishi kerak bo'lgan xushmuomalalik bilan gapirish usullari nutqiy etiketdir. Nutqiy etiket birliklari sifatida esa har kuni uchrashganda va xayrlashganda ishlatish mumkin bo'lgan kundalik hayotdagi xushmuomalalik so'zlari, tug'ilgan kun, Yangi yil bayramlari kabi maxsus vaziyatlarda ishlatiladigan mulozamat so'zlari, murojaatlar, hurmat so'zlarini tushunish mumkin²⁷.

Han Younghee (한영희) fikricha, odamlar uchun zarur bo'lgan nutq etiketi boshqalarga nisbatan e'tiborli munosabatda bo'lishdir. Umuman, nutq etiketi muayyan madaniyatdagi kishilar tomonidan va'da qilingan hayot me'yori bo'lib, u mulozamat so'zlari, murojaatlar, gonorativ so'zlar, har bir holatga mos keladigan to'g'ri va chiroyli so'zlarni o'z ichiga olib, g'amxo'rlik munosabatini bildiradi²⁸.

²³ Формановская Н.И. Употребление русского речевого этикета. – М., 1982. – 192 с.

²⁴ Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – М.: Книга по Требованию, 1989. – С. 3.

²⁵ 장원호. 만 5 세 유아를 위한 언어예절교육 프로그램 개발 및 적용 효과. 중앙대학교 대학원. 박사학위 논문. 2022. 11 쪽.

²⁶ 이석주. 한국 전통 사회와 언어 예절. 화법연구, 14, 2009. 9-28 쪽.

²⁷ 정민영. 현대인의 언어 예절. 서울: 글누림출판사, 2016. 242 쪽.

²⁸ 한영희. 율곡의 예절교육론 연구:격몽요결과 학교모범을 중심으로. 성균대학교 생활과학대학원 석사학위논문. 2013. 3 쪽.

Nutqiy etiket bu – til harakatlarini bajarishda odob-axloq qoidalariga rioya qilish, lekin til harakatining samaradorligini maksimal darajada saqlab qolishdir. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, maqsad – nutq me’yori va vaziyatiga mos keladigan holda adresat va adresantning ham qulaylikni his qilishidir²⁹. Shuningdek, nutqiy etiket ham madaniy universal, ham madaniy individual xususiyatlarga ega. Bir lisoniy hamjamiyat ega bo‘lgan madaniy individual nutqiy etiket qoidalarini tushunish bu tilni egallashning eng muhim qismlaridan biridir³⁰.

Ko‘rinadiki, koreys tilshunosligida nutqiy etiket tushunchasi odamlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni shakllantirish va saqlash uchun kundalik hayotda suhbatdosh bilan xushmuomala bo‘lish va vaziyatga mos ravishda to‘g‘ri ifodalarni tanlab qo‘llashni anglatadi. Ular orasida nutqiy etiketning vazifasi odamlar til orqali ijtimoiy munosabatlar o‘rnatishi va boshqa odob-axloq qoidalarining asosi bo‘lishi e‘tiborga sazovordir.

Nutqiy etiket formulalari nutqni yaratish jarayonida so‘zlovchi tomonidan hosil qilinmaydi, balki u tomonidan tayyor qoliplar sifatida qayta yaratiladi. Shuning uchun ham tilshunoslikda nutqiy etiket birliklari “nutqiy etiket qoliplari”, “turg‘un muloqot qoliplari”, “nutq andozalari”, “bog‘langan ifodalar”, “qolip iboralar”, “nutq klishe‘lari” va h.k. deb ham ataladi.

Demak, kishilar muayyan tilda muloqot qilar ekan, ularning milliy xarakteri, mentaliteti, yashash tarzi, urf-odat va an‘analari asosida har bir xalqning o‘ziga xos nutqiy etiket qoliplari yuzaga keladi. Ko‘rinadiki, nutqiy etiket qoliplarining shakllanish jarayoni ijtimoiy, madaniy omillarga bog‘liq bo‘lgani uchun ham har qanday millatning nutqiy faoliyati boshqa millat vakilining nutqiy faoliyati bilan o‘zaro qiyoslab o‘rganilganda, ulardagi xarakterli belgilar to‘laligicha namoyon bo‘ladi. Shu bois ham mazkur tadqiqotimizda koreys va o‘zbek nutqiy etiketlarini o‘zaro qiyoslab ulardagi umumiy va o‘ziga xos, farqli jihatlarni ko‘rsatish maqsad qilib olingan.

Biz o‘z tadqiqotimizda nutqiy etiket nazariyasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shgan va bu fenomenni madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyatini ko‘rsatib bergan rus tilshunosi N.I.Formanovskaya, o‘zbekona nutqiy odat masalalarini sotsiolingvistik yo‘nalishda atroflicha yoritib bergan olim Sh.Iskandarova hamda koreys tilshunosi Jeong Minyeong

²⁹ 국어교재편찬위원회 편. 국어와 화법. (2 판). 부산: 부산외국어대학교 출판부. 1997. 247 쪽.

³⁰ 김성환. 세르비아어의 언어예절 연구: 대우법과 호칭법을 중심으로. 한국외국어대. 동유럽연구 제 10 권 2 호. 2002. 16 쪽.

(정민영)ning fikrlariga tayangan holda, shuningdek, koreys va o'zbek nutqiy etiketi birliklari bo'yicha olib borgan tahlillarimizdan kelib chiqib nutqiy etiketga quyidagicha ta'rif berishni ma'qul topdik:

Nutqiy etiket – muloqotdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish maqsadida, nutq odobi qoidalariga muvofiq ravishda lisoniy hamjamiyat tomonidan muayyan davrda qabul qilingan, lisoniy hamjamiyat a'zolari uchun majburiy bo'lgan, milliy va madaniy xususiyatga ega bo'lgan xushmuomalalik va mulozamat ifodalovchi turg'un muloqot qoliplarining majmuidir. O'z navbatida, har bir lingvojamoa a'zosi mazkur majmua asosida o'zining nutq andozalari fondini yaratadi va ulardan muloqot zamoni, joyi, muhiti, suhbatdoshning yoshi, mavqeyi hamda gender xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanadi.

Nutqiy etiketga sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan yondashuv. Nutqiy etiket nafaqat lisoniy, balki ijtimoiy hodisa bo'lganligi sababli, uni tadqiq etishda til va jamiyatning o'zaro ta'siri muammolari bilan shug'ullanuvchi sotsiolingvistika ma'lumotlaridan unumli foydalaniladi. Tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida sotsiolingvistika uning alohida sohasiga aylangan bo'lib, uning muammolar doirasi keng va xilma-xildir.

Sotsiolingvistika tilni u mavjud bo'lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liqligini o'rganadigan tilshunoslikning sohasidir. Ijtimoiy sharoitlar deganda, amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmui: mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyati, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog'liq bo'lgan nutqiy muomalasidagi farqlar tushuniladi³¹.

Zamonaviy sotsiolingvistikaning asoschilaridan biri bo'lgan amerikalik tadqiqotchi W.Labov sotsiolingvistikani "tilni uning ijtimoiy kontekstida" o'rganadigan fan sifatida belgilagan. Boshqacha qilib aytganda, sotsiolingvistlar tilga ham, uning ichki tuzilishini o'rganishga ham e'tibor qaratmaydilar. Ular, asosan, u yoki bu jamiyatdagi insonlarning tildan qanday foydalanishlarini tadqiq etadilar. Bunda tilga ta'sir qiluvchi barcha ijtimoiy omillar: muloqotga kiruvchilarning yoshi, jinsi, madaniyati va

³¹ Usmanova Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika (O'quv qo'llanma). – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 3.

bilim darajasi, kasbidan tortib, to aniq nutqiy aktning xususiyatlarigacha hisobga olinadi ³².

Nutqiy etiket sohasi sotsiolingvistikaning predmetiga, binobarin, soʻzlovchilarning ijtimoiy rollari, muloqot xulqining ijtimoiy sharti, milliy xususiyatlari va h.k. masalalariga mos keladi. Demak, sotsiolingvistikaning nutqiy muomala etiketlari bilan bogʻliq nazariy xulosalaridan foydalanish – nutqiy etiketning vazifalari, uning ishlatilish oʻrinlari, umuman muloqot xulqining oʻziga xos xususiyatlarini toʻlaqonli tushunishga yordam beradi.

Sotsiolingvistikaning nutqiy etiket bilan bogʻliq maʼlumotlari orasida rollar nazariyasi ham mavjud boʻlib, uning muhim ahamiyati – muloqot xulqi rolining adekvatligi hisobiga kommunikatsiya samaradorligini oshirishdir. Adekvatlilik yoki D.Hymesning taʼbiri bilan aytganda: “muloqot xulqining ijtimoiy determinativlari” – bu soʻzlovchining nutqi va nutqdan tashqari xatti-harakatining uning roliga mos kelishi va suhbatdoshning rolini toʻgʻri talqin qilish nutqdan foydalanishda bevosita namoyon boʻladi. Shu bilan birga, har bir rol ikki: ijtimoiy va kommunikativ mohiyatga ega³³.

Ijtimoiy rol – shaxsning ijtimoiy mavqeyiga, yaʼni jamiyatda yoki muayyan vaziyatda kim ekanligiga bogʻliq boʻlgan xulqi, xatti-harakatidir. Ijtimoiy rol shaxsning ijtimoiy sharoit bilan bogʻlangan xatti-harakatlarida namoyon boʻladi. Boshliq, xodim, ota, ona, oʻgʻil, qiz, oʻqituvchi, militsioner, sotuvchi, piyoda, erkak, ayol, kattalar, bola va h.k. – bularning barchasi shaxsning kasb-kor, kasbi, jinsi, yoshi, jamiyatdagi haqiqiy munosabatlari bilan belgilanadigan ijtimoiy rollaridir.

Kommunikativ rol – shaxsning muloqot jarayonidagi, muayyan kommunikativ vaziyatdagi xatti-harakati. Kommunikativ rol – shaxsning muayyan maqsadga erishish uchun muloqot jarayonida yaratadigan obrazi, odatiy pozitsiyasidir. Kommunikativ rol oʻzgaruvchan vaziyat belgilaridan iborat. Kommunikativ rolni bajarish uchun maʼlum subkodlar, masalan, muayyan bir tilning dialektlari, funksional uslublari, nutq janrlari ishlatiladi. Ijtimoiy va kommunikativ rollar muloqotchilarning niyatlariga qarab mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin.

³² Labov W. Phonological correlates of social stratification. AA, 66 (6), part 2, 1964. – P. 170.

³³ Лежнева И.И. Социоллингвистическое развитие английского и русского речевого этикета (на материале форм обращения, формул приветствия и прощания): Дисс. ...канд. филол. наук. – Воронеж, 2001. – С. 11.

Muxtasar qilib aytganda, rollar nazariyasi nafaqat nutqiy etiketni umumiy o'rganishda, balki tadqiqotimizning keyingi bobida muhokama qilinadigan nutqiy etiket birliklarining vazifalarini ko'rib chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida, asosan, sotsiolingvistik ma'lumotlardan foydalaniladi, chunki nutqiy etiketning jamiyat bilan bevosita aloqasi bizning nazariy xulosalarimiz va amaliy materiallarni o'rganish natijalari bilan tasdiqlangan.

Nutqiy etiket qoliplarini o'rganishning asosiy jihatlari. Barcha nutqiy etiket qoliplarini nutqiy muloqotning uch asosiy bosqichiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin. Har qanday muloqot jarayoni har ikkala suhbatdoshning quyidagi uch bosqichning qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilganiga qarab rivojlanadi:

- 1) muloqotga qanday kirishishi;
- 2) muloqotning qanday olib borilishi;
- 3) muloqotning qanday yakunlanishi.

Qayd etilgan birinchi va uchinchi bosqichlar sodir bo'ladigan nutqiy harakatlar o'z-o'zidan muloqotning maqsadini emas, balki faqat unga erishishga yordam berishi bilan xarakterlanadi. Aksincha, ikkinchi bosqich eng katta ma'lumot yukini ko'taradi va bu bosqichda foydaniladigan nutqiy etiket qoliplari aksariyat holatlarda birinchi va uchinchi bosqichlarga qaraganda ko'proq ma'lumot beradi³⁴.

Shunday qilib, bosqichlarning har biri muayyan qoliplar guruhlariga mos keladi:

1. Aloqa o'rnatish: "Salomlashish", "Tabriklash" va h.k.;
2. Nutqiy aloqani davom ettirish va ushlab turish: "Minnatdorchilik", "Murojaat", "Taklif etish" va h.k.;
3. Nutqiy aloqani yakunlash: "Uzr so'rash", "Rozilik", "Xayrlashish" va h.k.

Shuni ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan qoliplar shartli bo'lib, ularni aniq turlarga ajratish mumkin emas. Chunki nutqiy etiket qoliplarini u yoki bu turga ajratish, birinchi navbatda, uning tarkibiga, shuningdek, undagi qoliplar vaziyatining shartlilikiga bog'liq. Shuning uchun ba'zi guruhlar bir vaqtning o'zida nutqiy muloqotning ikki yoki hatto uch

³⁴ Лежнева И.И. Социолингвистическое развитие английского и русского речевого этикета (на материале форм обращения, формул приветствия и прощания): Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2001. – С. 17.

bo‘lagiga taalluqli bo‘lishi mumkin. Masalan, tabriklar boshlang‘ich bosqichda ham, muloqotning keyingi rivojlanish bosqichlarida ham qo‘llanilishi mumkin. Minnatdorchilikni ifodalovchi qoliplar nafaqat suhbatni davom ettirish bosqichida, balki uni yakunlashda ham qo‘llanilishi, shuningdek, murojaatlar muloqot jarayonining barcha bosqichlarida ishtirok etishi mumkin va hokazo.

Muomalaning turli formalari milliy o‘ziga xoslikka egaligi uchun chet tilida gapirilganda, faqat tilning o‘ziga xos an‘anaviy xususiyatlari – fonetik, leksik, grammatik jihatlarini to‘g‘ri talqin qilish bilan chegaralanmay, shu xalq uchun milliy nutq odatini ham bilish kerak. Muomala jarayoni nutqning mazmuni bilan chegaralanmaydi, ba‘zan informatsiyaning juda ko‘p qismi suhbatdoshlarning milliy odatlariga xos bo‘lgan paralingvistik vositalar, shuningdek, milliy-maishiy aloqa vositalari bilan beriladi. Bu tildan tashqari bo‘lgan vositalar shu millatga sezilmaydi, ular hatto boshqa chet tilida gaplashganda ham o‘z tiliga mansub mana shu vositalarni beixtiyor tarzda qo‘llaydilar. Ma‘lum millatga tegishli me‘yorning buzilishi tez ko‘zga tashlanib, ancha noqulaylik ham tug‘dirishi mumkin³⁵.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, tadqiqotimizda koreys va o‘zbek verbal va noverbal nutqiy etiket birliklarini ijtimoiy lisoniy va lingvomadaniy jihatlarini qiyosiy yoritishga harakat qildik. Zero, “tildan foydalanuvchi adresantlarning ijtimoiy differensiyasi, ularning doimiy ijtimoiy maqomi va o‘zgaruvchan ijtimoiy faoliyati verbal va noverbal birliklarni tanlab ishlatishni talab qiladi. Buning natijasida tildan foydalanuvchilar guruhiga uslubiy belgilangan, ya‘ni ularga mansub formula va ifodalar yuzaga keladi”.

Nutqiy etiket qoliplarini muayyan turlarga ajratish shartli bo‘lgani bois, biz o‘z tadqiqotimizda ularni qat‘iy guruhlashtirmadik. Chunonchi, tadqiqotimizda koreys va o‘zbek nutqiy etiketida keng tarqalgan va sermahsul bo‘lgan “Salomlashish” hamda “Xayrlashish” vaziyatlarida qo‘llaniladigan nutqiy etiket qoliplari tahlilga tortildi.

Koreys tilida nutqiy etiketlarning tadqiqi

Koreyslar bilan muloqot qilish amaliyotida koreys tilini juda yaxshi biladigan kishi ham kutilmaganda koreyslar tomonidan “Koreyscha gapira

³⁵ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 64.

olmaysiz” degan tanqidga uchrashi mumkin. Koreys tili sohibining bunday “past baho”si mutlaqo asossiz ko‘rinadi. Ko‘pincha buning sababi ijtimoiy maqomga xos tilni bilmaslikdir, ya’ni shaxslararo muloqot voqeligiga inson munosabatlaridagi murakkab iyerarxik tizimning ta’sirini tushunib yetmaslikdir. Bu lisoniy muhitda shakllangan muloqot uslublari, aslida, asrlar davomida shakllangan nutqiy etiket an’analarining majmuasi hisoblanadi.

Koreys nutqiy etiket an’analarining asosi konfutsiychilik ta’limotiga borib taqaladi. Konfutsiychilik nafaqat qadimgi Xitoyning, balki Koreyaning ham yetakchi mafkuraviy ta’limotlaridan biridir.

Koreys madaniyatida chuqur ildiz otgan konfutsiychilik 500 yil davomida Joseon sulolasi hukmronlik qilgan davrda (1392-1910) hukmdor davlat ta’limoti sifatida qo‘llanilgan. Shuning uchun koreys madaniyatini konfutsiychilikdan ayri holda tushunish mumkin emas, chunki Koreya zaminida qabul qilingan va o‘zlashtirilgan “koreys” konfutsiychiligini tushunmasdan turib, koreys hayoti va madaniyatiga hamroh bo‘lgan axloqiy ong va marosimlarning ma’nosini, hozirgi koreys jamiyati, madaniyati, siyosati va tarixini tushunish imkonsizdir. Darhaqiqat, “koreys” konfutsiychiligi ham jamiyatda, ham madaniyatda chuqur ildiz otgan³⁶.

Uch Qirollik davrida koreys konfutsiychiligi Konfutsiy qonuniga asoslangan siyosiy mafkuraga aylanib, ma’naviyat va ma’rifatni tarqatish, uni kishilar ongiga singdirish, ularni tarbiyalashning asosiy tamoyiliga aylandi.

Joseon davrida konfutsiychilik siyosat, ma’muriy tizim, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solib turuvchi, bir so‘z bilan aytganda, butun koreys turmush tarzining asosi, koreys jamiyatini tashkil etish prinsipi, qolaversa, kishilarning xatti-harakatlarini boshqarishning haqiqiy usuli sifatida namoyon bo‘ldi.

Aksariyat olimlar konfutsiychilikni “etikaning asosi” deb hisoblashadi. Zero, “Konfutsiy, uning eng yaxshi shogirdlari va izdoshlari har bir inson doim o‘z so‘zlariga katta e’tibor qaratishiga, mulohaza bilan so‘zlashga da’vat etgan. Shuningdek, ular boshqalarning nutqlariga ham juda katta ahamiyat berishgan”³⁷.

³⁶ Кым Джантэ. Конфуцианство в Корее / Кым Джантэ; пер.: Ко Ен Чоль, Д.Е. Мартынов. – Казань: Казанский университет, 2022. – С. 5.

³⁷ Конфуций. У истоков мудрости; [пер. с древнекит.; сост., пер., коммент. И.И. Семененко]. – М.: Эксмо, 2008. – С. 45.

Umuman, “Konfutsiychilikka asoslangan Sharqning namunalaridan biri – o‘zini kamtarona tutish va boshqalarni yuksaltirishdir, buni Konfutsiyning “hamma narsani oqilona qilish” so‘zlarida topish mumkin”³⁸.

Shuning uchun Koreyada insonga munosabat ko‘p jihatdan suhbatdoshlar xatti-harakatining nutqiy etiket va odob-axloq qoidalariga qanday mos kelishiga bog‘liq bo‘ladi. Aksariyat xalqlarning madaniyatida insonning tashqi ko‘rinishi, kiyinishi yoki bilimiga qarab baho berilsa, koreys madaniyatida suhbatdoshning xulq-atvori etiket qoidalariga, xususan, nutq etiketi qoidalariga rioya qilishiga qarab munosabat qilinadi.

Koreys jamiyatida mavjud bo‘lgan murakkab iyerarxik tizim shaxslararo munosabatlar, birinchi navbatda, madaniy va tarixiy omillar tufayli tilda yaqqol tarzda namoyon bo‘ladi. Tilda tajassum topgan shaxslararo munosabatlarning pog‘onali tizimi o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra an‘anaviy, sanoatlashuvga bo‘lgan jamiyatning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u Koreyada u yoki bu shaklda juda uzoq vaqt davomida mavjud bo‘ladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, koreys lisoniy muhitida muvaffaqiyatga erishish uchun koreys tili muloqot maydonidagi har qanday so‘zlovchi doimo o‘zini va suhbatdoshining yoshi, jamiyatdagi mavqeyi, suhbatdoshlar orasidagi psixologik masofa, shuningdek, “o‘ziniki va begona” tamoyillarini yodda tutishi lozim³⁹:

- 1) kattalar ↔ voyaga yetmaganlar
- 2) katta ↔ kichik ↔ tenglar
- 3) yuqori tabaqa ↔ past tabaqa
- 4) o‘ziniki ↔ begona.

Keltirilgan qarama-qarshiliklarning oxirgisiga alohida to‘xtab o‘tish kerak bo‘ladi. “O‘ziniki va begona” tamoyili arxaik jihatlarni o‘zida saqlab qolgan koreys etnopsixologiyasining o‘ziga xos xususiyatini namoyon qiladi. Koreyalik uchun suhbatdoshning “o‘ziniki” toifasiga tegishli bo‘lishi juda muhim sanaladi. Nutqiy etiket nazariyasida “o‘ziniki” tushunchasi ostida bir oilaga mansub bo‘lgan yoki yaqin munosabatlar ichida bo‘lgan jamoa tushuniladi.

³⁸ Post P. Emily post’s etiquette (16th ed). Harper Collins Publishers. 1997. – P. 45.

³⁹ Васильев А.А., Гурьева А.А. Как правильно общаться по-корейски: язык социального статуса в Корее. – СПб.: С.-Петербург. ун-т, 2017. – С. 4.

“O‘ziniki” bu – ota-onalar va bolalar, er va xotin, aka-uka va opa-singillar, do‘stlar va dugonalar, ishdagi hamkasblar va boshqalar. “O‘ziniki” bo‘lmagan suhbatdoshlar esa “begona” hisoblanadi.

“Tenglar” deganda ijtimoiy iyerarxiyada mavqeyi bir xil yoki egallagan lavozimi yaqin bo‘lganlar tushuniladi. “Tenglar” bu – tengdoshlar, kursdoshlar, taxminan bir xil yoshdagi notanish yo‘lovchilar, ayni muassasada taxminan bir vaqtda bir xil lavozimda xizmat qiladigan xodimlardir.

“Katta” va “kichik” ijtimoiy iyerarxiyada teng bo‘lmagan suhbatdoshlar, ya’ni yoshi va rasmiy mavqeyi bo‘yicha sezilarli darajada farq qiladigan kishilardir. Kattalik belgisi psixologik masofa bilan bir qatorda koreys jamiyatidagi eng muhim ijtimoiy belgidir.

Nutq xulq-atvori nuqtayi nazaridan bu odob-axloq qoidalariga doimo rioya qilish zarurligini anglatadi. Ikkinchisi, o‘z navbatida, har bir vaziyat ishtirokchilarining ijtimoiy-yosh maqomiga muvofiq bo‘lgan ijtimoiy yo‘nalishning tegishli darajasini mos ravishda tanlashni nazarda tutadi.

Xullas, “koreys jamiyati va oilasi pog‘onali (iyerarxik) munosabatlar asosida qurilgan bo‘lib, ular “oliy-yuqoriroq-yuqori-me’yorda-quyi-quyiroq-eng quyi” singari darajalarni o‘z ichiga oladi. Kishining yoshi, jinsi, ma’lumoti va mansabi iyerarxik munosabatlarning bosh omilidir. Kishining yoshi qanchalik katta yoki mansabi qanchalik yuqori bo‘lsa, u shunchalik hurmatga sazovor bo‘ladi. Oliy ma’lumotlilar va mansabdor shaxslar ko‘proq imtiyoz va obro‘ga egadirlar. Iyerarxik munosabat koreys tilining nazokat va hurmat shakllariga favqulodda boy ekanligi bilan ham yaqqol namoyon bo‘ladi⁴⁰.

Koreys madaniyatida 예절 [yejeol], 예의 [yeui] (Xulq-atvor qoidalari, Etiketi) kabi tushunchalar asosiy o‘rin tutadi. Shu bois 예의가 바르다 [yeuiga bareuda] “odobli, tarbiyali”, “xulq-atvor me’yorlariga mos keladigan”, “etiket qoidalariga to‘g‘ri rioya qiladigan” iborasi maqtov (kompliment)ning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, koreys madaniyatining asoslarini bilmasdan turib, koreys xalqi tomonidan adekvat qabul qilinib bo‘lmaydi hamda koreys madaniyati vakili bilan muvaffaqiyatli aloqa o‘rnatish mumkin emas.

⁴⁰ Usmanova Sh. O‘zbekcha va koreyscha so‘zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. – Seoul, 2004. – P. 50-51.

Chet elliklarning nutq etiketi me'yorlarini bilish darajasi koreyslar tomonidan koreys tilini bilish darajasiga tenglashtiriladi. Xususan, koreys tilini bilish xalqaro imtihoni Test of Proficiency in Korean – TOPIK imtihon topshiriqlarida etiket qoidalarini bilish bo'yicha savollar bo'lishi shart.

Koreys tilshunosligida 인사말 [insamal] xushmuomalik so'zlari bo'yicha tadqiqotlar xushmuomalik so'zlarini aniqlash va ularning turlarini batafsil ko'rsatishdan tortib, koreys tili sohiblarining xushmuomalik so'zlarini amalda qo'llashlarini o'rganish, ularni boshqa tillardagi xushmuomalik so'zlari bilan qiyoslash, umuman, koreys nutqiy etiketi qoidalarini qiyoslash va chog'ishtirishgacha bo'lgan turli yo'llar bilan tadqiq qilingan.

Koreys tilshunosligida nutqiy etiket nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar XX asrning oxirlarida boshlandi. Xususan, 1992-yilda Koreys tili tadqiqotlari milliy instituti 국립국어연구원 [gungnipgugeoyeonguwon] tomonidan 인사말 [insamal] xushmuomalik so'zlari bo'yicha nutqiy etiket standartlari taqdim etildi. Keyinchalik 2011-yilda institut xalq orasida so'rovnomalar o'tkazish va mutaxassislar bilan maslahatlashish orqali ushbu tarkibni qayta ko'rib chiqdi va to'ldirdi. Tadqiqot natijalari asosida 표준 언어 예절 [pyojun eoneo yejeol] "Nutqiy etiket standarti" asari nashr etildi⁴¹.

Koreys tilida 인사말 [insamal] xushmuomalik so'zlarini atroflicha tadqiq etgan tilshunos olimi Hwang Byeongsun (황병순)⁴² bu sohada amalga oshirilgan ishlardagi xushmuomalik so'zlarini tasniflash standartlarini tanqid qildi. Olim koreys nutqiy etiketidagi xushmuomalik so'zlarini mazmuni va shakllarini o'rganib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berdi va ularni 일상의 인사말 [ilsanguui insamal] "kundalik xushmuomalik so'zlari" va 특정 상황의 인사말 [teukjeong sanghwanguui insamal] "aniq vaziyatlardagi xushmuomalik so'zlari" singari jami 6 turga ajratib, tasniflab berdi.

Koreys tilshunos olimi Seo Hyeonseok (서현석)⁴³ 인사말 [insamal] xushmuomalik so'zlarini insoniy munosabatlarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qilgani uchun ularning do'stlik vazifasini bajarishiga e'tibor qaratdi. Shu bois kechirim so'rash, maqtash va minnatdorchilik bildirish iboralarini xushmuomalik so'zlari turkumiga kiritish mumkinligini taklif qildi. Bundan

⁴¹ 이대성 외. 남북 언어예절 비교 연구. 국립국어원. 2013. 16 쪽.

⁴² 황병순. 국어인사말 연구, 배달말. 25 (1), 배달말학. 1999. 1-25 쪽.

⁴³ 서현석. 「표준화법 개선을 위한 '인사말' 사용 실태와 개선 방안」, 화법연구, 15, 한국화법학회. 2009. 129-152 쪽.

tashqari, tadqiqotchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida salomlashishning qo‘llanish uslublari bo‘yicha so‘rov-noma o‘tkazib, yosh avlodda “Salomlashish” vaziyatida nazokat, buyruq hamda xorijiy yoki elektron aloqa tillardan olingan salomlashish uslublari qo‘llashga moyillik borligini aniqladi.

Koreys tilshunosi Na Yunjeong (나윤정)ning “Ijtimoiy muloqot uchun til sharoitlarini o‘rganish” nomli tadqiqotida⁴⁴ nutqiy etiket nazariyasiga sotsiolingvistik nuqtayi nazardan yondashildi. Tadqiqotda koreys tili murojaat birliklari va hurmat kategoriyasi misolida oddiy xalqning til vaziyatidan va bu vaziyatga mos keladigan nutqiy etiket standartlaridan foydalanishi masalasi o‘rganilib, nutqiy etiket, xususan, 인사말 [insamal] xushmuomalik so‘zlarini rivojlantirish zaruriyatiga e‘tibor qaratildi. Olim Koreys tili tadqiqotlari milliy instituti tomonidan “Nutqiy etiket standarti” asari nashr etilgandan beri ijtimoiy o‘zgarishlarga ko‘ra yangi nutqiy etiket me‘yoriga ehtiyoj ortib borganini alohida ta’kidladi. Binobarin, ijtimoiy o‘zgarishlar munosabati bilan jamiyat a‘zolarining ongi o‘zgardi, o‘z navbatida, murojaat birliklari va hurmat kategoriyasi birliklarining ham qo‘llanish shakli o‘zgardi. Umuman, Na Yunjeong (나윤정)ning mazkur tadqiqoti koreys xalqining ko‘pchiligi xayrixoh bo‘lgan kundalik lisoniy hayotidagi noqulayliklarni aniqlashga, yangi atamalarni ishlab chiqishga va standart nutqiy etiketni qayta ko‘rib chiqish yo‘nalishini belgilash uchun qimmatli ma’lumotlarni taqdim eta oldi.

Sotsiolingvistik yo‘nalishlardagi yana bir tadqiqot sifatida Kim Taegyeong (김태경)ning “Jamoat joylaridagi nutqiy etiket” nomli izlanishini qayd etish mumkin. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, “so‘nggi paytlarda yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishi, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi, vertikal ijtimoiy tuzilmaning qayta tashkil etilishi munosabati bilan jamiyat a‘zolarining tushunchasi o‘zgardi. Shu sababli, hozirgi standart nutq etiketida tavsiya etilgan aksariyat iboralar kamdan-kam qo‘llaniladi yoki hozirgi jamiyat a‘zolarining xarakteriga mos kelmaydi”⁴⁵. Tadqiqotda qayd etilishicha, “Ertalabki odatdagi salomlashish: 안녕? [annyeong?] Salom! 안녕하세요?/ 안녕하십니까? [annyeonghaseyo? /a nnyeonghasimnikka?] Assalomu alaykum! 안녕히 주무셨어요?/ 안녕히 주무셨습니까? [annyeonghi jumusyeosseoyo?/ annyeonghi jumusyeotseumnikka?] Yaxshi uxladigizmi?,

⁴⁴ 나윤정. 사회적 소통을 위한 언어 실태 조사. 서울: 국립국어원, 2017. 3 쪽.

⁴⁵ 김태경. 일반 사회 (공공장소)에서의 언어 예절. 한양대학교 한국어문화원. 특집 4. 74 쪽.

좋은 아침(입니다) [joeun achim(imnida)] Xayrli tong! kabi iboralar orasida 좋은 아침! [joeun achim!] Xayrli tong! iborasi chet tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilingan bo‘lib, 표준 언어 예절 [pyojun eoneo yejeol] “Nutqiy etiket standarti” (2011) asarida bu iborani ishlatmaslik maqsadga muvofiq deyilgan. Lekin o‘tkazilgan so‘rovnomaning natijalari buning aksini ko‘rsatadi va 좋은 아침(입니다) [joeun achim(imnida)] Xayrli tong! iborasini qanchalik ko‘p ishlatish haqida so‘rovnoma o‘tkazilganda barcha respondentlarning aksariyati undan foydalanishi aniqlangan”. Shundan kelib chiqqan holda, olim: “Nutqiy etiketga rioya qilmaslik holatlarining sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Etiket qoidalarini bilmasligi sababli unga amal qilmaslik holatlari, yoki bilsa ham bunday iboralarni ishlatish g‘alati tuyuladi yoki adresat noqulaylikka tushishdan xavotirlanib, etiket qoidalariga mos kelmaydigan iborlarni ishlatish holatlari ham mavjud. Ko‘pchilik tomonidan noto‘g‘ri qabul qilingan nutqiy etiket me‘yorlari bo‘yicha ta’lim va targ‘ibotni kengaytirilsa, ijtimoiy muloqotda vujudga keladigan keraksiz mojarolarni kamaytirishga yordam beradi” degan xulosaga keladi.

Jang Wonho (장원호) o‘zining doktorlik dissertatsiyasida “Insonlar uchun etiket bu – ijtimoiy munosabatlarda bajarilishi kerak bo‘lgan va‘da” deb ta’kidlaydi⁴⁶. Ijtimoiy vaziyatlarda kuzatilishi kerak bo‘lgan turli xil hayotiy me‘yorlar ichida etiket ko‘proq e’tiborga loyiqdir, chunki odamlar til orqali ijtimoiy munosabatlar o‘rnatadilar. Buning sababi, suhbatdoshni hisobga olgan holda tildan foydalanish yaxshi shaxslararo munosabatlarni shakllantirishga ijobiy ta’sir qiladi.

Koreys tilshunosligida nutqiy etiket nazariyasining boshqa bir yo‘nalishi metodika nuqtayi nazaridan bo‘lib, ularda, asosan, nutqiy etiketning ta’limda o‘rgatish masalasi yoritilgan. Bunday tadqiqotlarda yoshlarning til madaniyatini yaxshilash va kerakli til faoliyatidan foydalanish orqali xarakterni rivojlantirish uchun nutqiy etiketni o‘rgatish taklif qilinadi. Xususan, ularda nutqiy etiketning ahamiyati ta’kidlanib, nutq madaniyati an’analarini meros qilib olish uchun nutqiy etiketni tarbiyaviy mazmun sifatida singdirish maqsad qilingan⁴⁷.

⁴⁶ 장원호. 만 5 세 유아를 위한 언어예절교육 프로그램 개발 및 적용 효과. 중앙대학교 대학원. 박사학위 논문. 2022. 11 쪽.

⁴⁷ 김정화. 청소년 언어 예절 교육 방안 연구. 중앙대학교 교육대학원. 석사학위논문. 2015. 67 쪽.

Koreys tilshunosligida yoshlarning tildan foydalanishini o‘rgangan olimlar Kim Jeongseon (김정선), Kim Taegyeong (김태경) va Jeon Eunjin (전은진)larning ishlarida yoshlar nutqidagi haqiqiy holat umummillat darajasida tadqiq etilgan bo‘lsa⁴⁸, Lee Dongmin (이동민)ning tadqiqotida esa yoshlarning nutqi individual darajada o‘rganildi⁴⁹. Olim asosiy e’tiborini yoshlar nutqidagi vulgarizmlarga qaratdi va shu asosda yoshlar nutqini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqdi. Tadqiqotda o‘smirlarning deyarli har kuni vulgarizmlardan foydalanishi, lekin maktab turiga qarab so‘kish so‘zlarini ishlatishda farqlarning mavjudligi, chunonchi, umumiy o‘rta ta’lim maktablari akademika zo‘riqish kabi psixologik omillar, ixtisoslashtirilgan o‘rta maktablarda esa sinfdoshlar o‘rtasida oilaviy va atrof-muhit omillari ta’sirida so‘kislarning qo‘llanilishi bois ularga yondashish maqsadga muvofiqiligi alohida ta’kidlangan. Umuman, sinfdagi rasmiy va norasmiy muloqot ma’lumotlariga asoslangan holda olib borilgan mazkur tadqiqot o‘smirlar muloqotini yaxshilashda katta amaliy yordam berdi.

Koreys nutqiy etiketining metodika yo‘nalishidagi tadqiqotlarining asosida nutqiy etiket bo‘yicha keng qamrovli ta’lim dasturini ishlab chiqish orqali o‘ziga xos ta’lim mazmunini taqdim etish masalasi mavjud edi. Tilshunoslardan Jeong Yujin (정유진) va Kim Minjin (김민진)⁵⁰ nutqiy etiket bo‘yicha ta’lim mazmunida hurmat so‘zlarini o‘zlashtirishga urg‘u bergan bo‘lsalar, Jin Juhui (진주희)⁵¹ ta’lim mazmunini boyitishda tengdoshlar orasidagi munosabatlarda har bir vaziyatga mos bo‘lgan iboralarga e’tiborini qaratdi.

Tadqiqotchi Jang Wonho (장원호) o‘zining “5 yoshli bolalar uchun nutqiy etiket bo‘yicha ta’lim dasturini ishlab chiqish va qo‘llash samaradorligi” nomli doktorlik dissertatsiyasida kichik yoshdagi bolalar-ning nutq vaziyatiga mos va ravon gapira olishlari, jumladan, salomlashish so‘zlari, murojaatlar, hurmat so‘zlari, vaziyatga qarab to‘g‘ri ishlatiladigan

⁴⁸ 김정선 외. 청소년 입말에 나타난 비속어와 공격적 언어 표현 사용 실태 조사. 국어교육 140, 한국어교육학회. 2013.153-181 쪽; 김태경 외. 청소년 언어 사용 실태 조사. 사회언어학. 19-1, 한국사회 언어학회. 2011. 23-58 쪽; 전은진 외. 청소년 글말 사용에 나타난 언어폭력과 규범 파괴.한국언어문화 51, 한국언어문화학회. 2013. 229-254 쪽.

⁴⁹ 이동민. 청소년 화법의 사회언어학적 연구. 공주대학교 대학원. 박사학위 논문. 2013. 166 쪽.

⁵⁰ 정유진, 김민진. 그림책 읽기 후 역할극 활동이 유아의 존댓말 학습에 미치는 영향. 미래유아교육학회지, 18(2), 2011. 21-42 쪽.

⁵¹ 진주희. 그림책 읽기에 기초한 화법 교육이 유아의 화법 사용 능력, 또래 상호작용 능력, 자기조절력에 미치는 효과. 중앙대학교 대학원 석사학위논문. 2014. 135 쪽.

soʻz va iboralarni tadqiq etish bilan birga, nutqiy etiket pozitsiyalarini oʻqitish mazmunini qamrab olgan nutqiy etiket taʼlim dasturini ishlab chiqdi. Mazkur dasturda bolalarning kundalik hayotda boshdan kechirgan turli ijtimoiy vaziyatlarda nima deyish va nima qilish kerakligi, ular nutqiy etiket qoidalariga asoslanib, oʻz tengdoshlari va kattalarga eʼtibor qaratib, ijobiy oʻzaro munosabatlarni sinab koʻrishlari nazarda tutilgandi⁵².

Shunday qilib, qayd etilgan tadqiqotlarning barchasida nutqiy etiket tushunchasi va mazmuni ijtimoiy oʻzaro aloqa orqali oʻsib borayotgan shaxs uchun etiket ijtimoiy munosabatlarda rioya qilinishi kerak boʻlgan turmush tarzi sifatida qimmatli meʼyor oʻlaroq eʼtirof etildi. Nutqiy etiketni sotsiolingvistika va taʼlim nuqtayi nazaridan oʻrganish asosida unga turli muloqot vaziyatlariga mos ravishda rioya qilinishi kerak boʻlgan muloyim gapirish usuli va til harakatlari qoidasi sifatida qaraldi.

Yuqorida aytib oʻtilganlar bilan birga, koreys tilshunosligida qiyosiy aspektdagi tadqiqotlarga ham alohida qiziqish bilan qaralganligini koʻrish mumkin. Jumladan, Seo Jeongsu (서정수)ning tadqiqotida⁵³ koreys, yapon, ingliz va xitoy tillaridagi salomlashish qoliplari 16 ta kategoriyaga ajratilib oʻrganildi. Har bir kategoriya boʻyicha qiyoslanilayotgan tillardagi salomlashish soʻzlari taqdim etilib, ularning kelib chiqishi ochib berildi. Shuningdek, tilshunos salomlashish bilan bogʻliq madaniy omillar va salomlashishning qoʻllanilishidagi farqlar tufayli notoʻgʻri tushunilishi mumkin boʻlgan jihatlarni ham koʻrsatib berdi.

Mun Geumhyeon (문금현) Koreya Respublikasining eng yirik gazetasi “Joseon Ilbo” va Koreys tili tadqiqotlari milliy instituti tomonidan taklif qilingan koreys tilining xushmuomalalik soʻzlarini tasniflab chiqib, ularga mos keladigan turgʻun iboralarni taklif qildi⁵⁴. Bundan tashqari, koreys xalqining xushmuomalalik soʻzlaridan foydalanishini tahlil qilish maqsadida soʻrovnomaga oʻtkazib, koreys tilidagi xushmuomalalik ifodalarini xitoy, yapon, ingliz tillari bilan qiyosladi. Tahlillar natijasida koreys va yapon tillarining xushmuomalalik ifodalarida juda koʻp oʻxshash tomonlarning borligi, ingliz tilidan esa farqli jihatlarning koʻpligi aniqlandi.

⁵² 장원호. 만 5 세 유아를 위한 언어예절교육 프로그램 개발 및 적용 효과. 중앙대학교 대학원. 박사학위 논문. 2022. 9 쪽.

⁵³ 서정수. 「한국어, 일본어, 영어 및 중국어의 인사말 비교 연구 = A Comparative Study of Greeting Expressions in Korean, Japanese, English, and Chinese」, 비교한국학, 4, 국제비교한국학회. 1998. 13-36 쪽.

⁵⁴ 문금현. 「한국어 인사 표현의 유형과 특징」, 세계한국어문학, 1, 세계한국어문학회, 2009. 93-122 쪽.

Bak Yeongsun (박영순)ning “Koreys va yapon tillarida salomlashish aktining sotsiolingvistik tadqiqi” nomli dissertatsiyasida maktab o‘quvchilari, talabalar va ishchi xodimlarning nutqi asosida salomlashish aktining ijtimoy-lisoniy jihatlari o‘rganildi⁵⁵. Tadqiqotda har ikkala lisoniy hamjamiyatdagi “salomlashish” vaziyatining farqli va o‘xshash jihatlari aniqlandi. Shuningdek, salomlashish aktidagi nolisoniy vositalarning o‘rni ham ochib berildi.

Yuqorida bevosita Koreya Respublikasida nutqiy etiket nazariyasi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. Bulardan tashqari, rus va o‘zbek tilshunos olimlari tomonidan ham nutqiy etiket masalalariga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar olib borilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, T.Yu.Kaplan va T.S.Deryuginalarning “Zamonaviy koreys tilining nutqiy etiketi”⁵⁶ nomli asarida koreys tilidagi murojaat shakllari, ularning turlari, qarindoshlik doirasida ishlatiladigan murojaat birliklari, rasmiy va norasmiy vaziyatlarda qo‘llaniladigan murojaatlar bilan birga, hozirgi zamon koreys tilida ishlatiladigan nutqiy etiket qoliplari, xususan, salomlashish turlari, telefondagi so‘zlashuv odobi, xat va tabriknoma yozish qoidalari, qadah so‘zlari va hamdardlik iboralari tadqiq etilgan.

D.A.Samsonovning tadqiqotida koreys qarindoshlik tizimi va oila etiketi, koreys an‘analari, marosimlari, salomlashishda ta‘zimning o‘rni va h.k.lar o‘rganilgan⁵⁷.

A.A.Vasilyev va A.A.Guryevalar kabi tilshunoslar Koreyadagi ijtimoiy maqom tili va koreys tilida qanday muloqot qilish masalalarini tadqiq etib, koreys tilida ijtimoiy orientatsiya kategoriyasini ko‘rsatib berdilar. Shuningdek, tadqiqotda koreys nutqiy etiketi masalasi batafsil tahlil qilinib, koreys nutq uslublari hamda asosiy so‘zlashuv qoliplari ko‘rsatib berildi⁵⁸.

Go Yeoncheol, Ju Sunmenlarning “Koreys tilida nutqiy etiketning o‘ziga xos xususiyatlari” nomli tadqiqotida koreys hurmat nutqi lisoniy madaniyat nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Tadqiqotda hurmat shakllarining ijtimoiy me‘yor sifatida qo‘llaniladigan sohalari, koreys hurmat tizimi va

⁵⁵ 박영순. 한일 양국인의 인사행동에 관한 사회언어적 연구. 계명대학교 대학원 박사학위논문. 2003. 9 쪽.

⁵⁶ Каплан Т.Ю., Дерюгина Т.С. Речевой этикет современного корейского языка. – Владивосток: Дальневосточный университет, 2003. – 135 с.

⁵⁷ Самсонов Д.А. Корейский этикет: опыт этнографического исследования. – СПб.: Наука, 2013. – 144 с.

⁵⁸ Васильев А.А., Гурьева А.А. Как правильно общаться по-корейски: язык социального статуса в Корее. – СПб.: С.-Петерб. ун-т, 2017. – 120 с.

ijtimoiy iyerarxiya munosabati va ularga konfutsiychilikning ta'siri yoritib berilgan⁵⁹.

T.N.Sivkova, Yun Yevonlar tomonidan rus va koreys nutqiy etiketidagi salomlashish va xayrlashish vaziyatlarining rus tilida muloqot qiluvchilarning yaqinlik darajasiga, ularning yoshi, jinsi, salomlashayotgan kishining kimligiga bog'liqligi, koreys tilida esa salomlashish va xayrlashish muloqot joyiga, vaziyatga, yoshga, muloqotchilarning unvoni va maqomiga bog'liqligi qayd etilgan⁶⁰.

V.V.Miznikovaning "Yapon va koreys tillarida nutq tuzilishi va murojaatlardan foydalanish" nomli tadqiqotida ⁶¹ har ikki tilda nutq vaziyatiga mos murojaat shakllarini tanlashda iyerarxiya belgisining muhim hisoblanishi, har ikki tilda murojaatlarning "familiya + lavozim, unvon" formulasining keng tarqalganligi, shuningdek, koreys tilidagi murojaatlarda xushmuomalalik darajasining yuqoriligi aniqlangan.

O'zbekistonlik koreyashunos olimlar tomonidan ham koreys nutqiy etiketining ayrim jihatlari tadqiqotga tortilganini ko'rish mumkin. Masalan, mahalliy koreys tilshunoslaridan N.D.Kim va D.K.Abbasovalarning tadqiqotlarida nutqiy etiket birliklaridan sanalgan murojaatning undalma shaklida kelishi haqidagi ayrim ma'lumotlarni uchratish mumkin ⁶². Tilshunos G.D.Yunusova fe'lining hurmat shakli, o'zlashtirma gap, shaxs-son kategoriyasi ifodalanishida shaxs o'rnining muhimligini tadqiq qilgan⁶³.

Mahalliy koreys tilshunoslaridan tomonidan bevosita qiyosiy yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar sifatida D.R.Ashirbayevaning "Koreys

⁵⁹ Ко Ен Чоль, Чжу Сун Мен. Особенности речевого этикета в корейском языке // Глобальный научный потенциал / Языки народов зарубежных стран. № 12 (117), 2020. – С.267-273.

⁶⁰ Сивкова Т.Н., Юн Евон. Приветствие и прощание в русском и корейском речевом этикете // Материалы ежегодной международной конференции. 1-2 июня 2015. – Екатеринбург: УрФУ. – С. 106-117.

⁶¹ Мызникова В.В. Речевое оформление и использование обращений в японском и корейском языках. Вестник СПбГУ. Сер. 13. 2013. Вып. 1. – С. 28-34.

⁶² Ким Н.Д. Грамматическая и функционально-семантическая природа главных членов предложения в корейском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2006. – 141 с.; 아바소바 딜푸자. 우즈베크어-한국어 번역에 나타난 복합문의 특성 연구. 계명대학교 대학원. 박사학위논문. 2021. 154 쪽. (Аббасова Д.К. Ўзбек тилидан корейс тилига таржимада қўшма гапларни беришининг ўзига хосликлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тегу, 2021. – 154 б.).

⁶³ Юнусова Г.Д. Замонавий корейс тилида кўмакчи феълларнинг семантик-функционал хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 130 б.

va o‘zbek diskursida murojaat birliklarining qiyosiy tadqiqi”⁶⁴ nomli dissertatsiyasini qayd etish mumkin. Mazkur tadqiqotda koreys va o‘zbek tillaridagi murojaat birliklarining nutq vaziyati hamda muloqotdoshlarning ijtimoiy mavqeyi, yoshi, jinsi, yaqinlilik va pog‘onali munosabatlar darajasi, shuningdek, qarindoshligiga ko‘ra qo‘llanishidagi xarakterli xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, Jo Minyeongning “O‘zbek va koreys tillarida o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi”⁶⁵ nomli dissertatsiyasida o‘zbek va koreys tillaridagi flora va fauna kodli, inson tashqi ko‘rinishi hamda inson xulq-atvorini tavsiflovchi o‘xshatishlarning har ikkala millatga xos olam lisoniy manzarasini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar ekanligi, shuningdek, o‘zbek va koreys tillarida meliorativ o‘xshatishlarning ko‘pligi har ikkala lingvojamoda odob-axloq va nutqiy odat me‘yorlarining ustuvorligi bilan bog‘liqligi yoritib berilgan.

Aytilganlar bilan birga, tilshunos olim Sh.Usmanovanning bir qator tadqiqotlarida koreys va o‘zbek nutqiy etiket birliklarining ayrim jihatlari qiyosiy tadqiq etilib, ularning lingvomadaniy va ijtimoiy lisoniy xususiyatlari lingvistik va ekstralingvistik omillar vositasida o‘rganilgan⁶⁶.

Biroq yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda koreys va o‘zbek nutqiy etiket birliklarining sotsiolingvistik jihatlari qiyosiy aspektda kompleks tarzda o‘rganilmagan. Shu bois mazkur tadqiqotimiz koreys va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga, ayniqsa, qiyosiy tilshunoslik, sotsiolingvistika va lingvokulturologiya sohalarining taraqqiyotiga o‘ziga xos hissa bo‘lib qo‘shiladi, deb umid qilamiz.

⁶⁴ Аширбаева Д.Р. Корейс ва ўзбек дискурсида мурожаат бирликларининг қийосий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – 146 б.

⁶⁵ Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2023. – 140 б.

⁶⁶ Usmanova Sh. O‘zbekcha va koreyscha so‘zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. – Seoul, 2004. – P. 50-51; Usmanova Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Universitet, 2014. – 84 б.; Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: TDSHI, 2015. – 192 b.; Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. – Toshkent: TDSHI, 2017. – 160 b.; Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2019. – 246 b.; Усманова Ш. Корейс ва туркий тилларда ундалмалар // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент: “Университет”, 2004. – Б. 74-77; Усманова Ш. Ўзбек ва корейс тилларида расмий мурожаат шакллари // Лингвист / Илмий мақолалар тўплами. III. – Тошкент, 2012. – Б. 162-166.; Усманова Ш. Оламнинг лисоний манзарасини яратишда ўхшатишларнинг ўрни // Sharqshunoslik № 1. – Тошкент: ТДШИ, 2015. – Б. 76-81.

O'zbek tilida nutqiy etiketlarning o'rganilishi

Nutq madaniyati bilan bog'liq muammolar fanimiz tarixida antik davr tilshunosligiga borib taqaladi. O'zbek tilshunosligida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar, boshqa ko'plab xalqlar tilshunosligi tarixida bo'lgani kabi, dastavval, madaniyatshunoslik, odob-axloq me'yorlari qatorida o'rganilgan. Bu davr adabiyotlarida o'rganilgan nutqiy etiket, jumladan, muloqot shakllari til birligi sifatida emas, balki tarbiya ifodasi, inson shaxsiyatining namoyon etuvchi tushunchalar sifatida tahlil etilgan. Bu kabi asarlar mohiyatiga ko'ra ilmiylikka nisbatan ko'proq didaktik xarakterga ega hisoblanadi. Ularda pand-nasihat qilish, yo'l-yo'riq ko'rsatish va asar maqsadiga ko'ra ham o'rganishdan ko'ra o'rgatish ustuvorligi seziladi. Bunday asarlar qatoriga Kaykovusning "Qobusnoma", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Ahmad Yugnakiyning "Xibatul haqoyiq", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" kabilarni kiritish mumkin⁶⁷.

Qayd etilganlar bilan birga, Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya" asarida nutq mezonlari, balog'at (notiqlik) ilmi haqida salmoqli fikrlar bildirilgan⁶⁸. Abu Nasr Farobiyning "Fazilat, baxt, saodat va kamolot haqida" asarida mazmundor va tugal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiq chambarchas bog'langan bo'lishi kerakligi alohida ta'kidlangan⁶⁹.

Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub", "Nazm ul-javohir" asarlarida o'zbek tilida nutq tuzilishining ahamiyatiga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan: "Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur. . ."⁷⁰.

O'zbek tilshunosligida nutqiy etiket masalalari bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. Mazkur masala o'zbek tilshunosligida dastlab nutq madaniyati, muloqot me'yorlari doirasida o'rganilgan⁷¹. Bu sohada B.

⁶⁷ Кахаров Қ. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2020. – Б. 16.

⁶⁸ Бируни А.Р. Избранные произведения. Геодезия. Исследование, перевод и примечания И.Г. Булгакова. Художник И. Икрамов. – Ташкент: Издательство «Фан» Узбекской ССР. Академия наук Узбекской ССР. Институт востоковедения им. Бируни, 1966. Том 3, – 361 с.

⁶⁹ Абу Наср Фаробий. Фазилат, бахт, саodat ва камолот ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 2002. – 64 б.

⁷⁰ Алишер Навоий. Махбуб-ул қулуб. – Б. 54. www.ziyouz.com/navoiy_mahbubul_qulub_com.doc

⁷¹ Шодмонов Э. Муомала муносабатларида қўлланилган сўз-гапларга доир. // Тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1970. – Б. 167-175; Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972. – 28 б.; Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошкент: Фан, 1974. –

O‘rinboev, N. Mahmudov, S. Mo‘minov, Sh. Iskandarova, R. Rasulov va boshqa izlanuvchilar tomonidan alohida monografik tadqiqotlar olib borilgan⁷².

Nutq madaniyati ham nutqiy etiket kabi aloqa-aralashuv jarayoni uchun xizmat qiladi, ularning o‘xshash jihati shundaki, ikkisi ham muloqotni belgilangan me‘yorda, kelishmovchiliklar va qarshiliklarsiz, maqsadga muvofiq tarzda olib borishga qaratilgandir. Nutqiy etiket tushunchasini nutq madaniyatidan farqlash zarur. Nutq madaniyatida o‘ziga xos talab – me‘yor mavjud. Ya’ni yuqori nutq madaniyatiga ega bo‘lish uchun nutq egasida bilim va malakalar yetarli bo‘lishi bilan birga, o‘z fikrlarini til birliklari yordamida to‘g‘ri, aniq va ifodali yetkazib bera olish mahorati ham mavjud bo‘lishi kerak⁷³. Ko‘rinadiki, nutq madaniyati ancha keng tushuncha bo‘lib, nutqiy etiket uning tarkibiga kiradi.

O‘zbek tilida nutq madaniyati, nutqiy etiket masalalarining nazariy o‘rganilishida va alohida yo‘nalish sifatida shakllanishida S.Ibrohimov, R.Qo‘ng‘urov, X.Doniyorov kabi taniqli olimlar alohida hissa qo‘shdilar. Keyinchalik bu sohada E.Begmatov, A.Rustamov, N.Mahmudov kabi yirik olimlar leksik birliklar, so‘z kesimida, B.O‘rinboyev esa sintaksis yo‘nalishida izlanishlar olib bordilar. E.Begmatov, Yo.Tojiyev, S.Mo‘minov, S.Karimov, Sh.Iskandarova, A.Mamatov, Z. Akbarovalarning ishlari bevosita nutqiy etiket birliklarining tahliliga bag‘ishlandi.

148 б.; Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошкент: Фан, 1991. – 91 б.; Неъматов О., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 32 б.; Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 160 б.; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 47 б.; Мўминов С.М. Оказионал нутқий номинацияда мотивациянинг роли: Филол.фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 1990. – 20 б.; Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Самарқанд, 1993. – 27 б.

⁷² Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 40 б.; Маҳмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1997. – 112 б.; Маҳмудов Н. Нутқнинг жўялилиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. 3-сон. – Б. 13-17; Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. 5-сон. – Б. 3-16; Маҳмудов Н. Зиддият ва маъно тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. 3-сон. – Б.16-24; Мо‘minov S. Muloqot mezonlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 96 б.; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 47 б.; Расулов Р., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти (ўқув-методик қўлланма). – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2004. – 112 б.; Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 23 б.; Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – 39 б.; Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 25 б.; Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот ҳулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б. ва бошқалар.

⁷³ Ожегов С.И. Лексикология. Лексикография. Культура речи. – М.: Высшая школа, 1974. – С. 287.

O'zbek tilshunosligida nutqiy etiketlar ilmiy nazariyasining rivojlanishida tilshunos olim N.Mahmudovning alohida xizmatlari bor. Jumladan, olimning bir qator asarlarida o'zbek tili nutqiy me'yorlarining lingvokulturologik, antropotsentrik hamda kognitiv tilshunoslik yutuqlarini o'zida aks ettirgan jihatlari atroflicha, chuqur o'rganildi. Shuningdek, N.Mahmudov nutq uslublari, xususan, o'zbek tilida ish yuritish masalalarining nazariy asoslanishiga ham katta hissa qo'shdi⁷⁴.

Tilshunos S.Mo'minov o'zbek muloqot xulqini ilk bor ijtimoiy lisoniy va psixolingvistik aspektda o'rgangan olimlardandir. Uning tadqiqoti bevosita nutq madaniyati masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda, asosan, muloqot bosqichlari, jarayonning maqsadli kechishi shartlari, muloqot ishtirokchilarining shaxs xususiyatlari, binobarin, o'zbek kommunikantlari faoliyatining kompozitsion bosqichlari, kommunikantlar o'rtasidagi munosabatning milliy o'ziga xos xususiyatlari, muloqot xulqining jins, yosh, sotsial va hudud jihatidan xoslanishini atroflicha tadqiq etilgan. Bundan tashqari, S.Mo'minovning ilmiy ishida nutqning gender xoslanishi masalasiga ham alohida to'xtab o'tilib, o'zbek ayollari va erkaklari nutqiga xos jihatlari, differensiyalar, o'zbek ayollari va erkaklari muloqotining nolisoniy vositalari haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, o'zbek tilshunosligida ilk bor nutqning hasrat turi va uning adresant ruhiyatiga, fiziologiyasiga ta'siri haqidagi nazariy fikrlarning bayon qilingani e'tiborga molikdir⁷⁵.

O'zbek tilshunosligida birinchi marta o'zbekona nutqiy odat masalalarini maxsus o'rgangan tilshunos olim Sh.Iskandarovanning dissertatsiyasida nutqiy odat vaziyatining presuppozitsiyasi bilan aloqasi ochib berildi, nutqiy odat birliklari hosil qilgan sinonimik qatorning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berilib, uning paralingvistik va sotsiolingvistik tomonlari aniqlandi. Tadqiqotda nutqiy odat uchun muloqotning o'rni va paytining mavjudligi, so'zlovchi va tinglovchining ishtiroki, maqsad, asos,

⁷⁴ Маҳмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1997. – 112 б.; Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 40 б.; Маҳмудов Н. Нутқнинг жўялилиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. 3-сон. – Б. 13-17; Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24; Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Маҳмудов Н. Фан тили ва тил фани // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 3-10; Маҳмудов Н. Зиддият ва маъно тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2014. 3-сон. – Б. 16-24; Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. – 176 б.

⁷⁵ Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 235 б.

aloqa vositalari, xulq-atvorning maxsus belgilangan shakllari, ifoda mavzusi, so‘zlashuvchilarning o‘zaro munosabatlariga xos xususiyatlar, ijtimoiy belgilar, vaziyatning rasmiy va norasmiyligi belgilarini tanlab, ularni barqaror va o‘zgaruvchan belgilarga ajratib o‘rganildi. Olima o‘zbek xalqiga xos katta yoshdagi kishilarga hurmat, tanish-notanish suhbatdoshlar o‘rtasidagi samimiylik, Sharq ayoliga xos iffat kabi noyob fazilatlarni turli ijtimoiy guruh a‘zolari nutqi vositasida batafsil yoritib bera olgan⁷⁶.

Tadqiqotchi Q.Rasulovning “O‘zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi” nomli dissertatsiyasida muloqotning kasb bilan bog‘liq me‘yorlari, ularning lisoniy va nolisoniy shakl hamda vositalari, muloqot jarayonida kommunikantlarning ijtimoiy roli va pozitsiyasi o‘rganilgan. Shuningdek, tadqiqotda kommunikant nutqining kasb-kor jihatidan o‘ziga xosligini izohlab turuvchi lisoniy va nolisoniy vositalar, kasbiy etika va kasb xarakterining kommunikant muloqot xulqiga ta’siri va uning nutqda ifoda etilish xususiyatlari ham alohida tahlilga tortilgan⁷⁷.

O‘zbek tilida murojaat shakllarini tadqiq etgan olim Z.Akbarova izlanishida murojaatning inson nutq faoliyatining ajralmas qismi sifatidagi universal hodisa ekanligi, murojaatning mavqeyi, bosqichlari, murojaat ifodalashning o‘ziga xos shakllari, murojaat maydoni strukturasi kabi masalalar atroflicha yoritib berilgan. Shu bilan birga, tadqiqotda murojaat shakllarining ijtimoiy xususiyatlari, undalma va murojaatning umumiy va farqli tomonlari, ifodalanish usuli hamda vositalari, murojaat ifodalanishining ekstralingvistik hamda psixolingvistik omillari o‘rganilgan⁷⁸.

H.Hojiyeva o‘zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy nutqiy xususiyatini o‘rganar ekan, hurmatni kategorial ma’no emas, balki unga maydon deb qarashni taklif qiladi. Tadqiqotchi hurmatning ifodalanishini lisoniy va nolisoniy vositalarga ajratadi, hurmat vositalarining qo‘llanishidagi ijtimoiy omilning ahamiyatini ko‘rsatib beradi va hurmat maydoni vositalarida nutqiy ma’nodoshlik mavjudligiga aniqlik kiritadi⁷⁹.

⁷⁶ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – 140 б.

⁷⁷ Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.

⁷⁸ Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 135 б.

⁷⁹ Ҳожиёва Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2001. – 130 б.

M.Saidxonovning tadqiqotida o'zbek tilshunosligida ilk marotaba o'zbek aloqa aralashuvida ishlatiluvchi noverbal vositalar alohida monografik tahlil qilingan. Tadqiqotchi noverbal vositalarni intralingvistik va ekstralingvistik omillar nuqtayi nazaridan o'rganib, noverbal vositalarning qo'llanish o'rinlari va somatik xususiyatlari, ularning verbal ifodalaridagi nominativ va uslubiy jihatlarini ko'rsatib bergan⁸⁰.

Aytilganlar bilan birga, B.Husanov va V.G'ulomovlarning tadqiqotida muomala madaniyatining insonlararo muloqotdagi ahamiyati, uning mezonlari, shaxs kamolotidagi zaruriyati, axloqiy me'yorlar muomala madaniyatining asosi ekanligi, muomalada yuzaga keladigan ziddiyatlar, so'zlashuv madaniyatining milliy xususiyatlari, shirinso'zlik va uning shartlari kabi masalalar tahlil qilingan⁸¹.

Yuqoridagi tahlilga olingan ishlarning aksariyati bir til doirasida tadqiq etilib, bir til qonuniyatlarini o'rganish bilan cheklangan. Shunga qaramay, so'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham qiyosiy aspektdagi izlanishlarning yuzaga kelganini ko'rish mumkin. Jumladan, B.Raxmatillayevaning tadqiqotida o'zbek va rus tillaridagi etiket shakllarining murojaatda ism sifatida qo'llanilishi, ularning shakllanishida lingvistik va ekstralingvistik omillarning ta'siri chog'ishtirib tahlil qilingan. Ishda adresat va adresantning etiket shakllarini tanlashi ularning ijtimoiy mavqeyi, yoshi, ta'lim-tarbiyasi, tanishlik darajasi, nutqlarining emotsional belgisi va so'zlashish sharoiti bilan bog'liqligi aniqlangan. Shuningdek, o'zbek va rus tillaridagi murojaat shakllarining rasmiy va norasmiy vaziyatlarda qo'llanishidagi umumiy va farqli jihatlarini ko'rsatib berilgan⁸².

H.Turdiyevaning dissertatsiyasida fors va o'zbek nutqiy etiket birliklari lingvopragmatik jihatdan tadqiq etilgan. Unda nutqiy etiket birliklarining tamoyillari, qo'llanilish strategiyalari, substrategiyalari, face ifodasi, FTA (Face threatening acts – facega tahdid soluvchi harakatlar) va FSA (Face saving acts- faceni saqlovchi harakatlar) nazariyalari fors va o'zbek tiliga tatbiq qilingan va ashyoviy misollar bilan dalillangan; fors va o'zbek tillarida salomlashuv, xayrlashuv, mulozamat birliklari hamda murojaat shakllari aks etgan nutqiy aktlar lingvopragmatik nuqtayi nazardan

⁸⁰ Саидхонов М.М. Нoвeрбaл мaсaлaлaр вa ўзбeк тилидa улaрнинг ифoдaлaниши: Филол. фaн. нoмз. ... дисс.aвтoрeф. – Тoшкeнт, 1993. – 26 б.

⁸¹ Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati. – Toshkent: "Ta'lim nashriyoti", 2009. – 156 b.

⁸² Рахматиллаева Б.Х. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 18 с.

tadqiq qilingan, ikki til nutqiy etiket birliklaridagi universalliya, xarakterologiya, unikaliiylar hamda allomorf va izomorfilar isbotlangan; nutqiy etiket birliklarining har ikki qo'llanish o'rinlari, stilistik, genderologik, kommunikativ jihatdan turlari, somatik xususiyatlari og'zaki va yozma nutq jarayonida empirik usulda tahlil etilgan va jadvashtirilgan⁸³.

O'zbek va nemis nutqiy etiketlari qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan Q.Kaxarovning dissertatsiyasida har ikkala tildagi nutqiy etiketning rasmiy/norasmiy shakllari diniy-etnik, ijtimoiy-tarixiy me'yorlar vositasida asoslab berilgan, o'zbek va nemis muloqot jarayonidagi murojaat shakllarining qo'llanish darajasi urf-odat, madaniyat, milliy-me'yoriy mezonlar asosida yoritib berilgan, kommunikatsiya jarayonidagi yosh hamda jins bilan aloqador noverbal vositalar aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotchi o'zbek va nemis xalqlari nutqiy etiketlarini o'zaro katta farq qiluvchi sharq va g'arb madaniyatiga tayangan holda tahlil qilib, "sen" va "siz" shakllarining muloqot jarayonidagi me'yoriy holatlari va ular o'rtasidagi differensiiylarni gender munosabatlariga ko'ra tadqiq etib, ishonchli xulosalar chiqargan⁸⁴.

Yuqoridagi tahlillarni o'zbek tilshunos olimi N.Mahmudovning quyidagi ta'birini keltirish bilan muxtasar qilish o'rinli bo'ladi: "...vazifasi til va madaniyat, til va etnos, til va mentalitet o'rtasidagi o'zaro munosabatni tavsiflash va o'rganishdan iborat bo'lgan bu yo'nalishda o'zbek tilshunosligida qiyosiy aspektidagi izlanishlar endi-endi boshlanmoqda"⁸⁵.

⁸³ Турдиева Х. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 167 б.

⁸⁴ Кахаров Қ. Ўзбек ва немис нуткий этикетларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2020. – 154 б.

⁸⁵ Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б. 57.

KOREYS VA O‘ZBEK NUTQIY ETIKETIDA “SALOMLASHISH” VA “XAYRLASHISH” VAZIYATLARINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTLARI

Nutqiy odatning sotsiolingvistik yo‘nalishi /aspekti/ til va nutq, ularning o‘zaro aloqasi, ijtimoiyligi singari masalalar bilan uzviy bog‘liq.

Biror guruhda keng tarqalgan til birligi boshqa guruhda ko‘p ishlatilmasligi tabiiyligi tufayli ularni til birliklarini ishlatishiga qarab farqlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, yoshlar nutqida “Salomlashish” vaziyatida “Salom, qalaysan?”, keksalar nutqida esa “Assalomu alaykum, bardammisiz?” tez-tez, juda keng qo‘llaniladi. Bunda ularni birlashtiruvchi sema – so‘rashish ma‘nosi, differensial sema – yosh belgisi sifatida ko‘rsatiladi⁸⁶.

Demak, har bir sotsial guruh a‘zolari yashash joyi, kasb-hunari, bilim darajasi, yoshi, jinsi va shu kabi tomonlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bu farq ularning nutqida ham ma‘lum darajada namoyon bo‘ladi. Nutqiy etiketning bu xususiyati uning sotsiolingvistik yo‘nalishini tashkil qiladi.

“Salomlashish” vaziyati va unga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar

Nutqiy etiket til vositalaridan foydalanishni tartibga soluvchi ijtimoiy omillar ta’sir ko‘rsatadigan sohalardan biridir. Ijtimoiy omillar tilni qo‘llash sharoitlarini shakllantiribgina qolmay, balki til birliklaridan foydalanish me‘yorlarini ham tartibga soladi. Ya’ni, ijtimoiy o‘ziga xoslik, jamiyatning ijtimoiy differentsiatsiya/ tabaqalanish xususiyatlari, shaxsning ijtimoiy holati va mavqeyi nutq tarkibiga kiradi⁸⁷.

Salomlashmoq va ko‘rishmoq adresant va adresatlar o‘rtasida “Assalomu alaykum”, “Vaalaykum assalom” tarzida bo‘lib o‘tadigan shunchaki dialogik jarayongina bo‘lib qolmay, balki asrlar mobaynida tarkib topgan, kishilarning o‘zaro aloqalaridagi tamoyillarni, axloqiy qiyofalaridagi me‘yorlarni ifodalaydigan murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u muloqotning birinchi va eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Salom berib hol-ahvol so‘rash har bir kishining ichki madaniyatlilik, xulq-atvori, insoniyligi, odamshavanda ekanligining dastlabki belgisi hisoblanadi⁸⁸.

⁸⁶ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 61, 80.

⁸⁷ Запорожец М.Н. Социоллингвистика. – Тольятти: ТГУ, 2014. – С. 73.

⁸⁸ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 177.

Dunyodagi barcha xalqlarning o‘zaro muloqotga kirishishida birinchi qadam salom berish va alik olishdan boshlanadi. Salomlashishning asosiy maqsadi – muloqotga kirishishdan oldin insonlar o‘rtasida ishonchni yuzaga chiqarish, dastlabki noto‘g‘ri tasavvurlarni bartaraf etish, suhbat rishtalarini o‘rnatishdan iboratdir. Salom birovni uchratganda, kimgadir yaqinlashganda aytiladigan, xushmuomalalikni ifodalaydigan so‘zdir.

Salomlashish shakllari

Kommunikativ faoliyatning barcha vositalari ikki katta: verbal (nutqli) va noverbal (nutqsiz) guruhga ajraladi. Verbal vositalar yordamidagi muloqot (lot. verbalis – og‘zaki va lot. communicatio – muloqot) inson uchun asosiy hisoblanadi. Bu o‘rinda kommunikativ faoliyatning nafaqat genezisi (binobarin, dastlab noverbal muloqotdan ko‘proq foydalanilgan bo‘lishi mumkin) va “foydalanish foizi”, balki mazkur vositaning universalligi, boshqa har qanday kommunikativ vositalarni insonning verbal tiliga umum tarjima qilinishi nazarda tutiladi. Verbal vositalar tarqalishiga ko‘ra ham faol sanaladi. Mutaxassislarning fikricha, insonlarning o‘zaro kommunikativ aloqasining to‘rt dan uch foizini verbal muloqot tashkil qiladi⁸⁹.

Verbal vositalarga insoniyat tabiiy tillarining turli belgilari (ularning og‘zaki va yozma shakllari) kiradi. Belgi atrofimizni o‘rab olgan biron bir hodisa, narsa, jarayonning o‘rmini oladi. Belgining asosiy xususiyati uning shartlanganligidir. Belgi (ifodalovchi) va u anglatgan narsa (ifodalanuvchi) o‘rtasida obyektiv aloqa bo‘lmaydi. Ular orasidagi aloqa shartlangan, ma’lum guruhning madaniy tajribasida mustahkamlangan bo‘ladi⁹⁰. O‘z navbatida, salomlashish ham mohiyatan ikkiga: verbal va noverbal shakllarga ajraladi.

1) Verbal salomlashish shakllari. Har bir jamiyatning milliy madaniyatiga mos bo‘lgan salomlashish turlari mavjud. Kundalik muloqotda til va madaniyatni shakllantirgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analar bilan belgilanadigan salomlashishning standart shakllari qo‘llaniladi. Til sohiblari lingvojamoa tomonidan taklif qilinadigan muqobil salomlashish turlarini o‘zlari xohlagancha tanlab, ulardan muloqot zamoni, joyi va muhitini hisobga olgan holda foydalanishlari mumkin. Salomlashish

⁸⁹ Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. – Toshkent: TDSHI, 2017. – B. 47.

⁹⁰ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. – М.: Русский язык, 2009. – С. 34-35.

doirasida qo‘llaniladigan qolip iboralar, odatda, shaxslararo munosabatlarning boshlanishini belgilaydi.

Koreys lisoniy hamjamiyatida keng tarqalgan standart salomlashish qoliplaridan biri “안녕하세요?” [annyeonghaseyo?] bo‘lib, u kunning har qanday vaqtida ishlatiladi:

– 안녕하세요? 당신이 바라보자 젊은 여자가 미소지었다⁹¹.

[Annyeonghaseyo? Dangsini baraboja jeolmeun yeojaga misojieotta.]

– **Assalomu alaykum.** *Sen qarashing bilan yosh qiz jilmaydi.*

Koreys kundalik hayotida keng qo‘llaniladigan “안녕하세요?” [annyeonghaseyo?] **Assalomu alaykum!** norasmiy hurmat shaklidagi salomlashish turi bo‘lib, uning javobi “안녕하세요?” [annyeonghaseyo?] *Vaalaykum assalom!* bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlash joizki, agar salomlashish tengdoshlar orasida bo‘lsa, javobi “안녕하세요?” [annyeonghaseyo?], yoshi kichik kattalarga salom bergan bo‘lsa, u holda 안녕? [annyeong?] *Vaalaykum assalom!* shaklida alik olinadi.

Kunning istalgan qismida uchrashganda beriladigan salom turlaridan yana -니까?” (-mi) so‘roq yuklamasi bilan qo‘llaniladigan rasmiy hurmat shaklidagi “안녕하십니까?” [annyeonghasimnikka?]dir. U odatda, rasmiy vaziyatlarda, omma oldidagi chiqishlarda yoki yuqori martabali shaxslar bilan salomlashganda ishlatiladi. Javobi ham aynan “안녕하십니까?” [annyeonghasimnikka?] tarzida takrorlanadi: Masalan:

– 안녕하십니까? 문화체육관광부 장관 박보균입니다⁹².

[Annyeonghasimnikka? Munhwacheyukgwangwangbu janggwan Bak Bogyunimnida.]

– **Assalomu alaykum?** *Madaniyat, sport va turizm vaziri Bak Bogyun bo‘laman.*

“안녕하세요?” [annyeonghaseyo?] va “안녕하십니까?” [annyeonghasimnikka?] salomlashish qoliplarini o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjimasi: “Siz tinchlik va osoyishtalikdasizmi?/ Sizda hammasi joyidami?” bo‘ladi. Demak, mazkur birliklar o‘zbek tilidagi “Sizga salomatlik, tinchlik tilayman” ma’nosini ifodalaydigan “Assalomu alaykum” qolipi bilan qo‘llanish maqsadiga ko‘ra bir xillik kasb etadi.

Qayd etilgan salomlashish birliklarining ma’nosini to‘liq tushunish uchun ularning tarkibidagi iyerogliflarni alohida ko‘rib chiqish maqsadga

⁹¹ 신경숙. 엄마를 부탁해. 서울: 창비, 2008. 140 쪽.

⁹² 코로나 19 중앙재난안전대책본부 정례브리핑. <https://www.mcst.go.kr/>

muvofig bo‘ladi. Binobarin, 安寧하세요? [annyeonghaseyo?] va 安寧하십니까? [annyeonghasimnikka?] so‘zlari tarkibidagi birinchi iyeroglif 安 [an] “tom ostidagi ayol”ni ifodalab, xavfsizlikni bildiradi. Ikkinchi iyeroglif 寧 [nyeong] esa ko‘ngil xotirjamligini, chunonchi, tinchlik va osoyishtalikni anglatadi.

Yuqorida zikr etilganlar bilan birga, koreys madaniyatida qorin och-to‘qligini so‘rash ham salomlashishning bir shakli sifatida keng tarqalganini ko‘rish mumkin. Binobarin, koreys tilshunosi Mun Geumhyeon “koreys xalqi uchrashganda, odatda, bir-birlari bilan “안녕(하세요)?” [annyeong(haseyo)?] “Assalomu alaykum” deb salomlashishadi, lekin kundalik muloqotda “bo‘sh nutq etiketi ifodalari”ni (빈말 인사 표현) [binmal insa pyohyeon]) ishlatish orqali “밥(은) 먹었니? [bap(eun) meogeonni?]/ 식사 (아침/점심)는 하셨어요? [siksa (achim/ jeomsim) neun hasyeosseoyo?] (먹었어요?/ 드셨어요?)/ [meogeosseoyo?/ deusyeosseoyo?]/진지 잡수셨어요?” [jinji japsusyeosseoyo?] 밥 먹었어? [bap meogeosseo?] “Ovqat yedingmi?/Ovqat (nonushta/tushlik) yedingizmi?/ “Tanovul qildingizmi?” deb suhbatdoshdan ovqat yeb-yemaganligini so‘rash holatlari ham uchrab turishini”⁹³ yozadi. “Bo‘sh nutq etiketi ifodalari” o‘z adresatiga nisbatan kamtarligini ko‘rsatish uchun qo‘llanilgan rasmiy ifodalar yoki muayyan xatti-harakatlar majmuidir. Shuningdek, olim koreyslarning ovqat yeb-yemaganligini so‘rash odatining sabablarini quyidagicha izohlaydi: “Bizning xalqimiz guruch yoki taomni qadrlaydigan madaniyatga ega, shuning uchun biz boshqa odamga ovqatlanganmi yoki yo‘qmi deb so‘rash orqali unga befarq emasligimizni, mehrimizni ko‘rsatamiz. Tarixdan ma‘lumki, urushlar tufayli qishloqlarda va sholi yetishtiriladigan joylarda oziq-ovqat tanqisligi bo‘lib, bu katta tashvish tug‘dirgan. Hozirgi kunda to‘kinchilik, oziq-ovqat tashvishi bo‘lmasa-da, koreys xalqi salomlashishning mazkur qolipidan voz kechmagan”⁹⁴. Biroq mazkur ifodalar hozirda o‘zining dastlabki ma‘nosini yo‘qotib, faqat salomlashish ma‘nosidagina qo‘llanib, suhbatdoshga bo‘lgan hurmat-ehtirom va e‘tiborni ifodalaydi.

Xitoyliklar ham “Ovqat yedingizmi?” 你吃饭了吗? – [Nǐ chīfànle ma?], deb so‘rashadi. Buni xitoy va koreys xalqlarining ko‘p asrlik tarixida yashash uchun olib borilgan kurashi bilan izohlash mumkin (Shuni alohida

⁹³ 문금현. 한국어 빈말 인사 표현의 사용 양상과 특징. 숙명여자대학교 국어국문학과. 2009, 10 쪽.

⁹⁴ Кўрсатилган асар, 10-бет.

ta'kidlash joizki, Koreyada 1945-yillarda, Xitoyda 1960-yillarda ocharchilik keng tarqalgan edi)"⁹⁵. Salomlashishning bunday shaklini vyetnamlarda ham uchratish mumkin. "Ān com chura?" (Ān-yemoq, com-guruch, chura-hali) – "Guruch yedingizmi?"⁹⁶.

Turli rasm-odatlar, an'analar natijasida nutqiy xulqning ijtimoiy belgilangan shakllari yuzaga kelib, ana shu belgilangan shakllar yig'indisi bilan ma'lum vaziyat formulalari – tematik guruhlar hosil bo'ladi, ya'ni nutqiy odat vaziyatlarida ishlatilayotgan maxsus nutq birliklari ko'p hollarda javob talab qiladi. "Salomlashuv vaziyatidagi "Assalomu alaykum – Vaalaykum assalom", "Xush kelibsiz – Xushvaqt bo'ling", "Hormang – Bor bo'ling", "Bardammisiz /salomatmisiz, tuzukmisiz.../ – Shukur /alhamdulillah/; "Xayrlashish" vaziyatidagi "Xayr – Omon bo'ling", "Yaxshi boring – Yaxshi qoling"; "Qutlash" vaziyatidagi "Muborak bo'lsin – Qulluq"; "Tabriklaymiz –Rahmat" kabi maxsus turg'un birliklari o'zbek nutq odati uchun aloqa vositalari sanalib, ularsiz nutqiy odat me'yori buziladi"⁹⁷.

O'zbek nutqiy muomalasida kunning qaysi qismi bo'lishidan qat'i nazar, uchrashganda aksariyat hollarda aytiladigan salomlashuv qolipi "Assalomu alaykum" va uning javobi "Vaalaykum assalom"dir. Salomlashishning mazkur turi, asosan, hurmat ma'nosini ifodalaydi va u har qanday uslubda qo'llaniladi. "Assalomu alaykum" iborasi arabcha "as-salam" السلام so'zidan olingan bo'lib, "sizga tinchlik (osoyishtalik, ruhiy salomatlik) tilayman" degan ma'noni bildiradi. Uning javobi bo'lgan "Vaalaykum assalom" ham "sizga ham tinchlik tilayman" ma'nosini anglatadi.

Ma'lumki, "arablar Islomgacha bo'lgan davrda nihoyatda o'jar, urushqoq xalq bo'lishgan. Bir qabila ikkinchi qabila bilan bitta erkak qolmaguncha urushib, bir-birini qirg'in qilgan paytlari ham bo'lgan. Shu boisdan ham arablarda tinchlik, osoyishtalik, salomatlik doimo birinchi o'rinda turgan va keyinchalik ular "Assalomu alaykum" so'zini qabul qilib, bir-birini ko'rganda "sizga salomatlik, tinchlik tilayman" ma'nolarini

⁹⁵ Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDSHI, 2015. – B. 32.

⁹⁶ Турдиева Х. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 56.

⁹⁷ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 41.

anglatadigan mana shu jumla orqali muloqotga kirishishgan. Islom diniga e'tiqod qiladigan o'zbeklar ham xuddi shu tarzda salomlashadilar"⁹⁸. Masalan:

– *Assalomu alaykum otaxon, xo 'sh xizmat? – dedi u odatiy mulozamat bilan.*

– *Janozaga kelovdim, bolam, avtobusga toqat yo 'q, nafas qisadi, – dedi u shundog 'am qiynalib nafas olarkan*⁹⁹.

Ayon bo'ldiki, "Assalomu alaykum!" o'zaro muomala-munosabatning boshi sanaladi. Samimiy va muloyim aytilgan "Assalomu alaykum!" munosabatlardagi iliqlikni, samimiyatni, suhbatning muvaffaqiyatli yakunlashini ta'minlaydi.

Xullas, koreys va o'zbek xalqlarning nutqiy xulq-atvori, asosan, suhbatdoshga e'tibor berishga, unga hurmat ko'rsatishga qaratilgan. Ikkala xalq vakillari uchun suhbatdoshning ruhiy holati muhim sanaladi. Shuning uchun ham koreys va o'zbek nutqiy etiketida salomlashganda, birinchi navbatda suhbatdoshga salomatlik, tinchlik va osoyishtalik tilash ustuvorlik kasb etadi.

2) Noverbal salomlashish shakllari. Noverbal muloqot verbal xabarni to'ldirishi mumkin. Agar siz kulib: "Salom, ishlar qalay?" desangiz, u holda bu ikki harakat bir-birini to'ldiradi.

Noverbal salomlashish noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladi. Jestlar (tana, qo'l harakatlari), imo-ishoralar (mimika), tegish (qo'l tegizish, quchoqlash, silash, o'pish va h.k.), tana holati, kishilar orasidagi masofa va h.k.lar noverbal salomlashish vositalari hisoblanadi.

Kishilarning biron hodisa yoki holatni tushuntirish maqsadida ishlatadigan qo'l harakatlari turli madaniyatlarda turlicha ma'no kasb etadi. Buning sababi madaniyatlararo ramzlar va tushunchalarning farqlanishidadir¹⁰⁰. Shu bois, har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq o'z urf-odatlar bor. Masalan, "Indoneziyaning Bali orolida ikki sevishtan bir-birini pishillab salomlashi mumkin. Birma, Mo'g'iliston va Laplandiyaliklar salomlashish tariqasida bir-birini hidlashi, eskimoslar notanish kishining

⁹⁸ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 177-178.

⁹⁹ Малик Э. Дуо олган келинчак (Оила китоби: ҳикоялар, пандномалар). – Тошкент: Шарк, 2019. – Б. 241.

¹⁰⁰ Schober O. Beden Dili: Davranış Anahtarı. Çeviren: Süeda Özbent. –İstanbul: Arion Yayınevi, 2003. –S. 163.

boshiga va yelkasiga mushtlashi mumkin. Amazonka xalqi o‘zaro yelkaga qoqish orqali, Polineziya xalqi esa suhbatdoshini quchoqlab, yelkasini silash orqali o‘zining salomini ifodalaydi”¹⁰¹. “Yevropa xalqlari bir-birlarining o‘ng qo‘llarini siqadilar, Hindistonda salomlashish belgisi sifatida ikki kaftini yuz oldida juftlashtiradilar, eskimoslar esa salomlashish uchun bir-birlarining burunlarini ishqalashadi, qadimgi Xitoyda esa yuqori tabaqa vakillari uchrashganda har biri o‘z o‘ng qo‘li bilan chap qo‘lini siqqan ekan”¹⁰².

Koreys jamiyatidagi etiket qoidalari bir tomondan milliy an‘analar bilan, ikkinchi tomondan esa konfutsiychilik axloqining kuchli ta’siri bilan belgilanadi. “Iyerarxik munosabatlarga asoslangan koreys jamiyati va oilasida garchi hozirgi kunga kelib taqiqlar va cheklovlarning roli sezilarli darajada zaiflashgan bo‘lsa-da, Konfutsiy ta’limotidagi odob-axloq me’yorlari hali ham yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda”.

Koreyscha salomlashish tarzi ham butun munosabatlarni qamragan Konfutsiy ta’limotiga asoslanadi. Koreyslar salomlashishganda bosh hamda gavdaning butun yuqori qismini egib, belni bukib *ta’zim qilishadi*. *Ta’zim qilish* chog‘ida nazokat va ehtiromning darajasi, qarshidagi kishining yoshiga, jinsiga, mansabiga, mavqeyiga qarab ortib boradi. Erkaklar qo‘llari yonda, erkin holda, ayollar bo‘lsa, erkaklarga nisbatan ko‘proq egilgan holda, qo‘llarini tizzalarining ustiga qo‘yib “안녕하세요?” [annyeonghaseyo?] yoki “안녕하십니까?” [annyeonghasimnikka?] deb so‘rashishadi.

Ta’zimning eng qiyin turi – 절 [jeol] hisoblanadi. An’anaviy Koreyada qo‘llanilgan ta’zimning bu klassik shaklini bugungi kunda juda kam holatlarda uchratish mumkin. Ushbu ta’zimning qo‘llanishi cheklangan bo‘lib, u muayyan ijtimoiy doiralarda an’anaviy xarakterga ega bo‘lgan marosimlardagina ijro etiladi. Masalan, bu turdagi ta’zim taniqli tarixiy shaxslar: hukmdorlar, olimlar, harbiy qo‘mondonlar xotirasiga bag‘ishlangan marosimlarda keng qo‘llaniladi. Bunday marosimlar qabristonlarda, maqbaralarda, “shon-sharaf ibodatxonalari”da o‘tkaziladi. Odatda, ular, buyuk shaxslarning avlodlari tomonidan tashkil etiladi va boshqariladi.

¹⁰¹ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. – М.: Русский язык, 2009. – С. 42.

¹⁰² Александров А. Пожмем друг-другу руки. // Новая строительная газета, 1992, № 16.

절 [jeol] ta'zimining an'anaviy shakli bir nechta asosiy unsurlardan iborat: qo'lning holati 공수 [gongsu], belni bukish 읍례 [eumnye] va haqiqiy ta'zim 배 [bae] ¹⁰³.

Zamonaviy Koreyaning kundalik hayotida 경례 [gyeongnye], ya'ni belni bukib ta'zim qilish keng qo'llaniladi. An'anaviy Koreyada mavjud bo'lmagan ta'zimli salomlashishning bu turi XX asrning boshlarida paydo bo'lgan va keng tarqalgan. Ushbu salomlashish shaklining paydo bo'lishini turmush tarzining jadal o'zgarib borishi va G'arb davlatlari vakillari bilan aloqalarning kuchayishi bilan izohlash mumkin. Bugungi kunda salomlashishning 경례 [gyeongnye] shakli koreys jamiyatidagi munosabatlarni saqlashning asosiy usuli hisoblanadi. Uni yuqorida qayd etilgan 읍례 [eumnye] salomlashish shaklining "g'arblashgan" turi deb atash mumkin.

Koreys zamonaviy etiketi o'rganilgan aksariyat tadqiqotlarda 경례 [gyeongnye] salomlashish turining farqli vaziyatlarda qo'llaniladigan beshta asosiy shakli ajratib ko'rsatiladi¹⁰⁴:

1. 의식경례 [uisikgyeongnye] – tantanalarda ijro etiladigan o'ta rasmiy ta'zim. U ko'pincha ta'zimning chuqur shakli 절 [jeol] qo'llanilgan joylarda – turli marosimlarda (to'ylarda, dafn marosimlarida va h.k.) ishlatiladi. Mazkur ta'zim turining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda butun gavda 90 daraja egilib, kishining yuzi deyarli yerga tegadi.

2. 큰경례 [keungyeongnye] – katta ta'zim. Kishi o'z hurmatini ta'kidlamoqchi bo'lganda, sharaflı mehmonni qabul qilishda va rasmiy tadbirlarni o'tkazishda ishlatiladi. Bunda ta'zim qilayotgan kishining gavdasi 45 daraja egiladi.

Masalan:

요셉이 접수계에서 허리를 깊이 숙여 인사했다 ¹⁰⁵ . [Yosebi jeopsugyeeseo heorireul gipi sugyeo insahaetda.]

Yusuf qabulxonada belini bukib, chuqur ta'zim qilib salom berdi.

3. 평경례 [pyeonggyeongnye] – kundalik hayotda eng ko'p ishlatiladigan ta'zim. Maqomi jihatidan yuqori bo'lgan kishilar bilan

¹⁰³ Самсонов Д. А. Кинетические аспекты корейского этикета: традиционный глубокий поклон чоль и его варианты // <http://rauk.ru>

¹⁰⁴ Ку Ён Бон. Корейская традиционная культура и этикет. – Сеул: Хёнсол, 2003. (구영본. 한국의 전통문화와 예절. 서울: 형설, 2003) – С. 57.

¹⁰⁵ 이민진, 파친코 1. 인플루엔셜, 2022. 214 쪽.

uchrashganda qo‘llaniladigan salomlashishi shakli. Ta‘zimning bu turida gavda 30 daraja egiladi va 2-3 soniya davomida ta‘zim ushlab turiladi. Sizning ta‘zimingizga suhbatdosh ham aynan shunday ta‘zim bilan javob beradi, lekin siznikiga qaraganda bir oz qisqa ta‘zim bo‘ladi. Muloyim salomlashish uchun suhbatdoshning ko‘ziga qarab, bir soniya davomida ta‘zim qilish yetarlidir.

4. 반경례 [bangyeongnye] – yarim ta‘zim. Ta‘zimning mazkur turi yoshi ulug‘ kishilar tomonidan kichiklarning salom-ta‘zimiga javoban ishlatiladi. Unda gavdaning egilishi 15 darajadan oshmaydi.

5. 목례 [mongnye] (ko‘z bilan salomlashish) – bunday salomlashish boshni 15 darajali burchak ostida tez (taxminan 1 soniya) oldinga egish orqali ijro etilib, adresantning nigohi adresatga qaratiladi. Bosh egib salomlashish mazkur turi kundalik muloqotda keng tarqalgan bo‘lib, u odatda, tengqurlar, do‘stlar, hamkasblar, yoshi yoki lavozimi o‘zidan kichik bo‘lganlar bilan ko‘rishganda ishlatiladi. Misollarga e‘tibor qarating:

그 소년들은 형식을 대하면 가택질하던 것도 그치고 고개를 숙이며, “안녕합시오” 하였다. 형식도 하릴없이, “안녕합시오” 하고 대답하였다¹⁰⁶. [Geu sonyeondeureun hyeongsigeul daehamyeon gadaekjilhadeon geotdo geuchigo gogaereul sugimyeo, “annyeonghapsio” hayeotda. hyeongsikdo harireopsi, “annyeonghapsio” hago daedapayeotda.]

Yigitlar Xyongshikka yaqinlashgach, o‘yinni to‘xtatib, boshlarini egib “Assalomu alaykum”, – deb salom berishdi. Xyongshik ham hech nima bo‘lmagandek “Vaalaykum assalom”, – deb javob berdi.

경희는 창호를 보자마자 말 없이 고개를 숙여 인사했다¹⁰⁷. [Gyeong Huineum Chang Horeul bojamaja mal eopsi gogaereul sugyeo insahaetda.]

Kyonxi Chanxoni ko‘rishi bilan indamay boshini egib salom berdi.

Ta‘zim qilish odati o‘zbeklarda ham bo‘lgan. Faqat bugungi kunda salomlashishning bu shakli iste‘moldan chiqib ketgan. Binobarin, tadqiqotchi M.Sattorning qayd etishicha: “Zamonlar o‘tishi bilan salomlashish odati turli shakllarda o‘zgarib borgan. Masalan, ba‘zi zamonlarda kambag‘al, bechora, batrak boy yoki amaldorlarga qo‘li ko‘ksida, bel bukib ta‘zim qilish bilan salomini, hurmatini va tobeligini

¹⁰⁶ 이광수. 무정. 서울: 매일신보, 1917. 56 쪽.

¹⁰⁷ 이민진, 파친코 1. 인플루엔셜, 2022. 233 쪽.

bildirgan. Hokim sinf vakili esa kiborlik bilan bosh silkish, qosh kerish, ko‘z tashlash bilan “aliki” olgan”¹⁰⁸.

O‘zbek xalqining an‘analarida keng tarqalgan salomlashish turi bu – o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib “Assalomu alaykum” deb so‘rashish sanaladi. Masalan:

*Zum o‘tmay eshik ochildi. Koptokdek yumaloq, past bo‘yli qop-qora xotin chiqdi. Tavoze bilan ikki **qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salom berdi.***

– *Yumushingiz bormidi. Oqsoqol?*¹⁰⁹

Rasmiy doiralarda *qo‘l berib* ko‘rishish ham odatiy salomlashish shakli hisoblanadi. *Qo‘l olib* so‘rashish, ayniqsa, o‘zbek erkaklarining kundalik hayotida faol qo‘llaniladi:

– ***Assalomu alaykum, aka, – dedi qorovul xushmuomalalik bilan qo‘l olib ko‘risharkan.*** – *Ha? Bi-ir chiqqan ekansiz-da, a?! Ismi-familiyangiz?*¹¹⁰

Shuningdek, norasmiy doiralarda, xususan, do‘stlar, yor-birodarlar, tanish-bilishlar va hamkasblar davrasida *qo‘l berish* bilan birga, *quchoqlashib ko‘rishish* holatlari ham kuzatiladi.

Qator madaniyatlarda *qo‘l olishib* so‘rashish, “tinchlik, omonlik tilash” ma’nosini ifodalaydi. Koreyada *qo‘l berib* so‘rashish odati 1945-yildan keyin amerikaliklarning ta’sirida tarqala boshlagan. Shunday bo‘lsa-da, koreyslarning *qo‘l berib* salomlashishi amerikaliklar va yevropaliklarnikidan farq qiladi. Biroq koreys an‘analarida suhbatdoshga hurmat ko‘rsatish ma’nosida u bilan *qo‘sh qo‘llab* so‘rashiladi. Bu jihatdan koreys va o‘zbek an‘analarining o‘xshashligi ayon bo‘ladi.

O‘zbek madaniyatida paralingvistik vositalar bilan hamohang tarzda olib boriladigan salomlashish shakllaridan yana biri qo‘l qovushtirishdir. Qo‘l qovushtirib salomlashish (ikki qo‘lni kindik ustiga qovushtirib, bosh sal oldinga egilgan holat) odati erkaklarga xos bo‘lib, quyidagi vaziyatlarda amalga oshiriladi:

- 1) g‘oyat hurmatli keksani uchratganda;
- 2) to‘yxona darvozasi yonida turganda (mehmonlarni kutib yoki kuzatayotganda);
- 3) ta’ziyaga borganda;

¹⁰⁸ Sattor M. O‘zbek udumlari. – Toshkent: “Cho‘lpon”, 2007. – B. 60.

¹⁰⁹ Хошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2019. – Б. 42.

¹¹⁰ Мамарасулов А. Барлос қишлоғининг зумрад тонглари: Ҳикоялар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – Б. 92.

to'y, bayram, boshqa yig'in dasturxonlariga tayyorgarlik ko'rish jarayonida yosh yigitlar shunday holatda turadi ("xizimatingizga tayyorman")¹¹¹.

"O'zbeklar odatiga ko'ra, oiladagi, qarindosh-urug'lar ichidagi ayollar erkak qarindoshlari bilan bir qancha muddat ko'rishmagan bo'lsalar, yoshi ulug' ayollar o'zlaridan yosh erkaklarning peshonasini silab yoxud peshonasidan o'pib ko'rishganlar. O'zlaridan yoshi ulug' erkaklar bilan esa erkakning yelkasini ikki qo'li bilan silab ko'rishganlar. Har kuni uchrashib turilganda esa og'zaki salomlashish bilan qanoatlanganlar. Erkaklar esa yosh qizchalarning peshonalarini silab qo'yish bilan kifoyalanganlar. Qariyalar yoshlarning yelkalariga erkalatganday "urib-urib" qo'yganlar. Balog'atga yetgan va katta yoshli ayollar bilan esa og'zaki so'rashib qo'ya qolganlar. O'zbeklarning odob doirasidagi bu sharqona ko'rishishlari Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida qaynota-kelinning ilk bor ko'rishishlari tasvirida real aks etgan"¹¹²:

*Kumush uyalib zo'rg'agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib bo'yin egdi. Hoji qo'li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayig'a tegizib olg'an o'z qo'lini o'pdi..."*¹¹³.

Aytilganlar bilan birga, o'zbek an'analarida yaqin insonlar orasida *o'pishib* ko'rishish ham keng tarqalgan salomlashish turlaridandir. Bu harakat ham kishilarning yoshidan, mavqeyidan, jinsidan qat'i nazar, o'zaro mehr va samimiy munosabatni yuzaga chiqaradi:

*Oshxona eshigidan Dilorom chiqib, dugonasiga jilmayadi. Uning orqasidan chiqqan Dilafro'z chaqqon borib, bu Dilorom bilan o'pishib ko'rishadi*¹¹⁴.

Koreys jamiyatidagi iyerarxik munosabatlar hatto oila a'zolari va qarindosh-urug'lar bilan ham *quchoqlashib, yelka qoqishib, o'pishib* salomlashishga yo'l qo'ymaydi. Umuman, koreys muloqotida suhbatdoshga juda yaqinlashish, qo'l tegizish, uni quchoqlash, o'pish kabi harakatlar xushlanmaydi.

Ayon bo'ldiki, noverbal salomlashish jarayonida o'zbek muloqoti tegish darajasining yuqoriligi (qo'l tegizish, quchoqlash, silash, o'pish va

¹¹¹ Махмудов К. Меҳмоннома. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989. – Б. 167.

¹¹² Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 180.

¹¹³ Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – B. 341.

¹¹⁴ Аъзам А. Ўзи уйланмаган совчи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 6.

h.k.), oradagi masofaning yaqin bo'lishi bilan, koreys muloqoti esa, aksincha, tegish darajasining pastligi va oradagi masofaning uzoqligi bilan xarakterlanadi.

“Salomlashish” vaziyatiga ijtimoiy omillarning ta'siri

Salomlashish birliklari lisoniy hamjamiyatning turli kesimlarida, xususan, til sohiblarining diniy mansubligi, jinsi, madaniyati, kasb-kori, mafkurasi va yoshiga ko'ra farqli ravishda qo'llaniladi. Bundan tashqari, makon, zamon va vaziyatga ko'ra ham salomlashish turlicha tarzda amalga oshiriladi. Bunda, asosan, kichiklar kattalarga, xodimlar boshliqlarga, ko'p hollarda ayollar erkaklarga birinchi salom berishi me'yoriy hol hisoblanadi.

Tilshunos olim Sh.Iskandarova o'zbek nutq odatining “Salomlashish” vaziyatida “Assalomu alaykum!”dan tashqari ko'pincha quyidagi til birliklarining ishlatilishini qayd etadi: “Salomalaykum!”, “Assalom!”, “Salom!”, “Salomatmisiz?”, “Tuzukmisiz?”, “Yaxshimisiz?”, “Ahvolingiz qanday?”, “Bardammisiz?”, “Tinchmisiz?”, “Uy-ichingiz tinchmi?”, “Eson-omonmisiz?”, “Bormisiz?”, “Keling!”, “Hormang!” kabi. Nutqiy odatning “Salomlashish” vaziyatida yuqoridagi birliklarga javob tariqasida “Vaalaykum assalom!”, “O'zlaridan so'rasak?”, “Alhamdulillah”, “Xushvaqt bo'ling!”, “Shukur!”, “Salomat bo'ling!” singari ifodalar xizmat qiladi. Bu birliklarni birlashtiruvchi sema – salomlashish, ko'rishish bo'lib, differensial sema sifatida suhbatdoshlarning yoshi, jinsi, kasbi, qaysi ijtimoiy guruhga mansubligini ko'rsatish mumkin”¹¹⁵.

Demak, nutqiy etiketning “Salomlashish” vaziyatiga bir qator ijtimoiy omillarning ta'siri kuzatiladi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) “Salomlashish” vaziyatiga yosh omilining ta'siri;
- 2) “Salomlashish” vaziyatiga zamon omilining ta'siri;
- 3) “Salomlashish” vaziyatiga makon omilining ta'siri;
- 4) “Salomlashish” vaziyatiga gender omilining ta'siri.

“Salomlashish” vaziyatiga yosh omilining ta'siri

Koreys va o'zbek xalqlarining nutqiy etiketida yosh belgilari muhim o'rin tutadi. Odatda, “keksa yoshdagi kishilar nutqi ancha konservativ

¹¹⁵ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 32-33.

xususiyatga ega bo‘ladi. Keksalar jamiyat tomonidan qabul qilingan me‘yorga ancha ko‘nikkan bo‘lib, ular bu an‘analarning ko‘proq ijobiy jihatlarini e‘tiborga oladilar. Shuningdek, keksa adresantlar maslahat berishga moyil bo‘ladilar”¹¹⁶.

Yoshlar nutqi keksa yoshdagilarning nutqidan ko‘p jihatdan farq qiladi. Yoshlar ko‘pincha o‘zlarini kattalar dunyosiga va aytish mumkinki, raqib yoshlar guruhiga qarama-qarshi qo‘yadilar. Jamiyatdagi qiyinchiliklar, kamchiliklarga reaksiya sifatidagi munosabatlar ular nutqida yaqqol yuzaga chiqadi. Yoshlardagi kurashish ishtiyoqi, uslub va shakllar raqobati hayotning yangi uslubi hamda nutqning yangi ko‘rinishlari paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi¹¹⁷.

Demak, “Salomlashish” vaziyatida ham adresant va adresatlarning e‘tibor berishlari kerak bo‘lgan muhim belgilardan biri – yosh omilidir. Koreys va o‘zbek xalqlarining an‘analarida qadim-qadimdan o‘zidan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat yuzasidan salom-alik qilish odob-axloqning mezoni bo‘lib kelgan. Har ikkala xalqning urf-odatlariga ko‘ra, dastavval kichik yoshdagilar kattalarga hurmat ko‘rsatib salom beradi. Binobarin, farzandlar ota-onasiga, aka-opasiga, o‘quvchilar ustozlariga birinchi bo‘lib salom berishadi. Shuningdek, yoshi katta kishi qo‘l uzatmaguncha, kichik yoshdagi kishi qo‘l cho‘zmaydi.

“Madaniyatlikning birinchi belgisi bo‘lgan salomlashish odatida keksa kishi bilan yosh yigit, o‘smir, bola ko‘rishganda yosh “Assalomu alaykum”, deya o‘ng qo‘lini ko‘ksiga, yurak ustiga qo‘yadi. Keksa kishi “Vaalaykum assalom” deya ayrim rag‘batlantiruvchi olqishlar ham aytishi mumkin. (“Borakallo, mulla bo‘ling, otangizga rahmat, katta yigit bo‘ling” kabi)”¹¹⁸. Quyidagi misollarga e‘tibor qarating:

– **Assalomu aleykum!** – *qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, ajib tavoze ila salom berdi yosh yigit.*

– **Vaaleykum assalom!** – *alik oldi oppoq soqolli, nuroniy chol hassasiga tayanib, bir zum nafas rostlarkan, so‘ng qo‘shib qo‘ydi: – Mulla bo‘ling, umringizdan baraka toping, yaxshi joylardan ato qilsin, bo‘tam ...*

Keksa yoshli kommunikantlar nutqiga xos fonetik belgilar tovushlarning salmoqli, vazmin ohangda, yumshoq aytilishi bilan

¹¹⁶ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 80-81.

¹¹⁷ Колесов В. В. Язык города. – М.: Высшая школа, 1991. – С. 125.

¹¹⁸ Sattor M. O‘zbek udumlari. – Toshkent: “Cho‘lpon”, 2007. – B. 59-60.

xarakterlanadi. Jumladan, “Salomlashish” vaziyatini ko‘rsatuvchi quyidagi misolda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi:

*“Vaalaykum assalom, umringdan baraka top, bolam, – dedi u /oqsoqol/ vazmin ohangda” (O‘.Hoshimov)”*¹¹⁹.

Demak, kattalarga hurmat bilan “Assalomu alaykum!” deyilganda, ular mehr bilan “Vaalaykum assalom!” deb javob berishadi. Yoshi ulug‘ kishilar tomonidan bildirilgan rag‘batlantiruvchi olqishlar ularning yoshlar odobi, go‘zal xulqidan mamnuniyatini ifodalaydi. Zero, “kattalar hamisha yoshlarning odobli va xushxulqli bo‘lishini istaydilar”.

Ko‘rinadiki, “Assalomu alaykum!” nechog‘lik odob bilan, muloyim aytilsa, munosabatlar ham shunchalik iliq va samimiy bo‘ladi. Salomlashish tufayli insonlar orasida o‘zaro hurmat, samimiyat va bir-biriga nisbatan mehr-muhabbat paydo bo‘ladi, o‘rtadagi gina va kuduratlar ko‘tariladi.

Koreys nutqiy etiketi shakllarining tizimi juda murakkab bo‘lib, u o‘zida koreys jamiyatining ijtimoiy-iyerarxik tuzilishini aks ettiradi. Jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi ijtimoiy-iyerarxik munosabatlar nafaqat tilning leksik sathida, balki umuman grammatik sathda namoyon bo‘ladi. Binobarin, koreys tilida xushmuomalalikning alohida leksik-grammatik kategoriyasi mavjud. Koreys tilida ko‘plab so‘z yasash, morfologik ko‘rsatkichlar, leksik vositalar mavjud bo‘lib, ular yordamida so‘zlovchining ham adresatga, ham nutq obyektiga munosabatini ifodalashi – tantanali yuqori, rasmiy, neytral, do‘stona va norasmiy shakllarga ajraladi.

Koreyada salomlashishda yosh va maqom juda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgacha inson shaxs sifatida emas, balki faqat uning ijtimoiy mavqeyi nuqtayi nazaridan baholanadi: u qanchalik katta bo‘lsa, shunchalik ko‘p hurmatga sazovor bo‘ladi, bu albatta, nutq uslubidagi maxsus qo‘shimchalar vositasida ta’kidlanadi¹²⁰.

Koreys nutqiy etiketida hurmat darajasi eng yuqori bo‘lgan salomlashish qolipi “안녕하십니까?” [annyeonghasimnikka?] “Assalomu alaykum”dir. Samimiylik va hurmatning eng yuqori shaklini ifodalamoqchi bo‘lgan vaziyatlarda ushbu salomlashuv turidan foydalaniladi. Masalan, o‘quvchilar ko‘chada uchratib qolgan ustozlariga shunday salom berishadi:

¹¹⁹ Искандарова III. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б.81.

¹²⁰ Борисова Е.Е., Лебедева В.В. Особенности национальной специфики приветствий в корейском и русском языках // Международный журнал экспериментального образования. – М., 2020. – № 1. – С. 27-30.

“선생님! 안녕하십니까.”

수미는 소리를 내어 웃으며 잼처 인사를 하였다¹²¹.

[Seonsaengnim! Annyeonghasimnikka. Sumineun sorireul naeeo useumyeo jaemcheo insareul hayeotda.]

“*Ustoz! Assalomu alaykum*”.

Sumi baland ovozda kulib, qayta salom berdi.

O‘zbek nutqiy etiketida ham o‘quvchi yoki talabalar ustozlariga koreys tilidagi “안녕하십니까?” [annyeonghasimnikka?]ga muqobil bo‘ladigan “Assalomu alaykum”ni qo‘llab salomlashishadi. Masalan:

– ***Assalomu alaykum!***

Uning yonidan sumka ko‘targan bir guruh o‘quvchilar salom berib o‘ta boshlashdi.

– ***Alaykum assalom! Barakalla, bolalarim!***

*O‘quvchilar yugurishganicha, maktab binosiga kirib ketishdi. Nafaqadagi ustoz bolajonlar ortidan mehr bilan termilar ekan, ko‘ngli biroz yorishdi*¹²².

Rasmiy salomlashish shakli hisoblangan “안녕하십니까?” [annyeonghasimnikka?] kundalik muloqotda do‘stlar va qarindoshlar orasida kam qo‘llaniladi. Mazkur qolip juda muhim va hurmatli mehmonlar tashrif buyurganda ko‘proq ishlatiladi. Odatda, oradan uzoq vaqt o‘tganda ko‘rishganda “안녕하십니까?” [annyeonghasimnikka?] salomining o‘tgan zamon va norasmiy hurmat darajasi ko‘rsatkichi bo‘lgan “안녕하셨어요?” [annyeonghasyosseoyo?] shakli qo‘llaniladi:

그때는 말 한마디 나누지 않았지만 삼 년 만에 보니 반가웠다.
“안녕하셨어요? 저 기억나십니까?”

버들이 인사하자 막선 신랑도 어색하게 미소 지으며 목례했다¹²³.
[Geuttaeneun mal hanmadi nanuji anatjiman sam nyeon mane boni bangawotda. “Annyeonghasyosseoyo?” Jeo gieongnasimnikka? Beodeuri insahaja Makseon sillangdo eosaekage miso jieumyeo mongnyehaetda.]

O‘shanda men bir og‘iz so‘z aytmadim, lekin uch yildan keyin uni ko‘rganim uchun juda xursand bo‘ldim. “Assalomu alaykum! Meni eslaysizmi?”

Bodil salomlashganda, Maksonning turmush o‘rtog‘i ham g‘alati

¹²¹ 엽상섭. 표본실의 청개구리. 개벽, 1921. 9 쪽.

¹²² Нурилло А. Устоз: Биографик роман. – Наманган: Наманган, 2017. – Б. 8.

¹²³ 이금이, 알로하 나의 엄마들. 창비, 2020. 158 쪽.

jilmayib, boshini irg‘itib qo‘ydi.

Yuqoridagi misolda yigit o‘zidan katta insonga salom beryapti. Kichiklarning salomiga yoshi kattalarning *bosh irg‘itib* alik olishi keng tarqalgan salomlashish ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Bunday holatni o‘zbek an‘analarida ham kuzatish mumkin:

NOZIM (*atayin bardam, o‘ktam ovozda*): – **Assalomu alaykum, xola! Mana, biz yana bosh urib kelib turibmiz.**

Sharofat aya noilojdan **boshini irg‘aydi, lablari pichirlab alik olgan bo‘ladi**¹²⁴.

Koreys nutqiy etiketida “안녕하세요?” [annyeonghaseyo?] eng keng tarqalgan salomlashish shakli bo‘lib hurmat ma’nosini ifodalaydi. Uni tanish va notanish kishilarga nisbatan ishlatish mumkin. Mazkur salomlashish turi o‘zbek tilidagi “Assalomu alaykum”ga to‘liq muqobil bo‘ladi.

“안녕하세요?” [annyeonghaseyo?]-ni yoshi katta insonlarga, keksalarga, shuningdek, do‘stlarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Salomlashishning bu shaklini kunning qaysi qismidan qat’i nazar, kun davomida ishlatish mumkin. Binobarin, koreys tilida “xayrli kun” yoki “xayrli kech” iboralarining alohida variantlari mavjud emas. “Xayrli tong” iborasi bor, lekin u juda kam qo‘llaniladi. Ko‘rinadiki, “안녕하세요?” [annyeonghaseyo?] ham, “Assalomu alaykum” ham kunning har qanday vaqtida ishlatiladi va har qanday uslubda kuzatiladi. Quyidagi misollarga e’tibor qaratamiz:

Qiz o‘rta yoshdagi ayolga salom beryapti:

신애 아주머니가 딸의 이름을 큰 소리로 부르며 나와 나의 몸을 부축해 안았다.

“안녕하세요?” 하는 인사도 제대로 못 했다¹²⁵. [Sin Ae ajumeoniga ttarui ireumeul keun soriro bureumyeo nawa naui momeul buchukae anatda. “Annyeonghaseyo?” haneun insado jedaero mot haetda.]

Sine xola qizining ismini baland ovozda chaqirib, meni quchog‘iga oldi.

“Assalomu alaykum”, – deya salomimni ham yaxshi bera olmadim.

“안녕하세요. 신 목사님을 뵈러 왔습니다.” 이삭이 식모에게 부드럽게

¹²⁴ Аъзам А. Ўзи уйланмаган совчи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 222.

¹²⁵ 조세희. 난장이가 쏘아 올린 작은 공. 이성과 힘, 1987. 29 쪽.

미소 지었다 ¹²⁶ . [“Annyeonghaseyo. Sin moksanimeul boereo watseumnida.” Isagi singmoege budeureopge miso jieotda.]

“*Assalomu alaykum. Men ruhoni Shinni ko‘rgani keldim*”. Isak oshpazga ohista jilmayib qo‘ydi.

“안녕하세요?” [annyeonghaseyo?] salomlashishning norasmiy hurmat usuli bo‘lishi bilan birga, ayni paytda “안녕” [annyeong] “salom” so‘zining nazokatli varianti ham hisoblanadi. Bu esa mazkur iborani barcha kundalik vaziyatlar uchun eng mos kelishini ta‘minlaydi. Masalan:

“안녕하세요, 고로 상.” 모자수가 가게로 뛰어 들어가며 말했다¹²⁷.

[“Annyeonghaseyo, Goro sang.” Mojasuga gagero ttwio deureogamyeo malhaetda.]

– “*Salom, Goro san*”, – dedi Mojasu magazinga yugurib kira turib.

Koreys nutqiy etiketining “Salomlashish” vaziyatida notanish odamlar bilan uchrashganda 만나서 반갑습니다 [mannaseo bangapseumnida] deb salomlashiladi. Mazkur birlik “tanishganimdan mamnunman” degan ma‘noni bildiradi. Uning so‘zma-so‘z tarjimasi “Siz bilan tanishganimdan juda xursandman” bo‘ladi. 만나서 반갑습니다 [mannaseo bangapseumnida] salomlashishning eng rasmiy ko‘rinishi bo‘lib, undan yoshi kattaroq shaxslar yoki o‘z kasbi bo‘yicha tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan uchrashganda foydalanish mumkin.

Bulardan tashqari, 만나서 반가워요 [mannaseo bangawoyo] variantidan ham foydalanish mumkin. Garchi mazkur ifoda salomlashishning nazokatli shakli hisoblansa-da, biroq u kundalik muomalada ko‘p qo‘llaniladi. 만나서 반가워요 [mannaseo bangawoyo] birligidan kundalik muloqotda yangi sinfdoshlar, kursdoshlar, yangi o‘rtoqlar, shuningdek, yoshi teng yoki yoshi kichik bo‘lgan notanish odamlar bilan uchrashganda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Fikrimizni quyidagi misollar bilan quvvatlash mumkin:

브루스 앞에 왔을 때 브루스는 만나서 반갑습니다, 라고 말했다. 정자 씨는 어서 와요, 서령 씨는 처음 뵙겠습니다, 라고 말했다¹²⁸. [Beuruseu ape wasseul ttae Beuruseuneun mannaseo bangapseumnida, rago malhaetda. Jeong Jassineun eoseo wayo, Seoryeong ssineun cheoeum boepgetseumnida, rago malhaetda.]

¹²⁶ 이민진. 파친코 1. 인플루엔셜, 2022. 93 쪽.

¹²⁷ 이민진. 파친코 2. 인플루엔셜, 2022. 19 쪽.

¹²⁸ 구혀서. 옆에 앉아서 좀 물어도 돼요? 서울: 해냄, 2021. 160 쪽.

– Men Bryusning oldiga kelganimda, u siz bilan **tanishganimdan xursandman**, dedi. Chonja: **“Xush kelibsiz”** dedi va Soryon **“Tanishganimdan xursandman”** dedi.

처음 뵙겠습니다 [cheoeum boepgetseumnida] koreys tilida birinchi marta ko‘rishganda ishlatiladigan salom ifodasi hisoblanadi va o‘zbek tiliga “Tanishganimdan xursandaman” qolipiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, 뵘써 반갑습니다 [bwaeseo bangapseumnida] “Ko‘rishganimdan xursandman” qolipi ham kundalik muloqotda tez-tez uchrab turadi va shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu yerda qo‘llanilgan 보다 [boeda] ko‘rmoq fe’li yuqori hurmat darajasi ifodasidir:

“고 상, 어서 오세요. 이렇게 뵘써 반갑습니다.” 교코가 자리에서 일어나며 말했다. 교코가 동생들에게 꾸짖는 눈초리를 보내자, 동생들이 냉큼 일어나서 손님에게 인사했다¹²⁹. [“Go sang, eoseo oseyo. Ireoke bwaeseo bangapseumnida.” “Gyokoga jarieseo ireo namyeo malhaetda. Gyokoga dongsaengdeurege kkujinneun nunchorireul bonaeja, dongsaengdeuri naengkeum ireonaseo sonnimege insahaetda.”]

– **“Ko san, xush kelibsiz! Ko‘rishganimdan xursandman”**, – dedi Kyoko o‘rnidan turib. Kyoko singillariga tanbeh bilan qarab qo‘yganida, singillari tezda o‘rnidan turib, mehmonlarga salom berishdi.

Koreys muloqotida salomlashishning norasmiy usuli “안녕” [annyeong] bo‘lib, uni o‘zbek tiliga “Salom” deb tarjima qilish mumkin. U yaqin munosabatda bo‘lgan do‘stlar, tengdoshlar, qarindoshlar davrasida keng qo‘llaniladi. “안녕” [annyeong] “Salom” qolipini o‘qituvchi, murabbiy yoki yoshi ulug‘, obro‘li, martabali kishilarga hamda begonalarga nisbatan ishlatib bo‘lmaydi.

Ayrim koreys tilshunoslarining fikriga ko‘ra, “안녕” [annyeong] ilgari xayrlashish vaqtida ishlatilgan, biroq bugungi kunga kelib u salom shakliga aylangan¹³⁰.

“안녕” [annyeong] shaklini adresant o‘zidan yoshi kichik bo‘lganlarga nisbatan ham ishlatishi ko‘p kuzatiladi. Masalan:

“소토야마 상! 안녕하세요.” 모자수가 허리를 숙여 인사했다.

“모자수, 안녕. 어서 오렴. 고로 상 가게에서 일한다는 소식은

¹²⁹ 이민진. 파친코 1. 인플루엔셜, 2022. 283 쪽.

¹³⁰ Каплан Т.Ю., Дерюгина Т.С. Речевой этикет современного корейского языка. – Владивосток: Дальневосточный университет, 2003. – С. 75.

들었다.”¹³¹

[“Sotoyama sang! Annyeonghaseyo.” Mojasuga heorireul sugyeo insahaetda. “Mojasu, annyeong. Eoseo oryeom. Goro sang gageeseo ilhandaneun sosigeun deureotdanda.]

– “*Satoyama san! Assalomu alaykum.*” Mojasu egilib, ta’zim qilib salom berdi.

– “*Mojasu, salom! Xush kelibsan! Goro sanning do’konida ishlayotganingni eshitdik*”.

O‘zbek nutqiy etiketida ham munosabatlari yaqin kishilar, yoshlar o‘zaro teng bo‘lganlar va yoshi kattalar yoshi kichiklarga “Salom” qolipini qo‘llashlari mumkin. Misollarga e’tibor qarating:

Nazokatning eshigigacha mashinada borardi.

“**Salom**, Nazokatxon, – derdi, – mana, ahvolingizdan xabar olgani keldik”.

“*Keling, keling*”, – derdi u jilmayib¹³².

Fonetik jihatdan kuzatilganda, yoshlar nutqi katta yoshli kishilar nutqidan ancha qisqa, keskin, ko‘pincha pauzasiz bo‘lishi bilan ajralib turadi. Yoshlar til birliklarinigina emas, balki tovushlarni ham birmuncha qisqartirib qo‘llaydilar, buni kundalik muloqotda tez-tez kuzatish mumkin¹³³.

Darhaqiqat, o‘zbek muloqotida yoshi deyarli teng bo‘lganlarning “Salomlashish” vaziyatini kuzatish jarayonida “Assalomu alaykum” va “Vaalaykum assalom” iboralarining faqat birinchisini “Assalom!” deb talaffuz qilib, ikkinchisiga e’tibor bermaslik holatlarining ham ko‘p uchrashi aniqlandi. Masalan:

U yoqda Dilorom ajablanib to‘xtab qoladi. Uning ortidan Dilafro‘z chiqib keladi. Dilafro‘z yangi kelganlarga salom beradi.

DILAFRO‘Z: – **Assalom!** Dilorom ham o‘zini tutib olib, salom beradi.

DILOROM: – **Assalom!** Xush kelibsiz!¹³⁴

Yuqorida qayd etilganlar bilan birga, yosh adresantlarga tegishli nutq me’yorida “Salomlashish” vaziyatida “Yaxshimisiz?”, “Yaxshi

¹³¹ 이민진. 파친코 2. 인플루엔셜, 2022. 22 쪽.

¹³² Мамарасулов А. Барлос кишлоғининг зумрад тонглари: Ҳикоялар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – Б. 37.

¹³³ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол.фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993.

– Б. 84.

¹³⁴ Аъзам А. Ўзи уйланмаган совчи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 189.

yuribsizmi?”, “Qalaysiz?”, “Tuzukmisiz?” singari iboralar ham keng tarqalgan. Yaqin o‘rtoqlar, oshna-og‘aynilar orasida “Yaxshimisan?”, “Qalaysan?”, “Tuzukmisan?” variantlaridan foydalaniladi:

Nihoyat, mana bugun – yangi haftaning birinchi kuni telefon qildi. Nurbek hadik bilan quloq soldi. Xonim sal uyalinqirab gapirdi:

– **Assalom, yaxshimisiz?**

– *Rahmat, shukr. O‘zingiz qalaysiz?*¹³⁵

Koreys nutq me‘yorida ham 잘 지냈어요? [jal jinaesseoyo?] “Yaxshi yuribsizmi?”, 별일없이 지내세요? [byeorireopsi jinaeseyo?] (so‘zma-so‘z: “Biron bir hodisa bo‘lmay yuribsizmi?”) “Tinchmisiz?” kabi qolip iboralar qo‘llaniladi. Yuqori mansabdagi kishi qo‘l ostidagi xodimlar bilan birinchi bo‘lib salomlashganda 잘 있었니? [jal isseonni] “Yaxshimisan?” ifodasidan foydalanadi. Odatda, koreys tilidagi salomlashish qoliplarida so‘roq olmoshlari ishlatilmaydi. Hol so‘rash bilan bog‘liq bunday savollar sifat yoki ot bilan boshlanadi. Masalan, 별일 [byeollil] “biron bir hodisa” yoki 잘 [jal] “yaxshi” degan ma‘noni anglatadi. Ko‘rinadiki, 잘 지냈어요? [jal jinaesseoyo?] “Yaxshi yuribsizmi?”, 별일없이 지내세요? [byeorireopsi jinaeseyo?] “Tinchmisiz?” iboralar misolida savollarning o‘zi ijobiy javobi bilan bo‘lib, suhbatdoshga tanlov qoldirmasdan hamma narsa yaxshi ekanligini tasdiqlashni taklif qilyapti. Bu o‘rinda koreys madaniyatiga xos bo‘lgan ma‘lum bir kamtarlik kuzatiladi. Koreyslar hatto ishlar yomon ketayotgan bo‘lsa ham, buni yashirishadi va bunga javoban ular ko‘pincha: 네, 괜찮아요 [ne, gwaenchanayo] “Ha, yaxshi” // “Hammasi joyida” deyishadi. Ayon bo‘ladiki, koreyslar o‘z muammolari yoki ishlarini suhbatdoshga yuklashni xohlamaydilar.

Koreys va o‘zbek madaniyatlarida “Salomlashish” vaziyatida keksalar nutqida aksariyat hollarda oila a‘zolarining tinchligi, sog‘ligi, ish faoliyati va h.k. haqida so‘z boradi. Shuning uchun ham koreys muloqotida 어떻게 지내나요? [eotteoke jinaenayo?] “Yaxshi yurishibdimi?” 편안한가? [pyeonanhanga?] “Tinchmisiz?”, 별일 없죠? [byeollil eopjyo?] “Hammasi joyidami?”, o‘zbek muloqotida esa “Tinchmisiz?/Tinchmisan?”, “Bardammisiz?” singari iboralar keksalar tomonidan ishlatiladi. Misollarga e’tibor qarating:

¹³⁵ Темиров Х. Генералнинг беваси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 210.

Handalak ko'targan kishi chol oldidan o'tayotganda qadamini sekinlatdi. Cholning qulog'i og'ir bo'lsa kerak, baland ovoz bilan salom berdi. Chol xayoldan uyg'onib alik oldi.

– Ikrommisan? **Tinchmisan**, bolam? Arzandaginang o'ynab-kulib yuribdimi? Ke, bitta choy ich!¹³⁶

아내가 씻고 잠옷을 걸친 뒤 안방 대신 자신의 방으로 들어가자, 나는 거실을 서성거리다가 전화기를 들었다. 먼 소도시에서 장모가 전화를 받았다. 아직 잠들기에는 이른 시간이었는데, 장모의 목소리는 혼곯했다.

“다들 편안한가? 요즘 통 연락이 없던데.”

“죄송합니다. 제가 워낙 바쁘게 지내느라구요. 장인어른은 건강하십니까?”¹³⁷.

[Anaega ssitgo jamoseul geolchin dwi anbang daesin jasinui bangeuro deureogaja, naneun geosireul seoseonggeoridaga jeonhwagireul deureotda. Meon sodosieseo jangmoga jeonhwareul badatda. Ajik jamdeulgieneun ireun siganieonneunde, jangmoui moksorineun hongonhaetda. “Dadeul pyeonanhanga? Yojeum tong yeollagi eopdeonde. “Joesonghamnida. Jega wonak bappeuge jinaeneuraguyo. Jangineoreuneun geonganghasimnikka?”.]

Rafiqam yuvinib, tungi kiyimini kiygandan keyin ichkari xonaga kirmasdan o'zini xonasiga kirishi bilan mehmonxonada o'zinga joy topolmasdan go'shakni qo'linga oldim. Uzoqdagi kichkina shahardan qaynonam go'shakni ko'tardi. Uxlash uchun hali erta edi, lekin qaynonamning ovozi juda charchagan edi.

“**Hammangiz tinchmisizlar?** Oxirgi payt hech xabar yo'q sizlardan”.

“Ming bor uzr. Men juda band bo'lib qoldim. Dadam (qaynotam) yaxshimilar?”

Ushbu misolda kuyov qaynonasiga telefon qilib rafiqasining betobligini aytyapti. Qaynona xavotirlanib “Hammangiz tinchmisizlar?” deb kuyovdan nogonorativ shaklda hol-ahvol so'rayapti. Kuyov esa qaynonasi bilan eng yuqori rasmiy uslubda gaplashyapti.

“아이들은 어떻게 지내나요? 다마구치 상을 귀찮게 하지 않아야 할 텐데요.”¹³⁸ [“Aideureun eotteoke jinaenayo? Damaguchi sangeul gwichanke haji anaya hal tendeyo.”]

¹³⁶ Аҳмад С. Уфқ. Трилогия. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. – Б. 7.

¹³⁷ 한강. 채식주의자. 창작과비평, 32(2), 2004. 264 쪽.

¹³⁸ 이민진, 파친코 1. 인플루엔셜, 2022. 280 쪽.

Bolalar yaxshi yurishibdimi? Tamakuchi san, sizni qiynab qo'yishayotgan bo'lishsa kerak.

Yuqoridagi misollarda har ikkala madaniyat vakili bo'lgan kattalar, keksalarning nutqida farzandlar, oila a'zolari, umuman, yaqin insonlarning hayoti, ahvoli, sog'ligidan xavotir olish, ular haqida qayg'urish kuzatiladi.

Aytilganlar bilan birga, koreys va o'zbek nutqiy muloqotida "rahbarga uning qo'l ostidagilari birinchi bo'lib salom berishadi. Suhbat, ya'ni muloqotning qolgan qismidagi ustunlik ham uning birinchi ko'rinishi, ya'ni salom berishdagi navbatga qarab davom etadi. Bu yerda, albatta, yosh ko'rsatkichi ikkinchi darajaga tushib qolishi mumkin"¹³⁹.

Umuman, koreys va o'zbek nutqiy etiketida "Salomlashish" vaziyatidagi yosh omili jamiyatdagi iyerarxik munosabatlarga asoslanadi. Bu o'rinda koreys jamiyatidagi iyerarxik munosabatlarning o'zbek jamiyatiga nisbatan kuchli ekanligini ham ta'kidlash kerak. Shuningdek, har ikki madaniyatda turli yoshdagilarning salomlashish munosabatida katta yoshli adresatning hurmatini saqlashning ustuvorligi kuzatiladi. Shu bois, kichiklar o'zlaridan kattalarga salom berishda qo'llagan ifodalari va xatti-harakatlarining axloqiy mezon asosida bo'lishiga alohida e'tibor qaratishadi.

"Salomlashish" vaziyatiga zamon omilining ta'siri

Dunyo xalqlarining kundalik muloqotida tez-tez qo'llaniladigan salomlashish so'zlarining ba'zilar kunning ma'lum vaqtlari uchun aytiladigan yaxshi tilaklarni o'z ichiga oladi (masalan: "Xayrli tong!", "Xayrli kun!", "Xayrli kech!"). Muloqot vaqtiga qarab yuzaga keladigan salomlashish iboralari bilan bir qatorda, kunning qaysi qismi bo'lishidan qat'i nazar, uchrashganda doimiy ishlatiladigan standart salomlashish qoliplari ham mavjud (masalan: "Assalomu alaykum!", "Salom!" va h.k.).

Yevropa xalqlarining kundalik muloqotida kunning har bir qismi uchun "Goodmorning"// "Guten Morgen" (Xayrli tong); "Goodafternoon" // "Guten Tag" (Xayrli kun), "Good evening" // "Guten Abend" (Xayrli oqshom) kabi maxsus salomlashish qoliplarining qo'llanilishi me'yoriy holat hisoblanadi. Biroq koreys va o'zbek xalqlarining muomala madaniyatida kunning vaqtiga qarab salomlashish me'yoriy holat sanalmasa-da, rasmiy va norasmiy doiralarida kunning qismlariga qarab muayyan salomlashish birliklaridan foydalaniladi.

¹³⁹ <https://www.uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/764>

Ertalabki salom. Koreys muloqotida ertalabki salomlashishning turli vaziyat, yosh va mavqega ko‘ra bir nechta turlari kuzatiladi. Shunga ko‘ra, ularni uydagilar, qo‘ni-qo‘shnilar va ishdagilar bilan salomlashish shakllariga ajratish mumkin.

Uyda salomlashish shakllari. Masalan, kattalarga nisbatan ertalab 안녕하세요 주무셨습니까? [annyeonghi jumusyeotseumnikka?] “Yaxshi dam oldingizmi?” // “Yaxshi yotib turdingizmi?”, 진지 잡수셨어요? [jinji japsusyeosseoyo?] “Ovqatlandingizmi?” singari ifodalarni ishlatish mumkin.

O‘z navbatida, yoshi kichiklarga nisbatan 잘 잤어//잘 잤니? [jal jasseo//jal janni?] “Yaxshi uxladingsizmi?” // “Yaxshi uxlab turdingsizmi?” kabi salomlashish shakllari ishlatiladi. Bu o‘rinda 잘 잤어요? [jal jasseoyo?] “Yaxshi uxladingsizmi?” shaklida neytrallik mavjud. 잘 잤니? [jal janni?] “Yaxshi uxladingsizmi?” esa ko‘pincha bolalarga nisbatan qo‘llaniladi¹⁴⁰. Masalan:

“잘 잤어요?” 이삭은 선자와 나란히 섰으나 어디로 가야 할지 몰랐다. 이렇게 어린 여자와 함께 외출해본 적이 없었다¹⁴¹. [“Jal jasseoyo?” Isageun Seonjawa naranhi seosseuna eodiro gaya halji mollatda. Ireoke eorin yeojawa hamkke oechulhaebon jeogi eopseotda.]

“Yaxshi uxlab turdingsizmi?” Isak Sonja bilan yonma-yon turardi, lekin qayerga borishni bilmas edi. Bunday yosh qiz bilan birga hech qayerga bormagan edi.

Qo‘ni-qo‘shnilar bilan salomlashish shakllari. Qo‘ni-qo‘shnilar bilan ko‘rishganda an‘anaviy tarzda “안녕하십니까?” [annyeonghasimnikka?] // “안녕하세요?” [annyeonghaseyo] // 안녕하세요 주무셨습니까? [annyeonghi jumusyeotseumnikka?] // 진지 잡수셨습니까? [jinji japsusyeotseumnikka?] kabi salomlashish birliklari ishlatiladi. Qo‘shnilar bilan munosabatlarning yaqinlik darajasiga ko‘ra qayd etilgan ifodalardagi so‘roq yuklamasi shakllari o‘zgarishi mumkin¹⁴².

Salomlashishning “안녕” [annyeong] “Salom!”, 잘 잤니? [jal janni?] “Yaxshi uxladingsizmi?” shakllari koreys yoshlari orasida keng tarqalgan.

¹⁴⁰ Каплан Т.Ю., Дерюгина Т.С. Речевой этикет современного корейского языка. – Владивосток: Дальневосточный университет, 2003. – С. 75.

¹⁴¹ 이민진, 파친코 1. 인플루엔셜, 2022. 111 쪽.

¹⁴² Каплан Т.Ю., Дерюгина Т.С. Речевой этикет современного корейского языка. – Владивосток: Дальневосточный университет, 2003. – С. 75.

Ertalabki salomlashishda “안녕?” [annyeong?] ifodasi so‘roq yuklamasi bilan so‘rov intonatsiyasida talaffuz qilinadi. Xayrlashuv chog‘ida esa “안녕!” [annyeong!] undov bilan talaffuz etiladi.

Ish joyidagi salomlashish shakllari. Odatda ish joyida vaziyatga ko‘ra boshliqlar va mavqeyi yuqori bo‘lganlar bilan hurmat darajasi yuqori bo‘lgan, rasmiy “안녕하십니까?” [annyeonghasyeotseumnikka?] // “안녕하십니까?” [annyeonghasimnikka?], shuningdek, hurmat darajasi me‘yoriy bo‘lgan “안녕하세요?” [annyeonghaseyo] salomlashish qoliqlaridan foydalaniladi. Shuningdek, tashkilot va firmalarda 반갑습니다 [bangapseumnida] “Ko‘rganimdan xursandman” shakli ham ishlatiladi.

Bugungi kunda o‘zbek muloqotida ham rasmiy doiralarda, xususan, davlat rahbarlarining nutqida “Ko‘rganimdan xursandman” iborasining tez-tez qo‘llanayotganligi kuzatiladi. Fikrimizni quyidagi misollar bilan quvvatlash mumkin:

“Aziz birodarim, *Qozog‘iston Bosh vazirining o‘rinbosari* – tashqi ishlar vaziri Murat Nurtleu Janobi Oliylarini yangi lavozimga tayinlanganidan keyin ilk bor Samarqandda **ko‘rganimdan xursandman**”, – deb yozdi O‘zbekiston TIV rahbari o‘zining **twitterdagi** sahifasida¹⁴³.

“Hamma imkoniyatlar o‘zi shu bolalarimiz uchun. **Barchangizni ko‘rganimdan xursandman**”, – degan davlat rahbari¹⁴⁴.

Qayd etilganlar bilan birga, hamkasblar orasidagi nutqiy muomalada 오셨어요? [osyeosseoyo?] “Keldingizmi?” // 나왔군 [nawatgun] “A, keldingmi!” // 나왔니 [nawanni] “Keldingmi?” singari salomlashish birliklarini ham uchratish mumkin. Ulardan 오셨어요? [osyeosseoyo?] shaklida hurmat darajasi yuqori, 나왔군 [nawatgun] va 나왔니 [nawanni] esa mavqeyi past darajadagilarga nisbatan qo‘llaniladi.

Yaqin insonlar ancha yildan keyin uchrashganda 오다 [oda] *kelmoq* fe‘lining o‘tgan zamon ko‘rsatkichli shaklidan foydalaniladi. Masalan, aka ukasini ancha yildan keyin uchratganda:

“이삭아, 왔구나. 정말로 기쁘다.”¹⁴⁵ [“Isaga, watguna. jeongmallo gippeuda.”]

“Isak, **keldingmi?** Juda xursandman!”

Keldingmi? iborasi o‘zbek muloqotida ham keng tarqalgan bo‘lib, u

¹⁴³ https://dunyo.info/cyrl/site/inner/ozbekiston_va_qozogiston__tiv

¹⁴⁴ <https://qalampir.uz/news/mirziyeev-k-arshidagi-supermarketga-bordi-video-77853>

¹⁴⁵ 이민진, 파친코 1. 인플루엔셜, 2022. 140 쪽.

bolalarini kutib olgan onalarning nutqida ko‘proq qo‘llaniladi. Qiyoslang:

– **Bolam. Gulxumor... keldingmi? Kelmaganingga rosa xavotir oldim. Endi kelmaysan, deb qo‘rqqandim...**¹⁴⁶

Koreya tonggi teleko‘rsatuvlari yoki radioeshittirishlarida xuddi uydagi ertalabki salomlashishdagidek, 안녕히 주무셨습니까? [annyeonghi jumusyeotseumnikka?] “Yaxshi dam oldingizmi?” ba’zan esa 좋은 아침 [joeun achim] // 좋은 아침이에요? [joeun achimieyo?] kabi salomlashish birliklaridan istifoda etiladi. 좋은 아침 [joeun achim] iborasining tarkibida “yaxshi”, “ajoyib” ma’nolarini ifodalagan 좋다 sifati ishtirok etadi. Biroq 좋은 아침 [joeun achim] qolipi o‘zbek tilida “Xayrli tong!”ni anglatadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston teleko‘rsatuvlari, internet tarmog‘idagi turli saytlar, telegram va facebook kanallarida ham ertalab salomlashishning “Yaxshi dam oldingizmi?”, “Xayrli tong!” qoliplarini qo‘llash keng tarqalganini ko‘rish mumkin:

*Assalomu alaykum! Yaxshi dam oldingizmi qaddi baland qadrlilarim...*¹⁴⁷

Xayrli tong, azizlarim! Sizlarga baxtli va quvonchli kun tilaymiz!¹⁴⁸

Koreys nutqiy odob-axloqida yuqorida qayd etilganidek, suhbatdoshning ovqat yeb-yemaganligidan xabardorlik to‘g‘risidagi salomlashish tarixiy davrlardan saqlanib qolgan. Jumladan, 밥 먹었어요? [bap meogeosseoyo?] (so‘zma-so‘z: “Siz guruch yedingizmi?”) “Ovqatlandingizmi?” iborasi kun qismlarining nomlariga ko‘ra turli variantlarda qo‘llaniladi: 아침 식사하셨어요? [achim siksahasyeosseoyo?] (so‘zma-so‘z: “ertalab ovqatlandingizmi?”) “Nonushta qildingizmi?”; 점심 식사하셨어요? [jeomsim siksahasyeosseoyo?] (so‘zma-so‘z: “Tushda ovqatlandingizmi?”) “Tushlik qildingizmi?”; 저녁 식사했어요? [jeonyeok siksahaesseoyo?] (so‘zma-so‘z: “Kechqurun ovqatlandingizmi?”) “Kechki ovqat yedingizmi?”. Mazkur iboralar suhbatdoshning ovqatlangan yoki ovqat yemaganligini aniqlash uchun ishlatilmaydi. Ular ma’no jihatdan: “Qandaysiz?” iborasiga muqobil bo‘ladi. Shuning uchun, suhbatdoshning ovqatlangan yoki ovqatlanmaganligidan qat’i nazar, ular bu savolga odatda: 네, 먹었습니다 [ne, meogeotseumnida] “Ha, yedim” – deb javob berishadi.

¹⁴⁶ Ниёз Н. Сўнгги кун. Китоб 1: Ҳаёлий қисса. – Тошкент: Meriyus, 2012. – Б. 93.

¹⁴⁷ <https://m.facebook.com>

¹⁴⁸ https://uz.telegram-store.com/catalog/channels/azan_uzz/76313

Aytilganlar bilan birga, uzoqroq ko‘rishmaganda koreys nutqiy etiketida 오랜만이에요 [oraenmaniyo] //오랜만이네 [oraenmanine] “Ko‘rishmaganimizga ancha bo‘ldi”, o‘zbek nutqiy etiketida esa “Bormisiz?”, “Omonmisiz?”, “Ko‘rinmaysiz?”, “100\$ lik bo‘lib ketdingiz” singari birliklar qo‘llaniladi. Qiyoslang:

“아지매, 오랜만이에요.” 조 씨가 양진을 맞았다. 쌀집 주인은 훈이네 과부를 보며 빙긋이 웃었다¹⁴⁹. [Ajimae, oraenmaniyo.” Jo ssiga Yangjineul majatda. Ssaljip juineun Hunine gwabureul bomyeo binggeusi useotda.]

“Ajime, *ko‘rishmaganimizga ancha bo‘ldi*” – dedi Janob Cho Yangjinni uchratgach. Guruch do‘konining egasi Xun oilasining bevasiga qarab jilmayib qo‘ydi.

“오랜만이네.”

나는 공터 한쪽에 팔짱을 낀 채 서 있는 윤희에게로 다가가며 말했다¹⁵⁰.

[“Oraenmanine.” Naneun gongteo hanjjoge paljjangeul kkin chae seo inneun yunhuiegero dagagamyero malhaetda.]

“*Anchadan beri ko‘rishmadik*”, – dedim men ochiq maydonning bir tomonida qo‘llarini qovushtirib turgan Yunxiga yaqinlashib.

O‘zbek tilida quyidagicha kuzatiladi:

Ibod, orqasidan bo‘yi pastroq kishini ergashtirib, hovliga kirdi.

– *Bormisiz, xo‘jayin*, – dedi hali yaqinlashmay turib.

– *Men-ku, borman. O‘zlari... Oftob qayoqdan chiqdi?*

– *Oftob doim siz turgan tomondan chiqadi, xo‘jayin*, – xushomad qildi *Ibod*¹⁵¹.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, koreys va o‘zbek xalqlarining muomala madaniyatida “Salomlashish” vaziyatiga zamon omili sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi deyish mumkin. Boshqa madaniyatlarda kunning har bir qismi uchun maxsus ishlatiladigan “Xayrli tong!”, “Xayrli kun!”, “Xayrli kech!” singari birliklar ko‘proq yaqin munosabatlarda samimiylilikni ifodalasa, koreys va o‘zbek nutqiy etiketida bunday birliklar aksariyat hollarda rasmiy munosabatlarda ishlatiladi.

¹⁴⁹ 이민진, 파친코 1. 인플루엔셜, 2022. 124 쪽.

¹⁵⁰ 이기호. 누구에게나 친절한 교회 오빠 강민호. 문학동네, 2018. 229 쪽.

¹⁵¹ Мухтор О. Мухаббат ўлимдан кучли. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – Б. 85.

“Salomlashish” vaziyatiga makon omilining ta’siri

Salomlashish vaqtida suhbatdoshlarning ochiq yoki yopiq joyda bo‘lishi ham “Salomlashish” vaziyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan sanaladi. Salomlashishni makon omiliga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) uyda salomlashish;
- 2) sinfxonada salomlashish;
- 3) qo‘shnilar bilan salomlashish;
- 4) ish joyida salomlashish;
- 5) jamoat joylarida salomlashish.

Uyda salomlashish. Koreys nutqiy etiketida uyga qaytib kelgan, ya’ni biron joyga borib kelgan kishi 다녀왔습니다 [danyeowatseumnida] “Borib keldim”// “Keldim” deydi. Ba’zan bunga qo‘shimcha tarzda 늦었습니다 [neujeotseumnida] “Kech qoldim”//“Ushlanib qoldim” 별일 없죠? [byeollil eopjyo?] “Hammasi joyidami?”//“Tinchmi?” deyishi ham mumkin. Bunga javob tariqasida uni kutib olgan kishi tomonidan 다녀오셨습니까? [danyeosyeotseumnikka?] “Borib keldingizmi?” deb aytiladi. Biron kishi uzoq vaqt safarda bo‘lib qaytganida unga: 안녕히 다녀오셨습니까? [annyeonghi danyeosyeotseumnikka?] “Yaxshi borib keldingizmi?” deyiladi:

“다녀왔어요.” [“Danyeowasseoyo.”]

“걸으면서 책 보지 말라고 했잖아.” [“Georeumyeonseo chaek boji mallago haetjana.”]

“알았어요.”¹⁵² [“Arasseoyo.”]

– **Men keldim.**

– *Yurib turib kitob o‘qimagin degan edim-ku.*

– *Tushundim.*

O‘zbek an’alarida uyga qaytganda “Keldingizmi?”, “Yaxshi keldingizmi?”, “Yaxshi ishlab keldingizmi?”, “Eson-omon borib keldingizmi?”, “Kuningiz yaxshi o‘tdimi?” kabi iboralarni ishlatadi. O‘zbek kundalik muloqotida qayd etilgan iboralar ko‘pincha uyda erini kutib olgan xotirlarning nutqida kuzatiladi:

¹⁵² 은화성. 겨울의 강. 서울: 이색, 2022. 141 쪽.

– **Eson-omon keldingizmi?** – dedi u tilla tishlaridan cho‘g‘ sachratib¹⁵³.

Turli nutqiy etiket vaziyatlarida qo‘llaniladigan muayyan qoliplar aksariyat hollarda javob talab qiladi. Chunonchi, “Salomlashuv vaziyatida “Assalomu alaykum” qolipi “Vaalaykum assalom” javobini talab qiladi. Ba’zan ana shu talab qilingan javoblar berilmay, nutqiy etiket me’yorining buzilish holatlari ham kuzatiladi. Quyidagi misolda ham verbal, ham noverbal nutqiy etiket me’yorining buzilganini ko‘rish mumkin:

*Men sekin yurib borib “Yaxshimisiz otasi? Eson - omon keldizmi?” – deb ko‘rishmoqchi bo‘lib qo‘limni cho‘zgandim erim yuzimgayam qaramay, gapimga e’tibor bermay bolalarimga xirillagan ovoz bilan “Kelishmaysanmi? Nima otang borligini enangga qo‘shilishib unutvorishdingmi?” – deb do‘q qildi*¹⁵⁴.

Uyda, ish joyida, biror mehmondorchilikda kutib oluvchi adresant suhbatdoshini “Keling!” so‘zi bilan birga ayrim hollarda “Qadamlariga hasanot!” yoki “Xush kelibsiz!” kabilar bilan qarshilaydi¹⁵⁵. Masalan:

Hayal o‘tmay, uyga Panji kirib keldi. Onasi bilan quchoqlashib ko‘rishdi:

– **Xush kepsiz, ena? Tinchmisiz? Bardammisiz? Nega bir og‘iz aytmay kelyapsizlar? O‘zim kutib olardim**¹⁵⁶.

Koreys madaniyatida “Xush kelibsiz!” deb salomlashish 어서 오세요 [Eoseo oseyo] hamda 환영해요 [Hwanyeonghaeyo] iboralari vositasida ifodalanadi:

“어서 오세요.” 신 목사가 양복을 입은 잘생긴 젊은 남자를 보며 빙긋이 웃었다. “무엇을 도와드릴까요?”¹⁵⁷ [“Eoseo oseyo.” Sin moksaga yangbogeul ibeun jalsaenggin jeolmeun namjareul bomyeo binggeusi useotda. “Mueoseul dowadeurilkkayo?”]

“Xush kelibsiz!” Ruhoniy Shin kostyumli kelishgan yigitga qarab jilmayib qo‘ydi. “Sizga qanday yordam berishim mumkin?”

Sinfxonada salomlashish. “O‘quv binosi ichi yoki tashqarisida, ko‘cha-kuyda, albatta, o‘quvchilar o‘qituvchisiga birinchi bo‘lib salom

¹⁵³ Хошимов Ў. Нур борки, соя бор. – Тошкент: Ўкитувчи, 2018. – Б. 137.

¹⁵⁴ <https://ok.ru/group/54072452644929/topic/68332996351297>

¹⁵⁵ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 32-33.

¹⁵⁶ Намозов А. Тошкентда йўқолган чол-кампир. <https://xabar.uz/hajviya/toshkentda-yoqolgan-chol>

¹⁵⁷ 이민진, 파친코 1. 인플루엔셜, 2022. 93 쪽.

beradi. Darsga shay, o‘z joyini egallagan o‘quvchilarning o‘qituvchi kirib kelganida o‘rnilaridan turib hurmat ko‘rsatishlari (baravariga jo‘r bo‘lib salom berishlari) kifoya. O‘qituvchi o‘quvchilari salomiga alik olib darsni boshlashi mumkin. Bu o‘rinda salomlashayotgan shaxslarning soni emas, mavqeyi odob ustunligida bo‘ladi”¹⁵⁸.

Qo‘shnilar bilan salomlashish. Ko‘chada uchrashib qolgan koreys qo‘shnilar bir-birlari bilan “안녕하십니까?” [annyeonghasyotsimnikka?] “Assalomu alaykum” yoki 어디 가십니까? [eodi gasimnikka?] “Qayerga ketyapsiz?” deb salomlashishadi. Bu o‘rinda 어디 가십니까? 다녀오세요? [eodi gasimnikka?/ danyeooseyo?]ning kishining qayerga va qanday maqsadda ketayotganini aniqlash uchun berilgan savol emas, balki uning odatiy salomlashish shakli ekanini ta’kidlash lozim. Mazkur salomlashish shakllariga 어디에 좀 갑니다 [eodie jom gamnida] “Ishim bor edi”// “Ish bilan” deb javob qaytarish mumkin. Ushbu ifoda tarkibidagi 어디 [eodi] “qayerga” so‘roq olmoshi emas, balki “qayergadir” gumon olmoshi vazifasida keladi. Yoki so‘ragan kishiga ketayotgan joyini aniq aytib, masalan: 은행에 갑니다 [eunhaenge gamnida] “Bankka ketyapman” deb, unga hurmat ko‘rsatib, xushmuomalada bo‘linadi¹⁵⁹. Masalan:

마침 지나가던 옆집 이웃이 웃으며 손을 흔들었다. 겨울도 예의상 미소 지으며 꾸벅 고개를 숙였다. 그러자 그가 집에 들어가지 않고 멈춰서 물었다. [Machim jinagadeon yeopjip iusi useumyeo soneul heundeureotda. Gyeouldo yeuisang miso jieumyeo kkubeok gogaereul sugyeotda. Geureoja geuga jibe deureogaji anko meomchwoseo mureotda.]

“요새 통 안 보이셔서 이사라도 가신 줄 알았어요. 바쁘셨나 봐요.” [“Yosae tong an boisyeoseo isarado gasin jul arasseoyo. Bappeusyeonna bwayo”.]

“네, 일이 좀 많아서... 어디 다녀오세요?” [“Ne, iri jom manaseo... eodi danyeooseyo?”]

“산책이요.”¹⁶⁰ [“Sanchaegiyo.”]

Shunchaki o‘tib ketayotgan qo‘shni jilmayib, qo‘l silkitdi. Kyoul muloyim jilmayib, boshini egib salom berdi. Keyin to‘xtab, uyga kirmay so‘radi.

¹⁵⁸ Саломлашишининг 7 та муҳим одоби // <https://www.uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/764>

¹⁵⁹ Каплан Т.Ю., Дерюгина Т.С. Речевой этикет современного корейского языка. – Владивосток: Дальневосточный университет, 2003. – С. 79.

¹⁶⁰ 은화성. 겨울의 강. 서울: 이색, 2022. 30 쪽.

– Oxirgi paytlarda sizni ko‘ra olmaganim uchun, ko‘chib ketdingiz deb o‘yladim. Band bo‘lganga o‘xshaysiz.

– Ha, ishlarim ko‘proq edi ... **Qayerga ketayapsiz?**

– Sayrga.

O‘zbek nutqiy odatlarida ko‘chada uchrashib qolgan qo‘ni-qo‘shnilar orasida “Assalomu alaykum”, “Qayerga ketayapsiz?”, “Qayerga otlandingiz?” “Yo‘l bo‘lsin?” kabi salomlashish birliklari qo‘llaniladi. Misollarni qiyoslang:

Karim ota bugun erta tongdan ko‘chaga chiqdi. Yoniga nabirasi Akmaljonni ham ergashtirib oldi.

– Ha, qo‘shni, ertalabdan **qayerga otlandingiz?**

– Yangi ochilgan tibbiyot birlashmasiga borib, nabiram bilan bir ko‘rikdan o‘tib kelaylik. Bodim bir oz bezovta qilganday bo‘layapti¹⁶¹.

– H-e, bu anavi chinorlik dala qorovuli! Kuni dalada o‘tadi! Bo‘ri akani ertalab bekatda ko‘rib edim! **Yo‘l bo‘lsin**, desam, Denov borayapman, nos tamom bo‘ldi, deb edi!¹⁶²

Koreys va o‘zbek kommunikantlari bolalarga nisbatan 학교에 가니? [hakgyoe gani] “Maktabga ketayapsanmi?” yoki 공부 잘 하니? [gongbu jal hani] “Yaxshi o‘qiyapsanmi?” kabi salomlashish shakllarini qo‘llashlari mumkin.

Ish joyida salomlashish. Ish joyida hamkasblar o‘zaro “안녕하십니까?” [annyeonghasyotsimnikka?] “Assalomu alaykum” deb salomlashishadi. Yuqori mansabdagi kishi qo‘l ostidagi xodimlar bilan birinchi bo‘lib salomlashganda “안녕하세요?” [annyeonghaseyo?] “Assalomu alaykum” yoki 잘 지내요? [jal jinaeyo?] “Yaxshimisiz?” kabi ifodalardan foydalanadi. Ish joyidagi o‘zbek kommunikantlari ham shunga o‘xshagan “Assalomu alaykum”, “Salomalaykum”, “Yaxshimisiz?” kabi salomlashish qoliplaridan foydalanishadi.

Jamoat joylarida salomlashish. Tanish bilishlar avtobusda, liftida, ko‘cha-ko‘yda va hokazo jamoat joylarida ko‘rishib qolishganda salomlashishning “안녕하십니까?” [annyeonghasyotsimnikka?] qolipidan istifoda etiladi. Katta lavozimdagi kishilar bilan kunduzi yoki kechqurun uchrashib qolganda 점심 //저녁 잡수셨습니까? [jeomsim //jeonyeok japsusyeotseumnikka?] “Tushlik qildingizmi?” // “Kechki ovqatni

¹⁶¹ https://toshvil.uz/uz/malakal_shifokorlar_va_zamonaviy_sharoitlar_mascagni

¹⁶² Мурод Т. Ойдинда юрган одамлар (кисса). – Тошкент: Sano-standart, 2017. – Б. 50.

yedingizmi?” yoki 점심 드셨습니까? [jeomsim deusyeotseumnikka] “Tushlik qildingizmi?” tarzida salomlashish mumkin. Bu o‘rinda 점심 드셨습니까? [jeomsim deusyeotseumnikka] “Tushlik qildingizmi?” ifodasining birinchi ifodalarga ko‘ra kattalarga nisbatan hurmat darajasining pastroq ekanligi ham aytib o‘tish lozim. Shuningdek, 식사하십니까? [siksahasyeotseumnikka?] “Ovqatlaningizmi?” qolipini tengdoshlarga va quyi pog‘onadagilarga nisbatan qo‘llash mumkin bo‘lgani holda, yoshi ulug‘larga nisbatan ishlatmagan ma’qul.

Nutqiy odatning makonga bog‘liq bo‘lgan “Salomlashish” vaziyatida koreys va o‘zbek xalqiga xos yana bir xususiyat ko‘zga tashlanadi: ishlab turgan, ba‘zan uzoq yoki og‘ir mehnatni tugatgan suhbatdoshlarga “Hormang!” deyiladi”¹⁶³. Chunonchi, biror yumush bilan mashg‘ul bo‘lib turgan kishilar (hasharchilar) yonidan o‘tib ketayotgan erkak “Hormanglar!” deb salomlashadi. Bu bilan ishlayotgan kishilarga ruhiy jihatdan dalda beradi. Fikrimizni quyidagi misol bilan quvvatlaymiz:

Brigadir aytmish achchiq zardolizor ostida otdan tushdilar. Otamiz xurjunini zardoli shoxiga ildi. Belni yelkasiga qo‘ydi. Tokzor oralab yurdi. Dehqonlar qoralab yurdi.

– **Hormanglar-ov!** – dedi.

– *Bor bo‘ling-ov!* – dedi dehqonlar¹⁶⁴.

“Hormang!” iborasiga koreys kundalik muloqotidagi “수고가 많아요” [sugoga manayo] muqobil bo‘ladi. O‘tgan zamon shaklidagi “수고하셨습니다” [sugohasyeosseoyo] vaziyatga ko‘ra “Rahmat” ma’nosida “수고하세요” [sugohaseyo] va “수고하십시오” [sugohasipsio] shakllari esa “Yaxshi ishlang/ charchamang” (so‘zma-so‘z: mehnat qiling) ma’nosida qo‘llaniladi. “수고하다” [sugohada] 수 [su] “olmoq” va 고 [go] “zahmat” ma’nolarini ifodalagan ikki iyeroglifdan tarkib topgan. Har ikkala iyeroglif birgalikda “zahmat chekmoq” ma’nosini hosil qiladi. Ko‘rinadiki, bunday ma’noga ega bo‘lgan iborani eshitish har kimga ham yoqavermaydi. Shu bois “수고하다” [sugohada] iborasining qo‘llanishida muayyan cheklanishlar kuzatiladi. Masalan:

¹⁶³ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 32-33.

¹⁶⁴ Мурод Т. Ойдинда юрган одамлар (қисса). – Тошкент: Sano-standart, 2017. – Б. 89.

반사적으로 카드와 영수증을 돌려주자, 남자는 “수고하세요” 하고 인사하며 깔끔하게 돌아섰다¹⁶⁵. [Bansajeogeuro kadeuwa yeongsujeungeul dollyeojuja, namjaneun “sugohaseyo” hago insahamyeo kkalkkeumhage doraseotda.]

Men kartochka va chekni qaytarganimda, u kishi men bilan “Yaxshi ishlang” deb xayrlashib ohista orqasiga o‘girildi.

O‘zbek nutqiy odatining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ko‘chada ketayotgan har bir yosh o‘zidan katta insonga duch kelganda, albatta, salom beradi. Yoshi kichiklar yoshi ulug‘larga, ulov mingan odam piyoda ketayotganga, piyoda ketayotgan kishi o‘tirganga salom beradi.

Shu bilan birga, “ko‘pchilik bo‘lgan joyga kelgan bir kishi, uning mavqeyi yoki yoshidan qat’i nazar, birinchi bo‘lib salom berishi kerak. Birinchidan, bunday salomlashish qisqa vaqt talab etadi va yig‘ilib turganlarning e’tiborini baravariga jalb etadi. Buning aksi esa, salomlashishda ayrim noqulayliklar, uzoq davom etadigan so‘rashishlarga olib keladi. Xuddi shu qoida ichiga qo‘l uzatib ko‘rishishning ham ayrim talablari kiradi. Bir kishi iloji boricha ko‘pchilik bilan qo‘l berib ko‘rishishi shart emas. Ko‘pchilik ularning davrasiga qo‘shilayotgan yolg‘iz kishi bilan qo‘l berib so‘rashish istagini bildirsa, bu boshqa gap. Davraga eng oxiri qo‘shilgan kishi ular bilan shoshmasdan qo‘l berib ko‘rishib chiqishi mumkin”¹⁶⁶.

Xullas, koreys va o‘zbek muloqot madaniyatida ish joyida, sinfxonada, jamoat joylarida uchrashganda salomlashishning rasmiy shakllaridan, uyda, qo‘shnilar bilan ko‘rishganda esa ko‘pincha salomlashishning norasmiy shakllaridan foydalaniladi.

O‘zbekchilikda qo‘ni-qo‘shnilarni bemalol bir-birlariniki kirib chiqishi, hol-ahvol so‘rashi odatiy hol sanaladi. Koreys odatlarida, ayniqsa, shahar joylarida qo‘ni-qo‘shnilar bilan kirdi-chiqdi qilish chegaralangan.

“Salomlashish” vaziyatida koreys va “o‘zbek an‘analarida ishlab turgan, ba‘zan uzoq yoki og‘ir mehnatni tugatgan suhbatdoshlarga “Hormang!” deyiladi. Koreys muloqotida 수고하셨습니다 [sugohasyeosseoyo] iborasi vaziyatga ko‘ra “Rahmat” ma’nosida ham qo‘llaniladi. Shuningdek, ishlab turgan kishilarga nisbatan 수고하세요 [sugohaseyo], ishini tugatgan

¹⁶⁵ 나윤아. 미인의 법칙. 뜨인돌, 2021. 38 쪽.

¹⁶⁶ Саломлашининг 7 та муҳим одоби // <https://www.uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/764>

kishilarga nisbatan esa o'tgan zamon shaklidagi 수고하셨습니다 [sugohasyeosseoyo] iborasi ishlatiladi.

O'zbek nutqiy odatida ko'chada ketayotgan har bir yosh o'zidan katta bo'lgan har qanday tanish, notanish insonga salom beradi. Bu notanish kishilarga nisbatan ham hurmatni ko'rsatadi. Koreys madaniyatida faqat tanish insonlar bilan salomlashiladi.

“Salomlashish” vaziyatiga gender omilining ta'siri

Ayol va erkak o'rtasidagi tafovut insoniyat paydo bo'lganidan boshlangan bo'lib, bu tafovut dastlab ularning bajaradigan yumushlarida ko'zga tashlanadi. Keyinchalik kishilik jamiyatining taraqqiy etishi natijasida ayol va erkakning xulq-atvorida, kiyinishida, yurish-turishida, shuningdek, so'zlashida ham farqli jihatlar ajrala borgan¹⁶⁷.

Kuzatishlardan aniqlanishicha, erkaklar va ayollar nutqida biologik va psixologik jihatdan qarama-qarshilik yaqqol ko'zga tashlanadi. Biolog olimlarning ta'kidlashicha, qizchalarning tili o'g'il bolalarga nisbatan ancha tez chiqar ekan. Ular dastlab turli tovushlarni talaffuz etib, shu asosda so'zlarni, jummalarni talaffuz qila boshlar, o'g'il bolalar esa butun-butun tayyor jummalarni talaffuz qilar ekanlar. 8 yoshga qadar qizchalar o'g'il bolalarga qaraganda sezilarli darajada me'yordagi nutqqa ega bo'ladilar¹⁶⁸.

Koreys va o'zbek nutqiy muomalasida salomlashish va ko'rishishda gender farqlanishlar kuzatiladi. Chunonchi, tilshunos olim Sh.Iskandarova o'zbek ayol va erkak kommunikantlarning nutqidagi fonetik o'ziga xosliklarni shunday ifodalaydi: “Xotin-qizlar nutqidagi fonetik o'ziga xoslik nutqiy odatning turli vaziyatlarida aniq yuzaga chiqadi. Erkak kishining ovozi yo'g'on, kuchli, biroz dag'allik aralashgan bo'ladi. Talaffuzda ayol erkakdan ovoz tembri, pauzalarning xarakteri, nutq tempi bilan farqlanadi. Ayollar ancha mayin, ingichka ovozda, urg'uni yanada cho'zib so'zlaydilar”¹⁶⁹. Shunga o'xshash fikr tilshunos Mo Yi (모 이) tomonidan ham qayd etilganini ko'rish mumkin: “Ohang (intonatsiya)ning ko'tarilishi so'roq gaplarni qo'llash bilan chambarchas bog'liq. Biroq, ohangning ko'tarilishi aksar tillardagi ayollar nutqida, hatto so'roq gaplardan tashqari

¹⁶⁷ Кахаров Қ. Ўзбек ва немис нуткий этикетларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2020. – Б. 58-59.

¹⁶⁸ Колесов В. В. Язык города. – М.: Высшая школа, 1991. – С. 100.

¹⁶⁹ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 88.

holatlarda ham tez-tez qo‘llaniladigan hodisadir. Erkaklar bilan solishtirganda, koreys ayollarining ohangi kuchli va gapirish toni keng ko‘lamlidir. Ko‘tarilgan ohang yoqimli, jonli yoki do‘stona tasvirni berishi mumkinligi bois, koreys ayollarining nutqida so‘roq, darak, istak va buyruq gaplarda ko‘tarilgan ohangdan keng foydalaniladi”¹⁷⁰. Binobarin, nazokat uslubining “-어요” [-eoyo] shaklidan foydalanganda erkaklarning gaplari qisqa va keskin pasayuvchi ohang bilan tugaydi, ayollarniki esa ancha uzun, sekin va ohangning ko‘tarilishi bilan yakunlanadi¹⁷¹. Qiyoslang:

남: 안녕하세요?/ 안녕하세요. √ [nam: annyeonghasimnikka?/ annyeonghaseyo.√]

여: 안녕하세요~?↗ [yeo: annyeonghaseyo~?↗]

Erkak: *Assalomu alaykum.* / *Salom./Yaxshimisiz?* √

Ayol: *Salom./Yaxshimisiz?* ↗

Yuqoridagi misoldan ko‘rinadiki, odatda, “Salomlashish” vaziyatida koreys erkaklari pasayuvchi ohangda, ayollar esa ko‘tarilgan ohangda so‘rashadi.

Aksariyat tadqiqotchilarning ishlarida ¹⁷² koreys tilida hurmat uslublarining nihoyatda rivojlanganligi va bu uslubdan foydalanishda koreys erkak va ayollarining nutqida gender farqlarining kuzatilishi mumkinligi qayd etilgan: “Yuqori hurmat uslubi ko‘pincha rasmiy uslub qo‘shimchasi “-습니다” [-seumnida] va nazokat uslubi qo‘shimchasi “-요” [-yo] bilan ifodalanadi. Odatda, erkaklar rasmiy hurmat uslubidan, ayollar esa norasmiy hurmat uslubidan foydalanadilar”.

Koreys va o‘zbek nutqiy etiketining “Salomlashish” vaziyatida ayollar nutqida nazokat, muloyimlik belgilari kuzatilishi bilan birga, ular emotsional-ekspressiv birliklarga, qo‘shimcha ma’no ifodalovchi vositalarga boyligi bilan ham erkaklar nutqidan ajralib turadi. Masalan, koreys xotin-qizlari nutqida aksar hollarda 아 [a] va 어 [oe] undovlari qo‘llanadi. U o‘zbek tilidagi “voy” undoviga muqobil bo‘ladi. Qiyoslang:

“아, 안녕하세요.” 경희가 안도한 웃음을 지었다¹⁷³. [“A, annyeonghaseyo.” Gyeonghiga andohan useumeul jieotda.]

¹⁷⁰ 모 이. 한.중 남녀의 성별 발화에 대한 사회언어학적 대조 연구. 한국외국어대학교 국제지역대학원. 박사학위논문. 2015. 55 쪽.

¹⁷¹ 임홍빈. 국어의 여성어. 국어사회언어학 논총. 국학자료원. 1993, 67~78 쪽.

¹⁷² 김선희. 여성어에 관한 고찰. 논문집-목원대학교.Vol.19. 1991. 112-121 쪽.; 민현식. 국어의 성별어(genderlect)연구사. 사회언어학. Vol.4 No.2, 한국사회언어학회. 1996. 3-29 쪽.

¹⁷³ 이민진, 파친코 1. 인플루엔셜, 2022. 317 쪽.

– “**Voy, assalomu alaykum!**”, – dedi Kyonxi yengil nafas olib va kulib qo‘yib.

O‘zbek ayollarining nutqida “voy” undovi juda faol qo‘llanadi:

Ichkaridan avval karavotning g‘irchilagani, keyin oyoq dupurlari eshitildi. Sal o‘tib, yo‘lak boshida kelini ko‘rindi.

– **Voy, assalomu alaykum**, oyijon – dedi u qo‘lidagi ro‘molini shoshgancha boshiga o‘rarkan¹⁷⁴.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda koreys ayollari nutqida sermahsul qo‘llaniladigan 아 [a] va 어 [oe] undovlari “Salomlashish” vaziyatida erkaklar tomonidan ham ishlatilishi mumkin. Misollarni qiyoslang:

“어, 안녕하세요!” [“Eo, annyeonghaseyo!”]

마침 지나가던 옆집 이웃이 웃으며 손을 흔들었다. 겨울도 예의상 미소 지으며 꾸벅 고개를 숙였다¹⁷⁵. [Machim jinagadeon yeopjip iusi useumyeo soneul heundeureotda. gyeouldo yeuisang miso jieumyeo kkubeok gogaereul sugyeotda.]

– **Iye, salom!**

Shunchaki o‘tib ketayotgan qo‘shnisi jilmayib, qo‘l silkitdi. Kyoul muloyim jilmayib, boshini egdi.

Bu o‘rindagi salomlashishda 어 [oe] undovi erkak kommunikanti tomonidan qo‘llangani uchun uni o‘zbek tilida “iye” undovi bilan ifodalash maqsadga muvofiq. Garchi, erkaklar nutqining Toshkent shevasida “voy” undovining ishlatilishi tez-tez uchrab tursa-da, o‘zbek nutq odobida mazkur qo‘shimcha ma’no ifodalovchi vositaning erkaklar tomonidan qo‘llanilishi unchalik xushlanilmaydi.

O‘zbeklarda ham erkak va ayollar salomlashish va ko‘rishishlarida bir qator farqlar mavjud. Tilshunos X. Doniyorovning fikricha, buning bir jihati musulmon xalqlarining muqaddas kitobi bo‘lgan Qur’on ayollarning erkaklar bilan to‘liq shaklda salomlashishga ruxsat etmaganligiga borib taqaladi. Shu sababdan Samarqand shahri atrofidagi ayollar erkaklarga umumiy salomlashishning qisqargan shaklida “assalom” deb salom bergan. Xuddi shu sababga ko‘ra qipchoq dialektlarining vakillari bo‘lgan ayollar erkaklar bilan “keling” deb salomlashgan. Hozir salomlashishning bu

¹⁷⁴ Бекмуродова И. Ҳайитлик. <https://www.samdu.uz/cy/news/18413>

¹⁷⁵ 은화성. 겨울의 강. 서울: 이색, 2022. 29 쪽.

formasi ayol tomonidagina emas, erkaklar tomonidan ham tez-tez ishlatiladi¹⁷⁶.

Aytilgan fikrlarni quyidagi misollar tahlilida ko‘rib chiqamiz:

Kompyuter kolonkasidan Sarvarning ovozi keladi. Kompter aloqasiga xos, aks-sadoli, sal sun’iy ovoz.

SARVAR (*kadr ortidan*): – **Salom**, Dilorom, meni eshityapsizmi?

QO‘SHNI DILOROM: – **Voy, assalom! Ha, eshityapman**¹⁷⁷.

Darhaqiqat, mazkur misolda birinchidan, ayol kommunikant Dilorom erkak kommunikant Sarvarning salomiga “assalom” deb javob qaytaryapti. Ikkinchidan, Diloromning nutqida o‘zbek xotin-qizlari nutqida nihoyatda faol “voy” undovi qo‘llanilyapti. Demak, bu o‘rinda o‘zbek ayollarining o‘ziga xos salomlashish tarzi va erkaklar nutqidan farqli ravishda emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi vosita namoyon bo‘lgan.

– **Keling**, Oqibatposhsha, – *ochiq chehra bilan kutib oldi Qadimaxon.*

– **Esonmisiz**, uy ichlaringiz bilan tinchmisiz? Hayallatib qo‘ymadimmi, ishqilib?¹⁷⁸

Keltirilgan bu misolda ayollar nutqiga xos bo‘lgan salomlashishning “keling” hamda “esonmisiz” shakllarini ko‘rish mumkin. Odatda, o‘zbek muloqotida xotin-qizlar “Eson-omonmisiz?”, erkaklar esa “Salomatmisiz?”, “Bardammisiz?” deb ko‘rishishadi.

Ayollarning erkaklar bilan turli qisqargan shakllar orqali salomlashish holatini ham ko‘plab kuzatish mumkin. Jumladan, shahar joylarda yosh yoki o‘rta yoshdagi erkak adresantlar o‘zlari bilan teng yoki kichik notanish ayol adresatlarga “Assalomu alaykum”, – deya murojaat etsalar, ular “va alaykum assalom” deyish o‘rniga “...alaykum assalom”, “...alaykum...” yoki “yaxshimisiz” deyishlari mumkin¹⁷⁹. Masalan:

SALIMA OPA: – **Vaalaykum! Voy, assalom, O‘tkir... Yaxshimisiz? Hoy, Akmal aka, qarang! Muncha ko‘tarinib yuribsizlar, Jumagul, menga ber**¹⁸⁰.

Er-xotin orasidagi “Salomlashish” vaziyatida gender farqlarini ko‘zga tashlanishidagi muhim belgi bu – murojaat shakllaridir. Jumladan, xotinning

¹⁷⁶ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 111-112.

¹⁷⁷ Аъзам А. Ўзи уйланмаган совчи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 146.

¹⁷⁸ Фафуров О. Аёл ори. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетасининг 2013 йил, 36-сони.

¹⁷⁹ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 179.

¹⁸⁰ Аъзам А. Ўзи уйланмаган совчи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 46.

erga otasi, dadasi, adasi, buvasi va h.k., urning esa xotinga onasi, oyisi, ayasi, momosi yoki ayolining ismi bilan xitob qilish hollari kuzatiladi. “Nutqiy odat uchun tegishli vazifalarning xususiyatlarini aniq aks ettirish murojaat shakllari vositasida amalga oshadi. Murojaat shakllarining vazifasi ko‘p qirralidir”¹⁸¹. Chunonchi, “Salomlashish” vaziyatidagi quyidagi murojaat shakliga e’tibor qaratamiz:

Qodirboy to‘g‘ri ichkari hovliga o‘tib, ayvonda ko‘rpa-to‘shak qilib yotgan yoshgina, ozg‘in, rangsiz xotinidan hol so‘radi:

– **Qalay? Yaxshimisan, Umri?**

– *Shukur*¹⁸².

Bu misolda er xotinidan *Qalay? Yaxshimisan?* deb ko‘ngil so‘rab, mehribonlik qilish bilan muloqotni kerakli tarzda davom ettirishga harakat qilyapti. Ayoliga uning ismi bilan, ya’ni *Umri?* deb murojaat qilish orqali esa er-xotin o‘rtasidagi kontakti boshlash – fatik, xitob – appelyativ, adresatga ijobiy ta’sir o‘tkazish – imperativ funksiyalarni bajaryapti.

“Salomlashish” vaziyatida erkak va ayol kommunikantlarning verbal vositalar bilan birga, noverbal vositalarni qo‘llashlarida ham o‘ziga xos farqli jihatlar namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Salomlashish” vaziyatida o‘zbek ayol kommunikantlari *ikkala qo‘l ko‘ksda, o‘ng qo‘lni yurak ustiga qo‘yish, ikki yuzidan o‘pish, o‘ng yelkasiga qoqish, quchoqlashish* singari noverbal vositalarni qo‘llab ko‘rishishsalar, o‘zbek erkak kommunikantlari *ikkala qo‘lni kindik ustida qovushtirib, qo‘l qovushtirib to‘xtagan holda ikki bukilib, ikkala qo‘l qorinda, ikkala qo‘l ko‘ksda, qo‘l olishib, peshona o‘pib* hamda *quchoqlashib* so‘rashishadi.

Koreys va o‘zbek an’analariidagi turli marosimlar chog‘ida ham erkak va ayollarning verbal va noverbal so‘rashishlarida gender differensiyasi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, o‘zbeklarda “ta’ziyaning ertasi va undan keyingi kunlarda yaqin kishisidan ayrilgan xonadon egalariga hamdardlik bildirib, fotiha o‘qigani borilgan paytda erkak va ayollarning salomlashish va ko‘rishishlarida, ayniqsa, katta farq seziladi. Ya’ni, ayollar hovli ichkarisiga bir-birlari bilan ovoz chiqarib yig‘lab ko‘rishishsalar, erkaklar fotihaga keluvchilarni darvoza yoki eshik oldida keluvchilar yoshi va miqdoridan qat’i nazar, o‘rinlaridan turib, qo‘l qovushtirib “keling”,

¹⁸¹ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол.фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 56.

¹⁸² Қодирий Х. Эски Тошкантида. <https://shosh.uz/habibullo-qodiriy-eski-toshkantda-qissa/>

“kelinglar” deb odob bilan kutib oladilar. Fotiha o‘qib ketayotganlarida ham shu tarzda kuzatib, “rahmat”, “xush ko‘rdik” deya qisqa-qisqa minnatdorchilik izhor etadilar”¹⁸³.

“Odatda, erkaklar mahalla ahllari, masjid qavmlari bilan birgalikda ko‘pchilik bo‘lib kirib keladilar. Ularga imomlar, ahli ilmlar, hurmatli qariyalar yo‘lboshchilik qiladilar. Katta jamoatni boshlab kelayotgan kishilar juda ziyrak va hushyor kishilar bo‘ladilar. Ular bunday katta yig‘inlarda so‘rashish va salomlashish odobini juda yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lib, agar o‘zlari kutib oluvchilar bilan qo‘l berib so‘rashib qo‘ysalar, orqadagilar ham beixtiyor shunday qilishlari, oqibatda keluvchi va ketuvchilar mahtal bo‘lib qolishlarini tajribadan biladilar. Shuning uchun o‘ng qo‘lni ko‘krakka qo‘yib masofada turib ko‘z bilan so‘rashishni ma’qul ko‘radilar”¹⁸⁴.

Salomlashishning gender xoslanishi, ayniqsa, nikoh to‘yidagi kelin salomda yaqqol namoyon bo‘ladi. Binobarin, “Kelin salom” – o‘z nomi bilan faqat qizlarga xos salomlashishning bir ko‘rinishi bo‘lib, kelin salomni qiz tomondan kelgan kelinning dugonalari aytadi, kelin egilib salom berib turadi. Kelin salom turkiy va boshqa xalqlarda turli shakllarda uchraydi¹⁸⁵.

Koreys an‘analarida esa o‘zbek urf-odatlaridan farqli o‘laroq, nikoh to‘yida kelin ham, kuyov ham salom beradilar.

Muxtasar qilib aytganda, koreys va o‘zbek nutqiy etiketida “Salomlashish” vaziyati bilan bog‘liq bir qator gender farqlanishlar kuzatiladi. Avvalo, har ikkala madaniyatda ham erkak va ayollarning nutqida fonetik o‘ziga xoslik ko‘zga tashlanadi. Binobarin, erkak kishining ovozi yo‘g‘on, kuchli, biroz dag‘allik aralashgan, ayollarniki esa ancha mayin, ingichka, urg‘uni cho‘zib so‘zlashi bilan xarakterlanadi. “Salomlashish” vaziyatida odatda, erkaklar pasayuvchi ohangda, ayollar esa ko‘tarilgan ohangda so‘rashishadi. Bu xususiyat ayniqsa, koreys ayollarining nutqida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ayollar nutqida belgilangan talaffuz me‘yorini aksar hollarda buzilishi, so‘zlarning qisqarishi kuzatiladi.

¹⁸³ Мўминов С. Ўзбек мулоқот ҳулкининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 179.

¹⁸⁴ Нуруллахон ҳожи Абдуллахон ўғли. Таъзия одоблари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993, 12 март.

¹⁸⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “К” ҳарфи. – Б. 291.

Koreys va o'zbek nutqiy etiketining "Salomlashish" vaziyatida erkaklarning so'rashishi qisqa, ayollarniki esa ancha uzun, dialogga boyligi bilan ajralib turadi. Koreys erkak va ayollarining nutqida hurmat uslubidan foydalanishda ham gender farqlari kuzatiladi. Odatda, erkaklar rasmiy hurmat uslubidan, ayollar esa norasmiy hurmat uslubidan foydalanadilar.

Har ikkala tilda ham ayollar nutqida nazokat, muloyimlik belgilari kuzatilishi bilan birga, ular emotsional-ekspressiv birliklarga, qo'shimcha ma'no ifodalovchi vositalarga boyligi bilan erkaklar nutqidan farqlanadi. Koreys xotin-qizlari nutqida ko'pincha α [a] va α [oe], o'zbek xotin-qizlari nutqida esa "voy" undovi sermahsul qo'llaniladi. Shuningdek, koreys erkaklarining nutqida vaziyatga ko'ra, α [a] va α [oe] undovlarining ishlatilishi kuzatiladi.

"Salomlashish" vaziyatida erkak va ayol kommunikantlarning noverbal vositalarni qo'llashlarida, shuningdek, koreys va o'zbek an'analaridagi turli marosimlar chog'ida ham erkak va ayollarning verbal va noverbal so'rashishlarida gender differensiyasi ko'zga tashlanadi. Nikoh to'yida o'zbeklarda faqat kelin salom bersa, koreys to'ylarida kelin-kuyovning har ikkalasi salom beradi.

"Xayrlashish" vaziyati va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar

Aksariyat tadqiqotchilarning fikricha, "salomlashish va xayrlashish odati ijtimoiy hayotdagi tartib-qoidalar barqarorligi, kishilar o'rtasidagi yaxshi munosabatlarni saqlab qolishga va ularni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy xatti-harakatlardir. Umumiy yoki muayyan vaziyatda uchrashganda yoki xayrlashayotganda do'stona munosabatlarni saqlab qolish maqsadida xushmuomalalikni ifodalovchi maxsus so'zlar aytiladi"¹⁸⁶.

Nutqiy odatning har qaysi vaziyatida ma'lum millat urf-odatlarini, tiliga mansub bo'lgan maxsus turg'un formulalar xizmat qiladi, bu aloqa vositasi hisoblanadi. Jumladan, o'zbeklarda "Xayrlashuv" vaziyatida "Xayr", "Bo'пти", "Yaxshi qoling" /jo'novchi/, "Yaxshi boring" /kuzatuvchi/, "...ga salom ayting" kabi birliklar bilan birga diniy e'tiqodlar natijasida "Xudoga topshirdim" tarzida maxsus jumlar ham yuzaga kelgan¹⁸⁷.

¹⁸⁶ 박영순. 한일 양국인의 인사행동에 관한 사회언어적 연구. 계명대학교 대학원 박사학위논문. 2003. 13-14 쪽.

¹⁸⁷ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 40-41.

Koreys xalqi xayrlashayotganda, odatda, “안녕히 가세요” [annyeonghi gaseyo] “Yaxshi boring” deb xayrlashadi, lekin quyida berilgan iboralar *bo‘sh nutq etiketi ifodasi* (빈말 인사 표현 [binmal insa pyohyeon]) bo‘lib, u suhbatdosh bilan keyinroq ko‘rishish istagini bildiradi. Jumladan, “나중에 (다음에) 뵈겠습니다 [najunge (daeume) boepgetseumnida] “Keyinroq ko‘rishamiz”; 나중에 전화할게 [najunge jeonhwahalge]/ 다음에 연락드릴게요 [daeume yeollakdeurilgeyo] “Keyinroq qo‘ng‘iroq qilaman”; 나중에 밥 한번 먹자 [najunge bap hanbeon meokja] “Keyinroq bir ovqatlanaylik” / 나중에 술 한 잔 하자 [najunge sul han jan haja] “Keyinroq bir ryumkadan ichaylik” kabi iboralar tez-tez qo‘shimcha qilinadi. Bunday xushmuomalalikni bildiruvchi iboralar, albatta, suhbatdosh bilan keyinroq bog‘lanish yoki ovqatlanish uchun emas, balki yaqinlikni ifodalash uchun ishlatiladigan bo‘sh nutq etiketi ifodalaridir¹⁸⁸.

“Xayrlashish” vaziyatida makon omili muhim ahamiyat kasb etadi. Xayrlashishni makon omiliga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) turli uchrashuv, mehmondorchilik va h.k.larda xayrlashish;
- 2) ish joyida xayrlashish;
- 3) uyda oila a‘zolari bilan xayrlashish;
- 4) restoran, kafeda xayrlashish;
- 5) ko‘chada xayrlashish;
- 6) kasalxona yoki kasal ziyoratida xayrlashish;
- 7) yo‘l, safar oldidan xayrlashish.

1. Turli uchrashuv, mehmondorchilik va h.k.larda xayrlashish.

Koreys va o‘zbek madaniyatlarida turli uchrashuvlar, marosimlar, mehmondorchilik, uyga mehmon kelganda va hokazo vaziyatlarda o‘ziga xos xayrlashish iboralaridan foydalaniladi. Koreys muloqotining “Xayrlashish” vaziyatida ham xuddi “Salomlashish” vaziyatida qo‘llaniladigan “안녕” [annyeong] (tinchlik va osoyishtalik) so‘zidan hosil qilingan “안녕히 가십시오” [annyeonghi gasipsio], “안녕히 가세요” [annyeonghi gaseyo] “Yaxshi boring” birikmalaridan, shuningdek, “안녕” [annyeong] “Xayr” so‘zining o‘zidan ham foydalaniladi.

Koreys nutqiy etiketida standart va rasmiy vaziyatlarda xayrlashishning “안녕히 가세요” [annyeonghi gaseyo] qolipidan, yanada rasmiyroq vaziyatlarda esa hurmat darajasi yuqori bo‘lgan “안녕히 가십시오”

¹⁸⁸ 문금현, 한국어 빈말 인사 표현의 사용 양상과 특징. 숙명여자대학교 국어국문학과. 2009, 4 쪽.

[annyeonghi gasipsio] qolipidan foydalaniladi. “안녕히 가십시오” [annyeonghi gasipsio] hurmat-e’tiborga sazovor, yoshi ulug‘, mansabi yuqori shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Umuman, har ikkala ibora ham, odatda, kuzatuvchining nutqida ishlatiladi. Jo‘novchi shaxs esa ularga javoban 안녕히 계세요 [annyeonghi gyeseyo] va “안녕히 계십시오” [annyeonghi gyesipsio] iboralarini qo‘llaydi. Misollarga e’tibor qaratamiz:

그런 속삭임속에서, 나는 밖으로 나오면서 은근히 한마디를 기다리고 있었다. 그러나 결국 “안녕히 가십시오”는 나오지 않고 말았다. 그것이 서울과의 차이점이었다 ¹⁸⁹. [Geureon soksagimsogeseo, naneun bakkeuro naomyeonseo eungeunhi hanmadireul gidarigo isseotda. Geureona gyeolguk “annyeonghi gasipsio”neun naoji anko maratda. Geugeosi Seoulgwaui chajjeomieotda.]

Shunday shivir-shivirlar orasida men tashqariga chiqqanimda jimgina bir so‘z kutdim. Biroq, oxirida bir og‘iz “Yaxshi boring” ham deyishmadi. Bu yerning Seuldan farqi shu edi.

O‘zbek muloqotida, odatda, kuzatayotgan shaxs jo‘nayotgan kishiga yoki mehmonga “Xayr”, “Xayr, yaxshi boring”, “Yaxshi boring”, “Mayli, yaxshi yetib oling” va h.k. iboralarni qo‘llab xayrlashadi. Bunga javoban jo‘novchi shaxs “Xayr”, “Yaxshi qoling”, “Mayli, yaxshi qoling” deb xayrlashadi. Masalan:

Sanobar ularni eshikkacha kuzatadi. Katta sovchi chiqadi, kichik sovchi Sanobarga shubha bilan qaraydi.

SANOBAR: – *Xayr, yaxshi boringlar*¹⁹⁰.

Aytilganlar bilan birga, “Xayrlashish” vaziyatida to‘satdan, birdaniga vidolashib ketib qolish hurmatsizlik hisoblanadi. Shuning uchun bunday vaziyatlarda manzirat qilinib, “bo‘sh nutq etiketi ifodalari”dan, ya’ni “xayrlashuv kalitlari”dan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Koreys nutqiy etiketida ayniqsa, mehmondorchilikdan so‘ng 초대해줘서 고마워요 [chodaehaejwoseo gomawoyo] “Taklif qilganingiz uchun rahmat”; 환상적인 파티였어요, 고마워요 [hwansangjeogin patieosseoyo, gomawoyo] “Ajoyib o‘tirish uchun rahmat”; 오늘 정말 즐거웠어요 [oneul jeongmal jeulgeowosseoyo] “Bugun haqiqatan yaxshi o‘tirdik”; 저는 지금 가는게 좋겠어요 [jeoneun jigeum ganeunge jokesseoyo] “Men endi ketsam yaxshi bo‘lardi”; 지금 가야 해요 [jigeum gayahaeyo] “Men endi ketishim kerak”;

¹⁸⁹ 김승옥. 무진기행. 사상계, 1964. 4 쪽.

¹⁹⁰ Аъзам А. Ўзи уйланмаган совчи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 191.

너무 늦어서 가야 할 것 같아요 [neomu neujeoseo gayahalgeot gatayo] “Juda kech bo‘lib qoldi, endi men ham boray”; 또 올게요 [tto olgeyo] “Yana kelaman” singari manzirat iboralarining qo‘llanilishi ko‘p kuzatiladi.

“리안, 나는 가야 해요.” 고사 지내듯 그릇 앞에 무릎 꿇고 앉은 가람이 천천히 일어섰다¹⁹¹. [“Rian, naneun gaya haeyo.” Gosa jinaedeut geureut ape mureup kkulko anjeun garami cheoncheonhi ireoseotda.]

– *Rian, **endi men boray**.*

Idish-tovoq oldida duo qilayotgandek tiz cho ‘kib o ‘tirgan Garam sekin o ‘rnidan turdi.

Shuni alohida qayd etish joizki, Koreyada ish, tadbir, uchrashuv, mehmondorchilik va h.k.larda yosh jihatdan kichik bo‘lganlarning katta yoshli kishilardan oldinroq ketishi nojoiz hisoblanadi (masalan, xodimlar, albatta, rahbarning ketishini kutishlari va shundan keyingina ish joyini tark etishlari mumkin). Ammo ketish zarurati bo‘lgan vaziyatlarda 먼저 가겠습니다 [meonjeo gagetseumnida]; 먼저 갈게요 / 가볼게요 [meonjeo galgeyo/ gabolgeyo]; 먼저 갈게 [meonjeo galge] kabi iboralar ishlatiladi. Mazkur xayrlashuv iborasini so‘zma-so‘z “Men [sizdan] oldinroq ketaman” tarzida tarjima qilish mumkin. G‘arb madaniyati vakillari uchun mutlaqo tushunarsiz bo‘lgan ushbu ibora aksariyat hollarda “Men birinchi bo‘lib ketaman” yoki “Birinchi men ketaman” shaklida noto‘g‘ri tarjima qilinadi. Qayd etilgan xayrlashuv shaklini o‘zbek tiliga: “Aybga buyurmaysiz, ketishim kerak bo‘lib qoldi” yoki “Mayli endi men boray” tarzida o‘girish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, koreys muloqotida yuqoridagi holatlarda 먼저 실례합니다 [meonjeo sillyehamnida] shaklidan ham foydalanish mumkin. Misollarga e‘tibor qarating:

“헉, 벌써 30 분이 넘었네. 농도 확인해야 하는데..... 저 먼저 가볼게요!”¹⁹² [“Heok, beolsseo 30 buni neomeonne. Nongdo hwaginhaeya haneunde..... Jeo meonjeo gabolgeyo!”]

– *“Voy, birpastda 30 daqiqadan oshib ketibdi. Men konsentratsiyani tekshirishim kerak Mayli, **endi men boray**.*

O‘zbek tilida ham “suhbatni birdan yakunlash, cho‘rt kesish, to‘satdan xayrlashish hurmatsizlik sanaladi. Shuning uchun suhbat yakuniga ishora sifatida “xayrlashuv kalitlari”dan foydalaniladi. O‘zbek tilida “Uchrashganimiz yaxshi bo‘ldi”, “Sizni ko‘rib xursand bo‘ldim”,

¹⁹¹ 은화성. 겨울의 강. 1 권. 서울: 이색, 2022. 133 쪽.

¹⁹² 은화성. 겨울의 강. 1 권. 서울: 이색, 2022. 176 쪽.

“*Gaplashib maza qildim*” kabi jumlar esa suhbatni chiroyli yakunlashning boshlang‘ich qismi bo‘lib xizmat qiladi”¹⁹³. Shuningdek, o‘zbek muloqotida ham mehmondorchilikdan so‘ng, albatta, “Taklif qilganingiz uchun rahmat”, “Mehmondorchilik uchun katta rahmat”, “Juda yaxshi o‘tirdik”, “Biznikiga ham boringlar”, “Mayli menga ruxsat”, “Kutamiz” va h.k. deb mulozamat ko‘rsatiladi. Misollarni qiyoslang:

– ***Mayli menga ruxsat, mehmondorchilik uchun rahmat.***

*Oygul Noila bilan xayrlashib, mahalla noziri G‘ayrat aka bilan gaplashish niyatida mahalla guzaridagi militsiya tayanch punktiga yo‘l oldi*¹⁹⁴.

2. Ish joyida xayrlashish. Koreys nutqiy etiketida ish joylarida xodimlar orasida turli xayrlashish qoliplaridan keng foydalaniladi. Ish kuni tugaganda, odatda, hamkasblar bir-birlari bilan “안녕히 가십시오” [annyeonghi gasipsio] “Yaxshi boring” deb xayrlashishadi. Masalan:

차장은 기분이 좋다고 한다. 나는 기분 나쁘다. 자고 싶다. 곧바로 길가에 쓰러질 듯 피곤하다. “저는 집에 갑니다. 안녕히 가십시오.”¹⁹⁵ [Chajangeun gibuni jotago handa. Naneun gibun nappeuda. Jago sipda. Gotbaro gilgae sseureojil deut pigonhada. “Jeoneun jibe gamnida. Annyeonghi gasipsio.”]

Boshliq o‘rinbosarimizning kayfiyati yaxshi edi. Mening esa kayfiyatim unchalik emas. Uygim kelyapti. To‘g‘ri yo‘lda yiqiladigandek charchaganman.

– ***Men uyga ketyapman. Yaxshi boring.***

Ishdan vaqtliroq chiqib ketayotgan kishi hamkasblariga 내일 뵙겠습니다 [naeil boepgetseumnida] “Ertaga ko‘rishamiz”/ “Ertagacha”; 먼저 가겠습니다/ 가보겠습니다/ 들어가 보겠습니다 [meonjeo gagetseumnida/ gabogetseumnida/ deureoga bogetseumnida] “Oldinroq boray”/ “Bo‘pti ketdim”; 먼저 실례하겠습니다 [meonjeo sillyehagetseumnida] “Uzr so‘rayman”/ “Uzr, ketishim kerak” deb xayrlashadi. 먼저 [meonjeo] “oldin, oldinroq avval” so‘zini o‘z ichiga olgan mazkur ifodalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzr, kechirimni ifodalamaydi. 먼저 실례하겠습니다 [meonjeo sillyehagetseumnida] “Uzr so‘rayman” qolipi ish kuni tugamasdan ishdan

¹⁹³ Турдиева Х. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 67, 69.

¹⁹⁴ Анорбоева Н. Гоҳи шодлик, гоҳи ғам: қисса. – Тошкент: Yurist-media, 2012. – Б. 41.

¹⁹⁵ 윤지오. 용감하게. 지아스하트, 2018. 9 쪽.

erta chiqib ketilgandagina qo‘llaniladi. Bugungi kunda mazkur ifodani tez-tez uchratish mumkin bo‘lsa-da, u ilgari iste’molda bo‘lmagan:

“...걱정해 주셔서 감사합니다. 그럼 먼저 가보겠습니다.” 뒷머리를 급적이던 담당자가 꾸벅 인사를 건네고서 재빠르게 사무실로 몸을 숨겼다¹⁹⁶. [“.....Geokjeonghae jusyeoseo gamsahamnida. Geureom meonjeo gabogetseumnida.” Dwinmeorireul geuljeogideon damdangjaga kkubeok insareul geonnegoseo jaeppareuge samusillo momeul sumgyeotda.]

– “*G’amxo’rligingiz uchun rahmat. Mayli men ketdim*”. Boshini qashib turgan mas’ul xodim bosh irg‘ab, idoraga shoshilinch kirib ketdi.

Zamonaviy koreys odob-axloq qoidalarida “Xayrlashish” vaziyatida 내일 뵙겠습니다! [naeil boepgetseumnida!] “Ertaga ko‘rishamiz!” shakli ham eng keng tarqalgan vidolashish qoliplaridan biri hisoblanadi. Bu hurmat darajasi eng yuqori bo‘lgan shakldir. Hurmat darajasi mavjud bo‘lgan, lekin do‘stonalik munosabati kamroq vaziyatlarda 내일 뵙시다! [naeil bopsida!] “Ertaga ko‘rishamiz!” qolipidan istifoda etiladi. Do‘stona vaziyatlarda esa hurmat darajasi saqlangan 내일 봐요!/ 뵈어요! [naeilbwayo!/ boeeoyo!] “Ertaga ko‘rishguncha!” shakli qo‘llaniladi. Shuningdek, norasmiy vaziyatlarda do‘stlar orasida 내일 봐! [naeilbwa!] “Ertaga ko‘rishamiz!” qolipi ishlatiladi. Misol:

깨끗하게 비운 커피 잔을 내게 돌려주면서, ‘안녕히 계세요’나 ‘고마워요’가 아니라, “내일 뵈어요.”라고 하면서¹⁹⁷. [Kkaekkeuthage biun keopi jan eul naege dollyeojumyeonseo, ‘annyeongghi gyeseyo’na ‘gomawoyo’ga anira, “naeil boeeoyo.”rago hamyeonseo.]

So‘nggi qultimgacha ichilgan kofe chashkasini menga uzatganicha, xayralashish yoki rahmat aytish o‘rniga ertaga ko‘rishguncha, deya yo‘liga ravona bo‘ldi.

Yuqorida qayd etilganlar bilan birga, hamkasblar, chunonchi, quyi lavozimdagi xodimlar, yaqin munosabatdagi kishilar, do‘stlar, o‘rtoqlar orasida ketayotgan shaxsga nisbatan hurmat darajasi neytral bo‘lgan 잘 가요! [jal gayo!] “Yaxshi boring!” iborasi tez-tez qo‘llaniladi. Shuningdek, kattalar kichiklarga, do‘stlar, o‘rtoqlar bir-biriga hurmat darajasi mavjud bo‘lmagan 잘 가! [jal ga!] “Yaxshi bor!” yoki “안녕!” [annyeong] “Xayr” ifodalaridan foydalanishlari mumkin. Bu o‘rinda 잘 가! [jal ga!] “Yaxshi bor”ga 잘 있어! [jal isseo!] “Yaxshi qol!” yoki “안녕!” [annyeong]ga aynan

¹⁹⁶ 은화성. 겨울의 강. 1 권. 서울: 이색, 2022. 74 쪽.

¹⁹⁷ 천선란. 어떤 물질의 사랑. 아작, 2020. 296 쪽.

“안녕!” [annyeong] “Xayr!” deb javob qaytarish mumkin. Biroq shuni ham ta’kidlash joizki, o‘zidan kattalar, yuqori lavozimdagi xodimlarga nisbatan 잘 가요! [jal gayo!] “Yaxshi boring!”, 잘 가! [jal ga!] “Yaxshi bor!” yoki “안녕!” [annyeong] “Xayr!” qoliplarini qo‘llash mumkin emas.

O‘zbek muloqotida ish joylaridagi hamkasblar, odatda, o‘zaro bir-birlari “Xayr, ertagacha!”; “Mayli, men ketdim”; “Bo‘pti, men ketdim”; “Yaxshi qolinglar!”; deb xayrlashishadi:

– *Sizning-chi? Sizning oilangiz yo ‘qmi? – savol nazari bilan ayolning ko‘zlariga qaradi Behruz.*

– *Men shaxsiy savollarni yoqtirmayman, Behruz Shuhratovich, endi esa **xayr, ertagacha** – deya xonadan chiqib ketdi ayol*¹⁹⁸.

Har ikkala madaniyatda ish haftasining oxirida, odatda, hamkasblar bir-birlari bilan 즐거운 주말 보내세요! [jeulgeoun jumal bonaeseyo!] “Dam olish kunlaringiz maroqli o‘tsin!”, “Dam olish kunlarini yaxshi o‘tkazing!”// “Dam olish kunlaringiz yaxshi o‘tsin!”, “Yaxshi dam oling” // “Yaxshi dam olinglar” kabi iboralardan foydalanib xayrlashishadi. Masalan:

“팀장님, 뭐 하세요?”

“아뇨. 그냥 문자 좀 확인하고 있었어요. 즐거운 주말 보내세요.”

“네. 팀장님도 즐거운 주말 보내세요.”¹⁹⁹[“Timjangnim, mwo haseyo?”

“Anyo. Geunyang munja jom hwaginhago isseosseoyo. Jeulgeoun jumal bonaeseyo.” “Ne. Timjangnimdo jeulgeoun jumal bonaeseyo.”]

– *Guruh sardori, bandmisiz?*

– *Yo ‘q. Smslarni tekshirayotagn edim. **Dam olish kunlarini yaxshi o‘tkazing!***

– *Rahmat. **Siz ham dam olish kunlarini yaxshi o‘tkazing!***

3. Uyda oila a‘zolari bilan xayrlashish. Koreys nutqiy etiketida uydan chiqayotgan kishi: 다녀오겠습니다 [danyeogetseumnida] “Borib kelaman” deydi. Uni kuzatayotgan kishi esa: 잘 다녀오너라 [jal danyeooneora] “Yaxshi borib kel” deb javob qaytaradi. Suhbat vaziyatiga ko‘ra, hurmat darajasi o‘zgarib turadi: 다녀 오리라 [danyeo orida], 다녀오겠소 [danyeogetso], 다녀오다 [danyeooda], 다녀올게 [dinyeoolge]. Jumladan:

“로이랑 저는 일이 생겨서 지금 가봐야 합니다.”

¹⁹⁸ Жўраева III. Хаётимсан. <https://ok.ru/group/55471892136182/topic/70898954207478>

¹⁹⁹ 루연.네게 달뜨다. Renee, 2018. 120 쪽.

“.....예, 다녀와요.”²⁰⁰ [“Roirang jeoneun iri saenggyeoseo jigeum gabwaya hamnida.” “.....ye, danyeowayo.”]

– *Ro bilan mening ishim chiqib qolgani uchun borishimiz kerak.*

–*Ha, yaxshi borib keling.*

O‘zbek an‘analarida uydan chiqayotgan kishi: “Mayli, men ketdim”, “Bo‘pti, ketdim” deb, uni kuzatayotgan shaxs esa: “Yaxshi borib keling”, “Yaxshi ishlab keling”, “Eson-omon borib keling”, “Kuningiz xayrli o‘tsin” kabi iboralarni ishlatadi. Misollarga e‘tibor qarating:

– *Nima qilayin, bonu, ishimga ketaveraymi? Uning ko‘nglidagini sezgandek so‘radi er.*

– ***Yaxshi borib keling, hojim**, – xiyol parishonhol javob qildi uy bekasi²⁰¹.*

Koreys nutqiy muloqotida kechki payt oila a‘zolariga, xususan, keksalar, yoshi kattalarga 안녕하세요 주무십시오 [annyeonghi jumusipsio] // 안녕하세요 주무세요 [annyeonghi jumuseyo] “Yaxshi yotib turing”, (“Xayrli tun!”), kichiklarga 잘 자 [jal ja] (So‘zma-so‘z: “Yaxshi uxla”) “Yaxshi yotib tur” deb xayrli tun tilaklari bildiriladi. O‘zbek oilalarida ham shunga o‘xshash “Yaxshi dam oling”, “Yaxshi yotib turing”, “Xayrli tun!”, “Yaxshi tushlar ko‘ring” va h.k. ifodalar aytiladi.

Bu o‘rinda shuni ham ta’kidlash kerakki, Koreya va O‘zbekistonning kechki teleko‘rsatuvlari, internet tarmog‘idagi turli saytlar, telegram va facebook kanallarida ham 안녕하세요 주무십시오 [annyeonghi jumusipsio] “Xayrli tun!” yoki 좋은 밤 되시기 바랍니다 [joeun bam doesigi baramnida] “Tuningiz osoyishta o‘tsin!”, “Yaxshi dam olinglar” iboralaridan keng istifoda etiladi:

Xayrli tun sevimli gruppadosh do‘stlarim. Tuningiz osuda va tinch o‘tsin! Yaxshi dam olinglar!²⁰²

4. Restoran, kafeda xayrlashish. Koreys nutqiy etiketida restoran yoki kafega taklif qilgan kishi taom olib ikrom qiladi. Mehmon qilgan kishiga suhbatdoshi 잘 먹었습니다// 잘 먹었어요 [jal meogeotseumnida/ jal meogeosseoyo] (So‘zma-so‘z tarjimasi “Yaxshi yedim// ovqatlandim”) “Mehmon qilganingiz uchun rahmat” deb minnatdorchilik bildirib xayrlashadi. “Xayrlashish” vaziyatida yana 나중에 다시 만나요 [najunge dasi

²⁰⁰ 은화성. 겨울의 강. 서울: 이색, 2022. 118 쪽.

²⁰¹ Қаҳҳор С. Дайди кизнинг дафтари. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 45.

²⁰² <https://www.facebook.com/groups>

mannayo] “Keyin yana ko‘rishaylik”, 또 만나요 [tto mannayo] “Yana ko‘rishamiz”, 우리 다시 만날 수 있을까요? [uri dasi mannal su isseulkkayo?] “Yana uchrashamizmi?”, 헤어지려니 아쉽네요 [heeojiyeoni aswimneyo] “Ketgim kelmayapti”, 당신을 만나서 즐거웠어요 [dangsineul mannaseo jeulgeowosseoyo] “Siz bilan ko‘rishganimdan xursand bo‘ldim”, 고마워요, 저도 만나서 즐거웠어요 [gomawoyo, jeodo mannaseo jeulgeowosseoyo] “Rahmat, men ham xursand bo‘ldim”, 만나서 반가웠어요 [mannaseo bangawosseoyo] “Tanishganimizdan xursand bo‘ldim”, 정말 즐거운 대화였어요 [jeongmal jeulgeoun daehwayeosseoyo] “Siz bilan juda yaxshi o‘tirdik”, 우리 다시 함께 해요 [uri dasi hamkke haeyo] “Tez orada yana yig‘ilaylik”, 다시 만나기를 바랍니다 [dasi mannagireul baramnida] “Yana ko‘rishguncha” kabi iboralarni qo‘shimcha qilish mumkin.

O‘zbek nutqiy etiketida restoran, kafe va h.k. joylardagi “Xayrlashish” vaziyatida “Mehmon qilganingiz uchun rahmat”, “Keyingi safar men mehmon qilaman”, “Juda yaxshi o‘tirdik”, “Topgan-tutganingizga baraka bersin”, “To‘kilganlaringizning o‘rni to‘lsin”, “Yana o‘tiraylik”, “Yana ko‘rishaylik”, “Vaqtigiz bo‘lganda, yana o‘tiramiz” singari iboralardan foydalaniladi.

5. Ko‘chada xayrlashish. Odatda, ko‘chada uchrashib qolgan koreys suhbatdoshlari bir-birlari bilan “안녕히 가십시오” [annyeongghi gasipsio], “안녕히 가세요” [annyeongghi gaseyo] “Yaxshi boring” deb xayrlashishadi. Boshqa vaziyatlardan farqli o‘laroq, ko‘chada kuzatuvchi shaxs bo‘lmaydi, har ikkala kommunikant ham jo‘novchi hisoblanadi. Shuning uchun kommunikantlarning ikkalasi ham bir-biriga “Yaxshi boring” deyishadi.

Vaziyatga ko‘ra, 이만 가볼게요 [iman gabolgeyo] “Mayli men boray”, 우리 계속 연락해요 [uri gyesok yeollakaeyo] “Yo‘q bo‘lib ketmang. Telefonlashamiz”, 제 대신 가족에게 안부 좀 전해 주세요 [je daesin gajogege anbu jom jeonhaee juseyo] “Oila a‘zolaringizga salom aytib qo‘ying” kabi iboralardan ham foydalanish mumkin.

Qayd etilganlar bilan birga, koreys muloqotining norasmiy xayrlashuv vaziyatida, ko‘proq bolalar bilan va tengdoshlar orasida inglizcha (“Bye, bye!”)dan o‘zlashgan 바이바이 [baibai] “Bo‘pti” iborasidan foydalanib vidolashish mumkin. Shuningdek, koreys muloqotida “Xayrlashish” vaziyatida o‘ta samimiyat, yaqinlik va mehribonlik ifodasi sanalgan “O‘zingni ehtiyot qil” yoki “Ehtiyot bo‘l” 몸 조심해라/조심히 [mom josimhaera/ josimhi] shakllari ham qo‘llaniladi.

“어! 저, 가 봐야겠네요. 올라가시는 길에 10 층 안내데스크에서도 임시 카드는 발급 가능해요. 그럼 조심히.”

“아, 감사합니다.”²⁰³ [“Eo! jeo, ga bwayagenneyo. Ollagasineun gire 10cheung annaedeseukeuseodo imsi kadeuneun balgeup ganeunghaeyo. Geureom josimhi.” “A, gamsahamnida.”]

– *Voy, endi men boray. Yuqoriga ko‘tarilayotganingizda 10-qavatdagi ma‘lumot stolida vaqtinchalik kartani rasmiylashtirishingiz mumkin. O‘zingizni ehtiyot qiling!*

– *Katta rahmat.*

O‘zbek muloqotida ko‘cha-kuyda uchrashib qolib, keyin xayrlashish paytida “Mayli, xayr!”, “Xo‘p!”, “Bo‘pti!”, “Bo‘pti, sog‘ bo‘ling!”, “Mayli omon bo‘ling!” “Ko‘risharmiz!”, “Salomat bo‘ling!”, “Ko‘rishguncha!” va h.k. qoliplardan istifoda etiladi. Biron kishi bilan yana qayta uchrashish niyati bo‘lgan kommunikantning “Yana ko‘risharmiz” deb xayrlashishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbek tilida “Ko‘rishguncha”; “Mayli, sog‘ bo‘ling!”, “Bo‘pti, mayli ko‘rishamiz”, “Mayli, yana gaplasharmiz!”, “Bo‘pti, xayrlashmaymiz!”, “Hali ko‘rishamiz!” – Bu yerda *mayli* (rozilik javobini bildiruvchi yuklama “roziman, ma‘qul”), *bo‘pti* (bo‘libdi so‘zining qisqartmasi bo‘lib, rozilik javobini bildiradi) so‘zlari xayrlashuv aktini boshlab beradilar. “Ko‘rishguncha”, “Mayli, xayr”, “Mayli, sog‘ bo‘ling”, “Bo‘pti, mayli ko‘rishamiz”, “Mayli, yana gaplasharmiz” – “Qachondir ko‘rishamiz, qachonligi aniq emas” ma‘nosini beradi. “Bo‘pti, xayrlashmaymiz”, “Hali ko‘rishamiz” iboralari yana uchrashish yoki aloqada bo‘lishga niyat borligini bildiradi”²⁰⁴.

6. Kasalxonada yoki kasal ziyoratidagi xayrlashish. Har qanday millat madaniyatida bemorlar bilan ko‘rishganda yoki kasal ziyoratiga borganda, avvalo, xasta insonning ko‘nglini ko‘tarishga uriniladi va unga dalda beruvchi va shifo tilovchi niyatlari bildiriladi. Bemorning ruhini dadillantiruvchi bunday tilaklar “Xayrlashish” vaziyatida ham qo‘llaniladi. Masalan: 빨리 완쾌하세요 [ppalli wankwaehaseyo] “Tezroq tuzaling!”; 항상 건강하세요 [hangsang geonganghaseyo] “Boshqa kasal bo‘lmang!”

²⁰³ 한요나. 오보는 사과하지 않는다. 앤드, 2022. 174 쪽.

²⁰⁴ Турдиева Х. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 69.

O‘zbek madaniyatida ham shunga o‘xshagan “Dardini bergan, shifosini ham beradi”, “Xudo shifo bersin!”, “Hali ko‘rmagandek bo‘lib ketasiz”, “Otdan bo‘lib ketasiz” va h.k. iboralarni kuzatish mumkin.

7. Yo‘l, safar oldidan xayrlashish. Koreys tilida yo‘l, safar oldidan vidolashuv chog‘ida quyidagi qoliplardan keng foydalaniladi: 안녕하세요! [annyeonghi danyeoosipsio!] “Yaxshi borib keling”, 그동안 고마웠어요! [geudongan gomawosseoyo!] “Barcha yaxshiliklaringiz uchun katta rahmat!”, 잘 지내세요! [jaljinaeseyo!] “Yaxshi yuring!”, shuningdek, vaziyatdan kelib chiqqan holda, 조심하세요 [josimhaseyo] “Ehtiyot bo‘ling” deb ham qo‘shimcha qilish mumkin.

의뢰를 마친 강민과 김민지가 차혜린과 작별인사를 나누고 있었다.

“민지 언니, 그동안 고마웠어요.”

“그래, 혜린 씨 건강하게 잘 지내요. 앞으로 혼자 운전해서 도망가지 말고.”

“언니!”²⁰⁵ [Uiroereul machin Gang Mingwa Gim Minjiga Cha Hyeringwa jakbyeorinsareul nanugo isseotda. “Minji eonni, geudongan gomawosseoyo.” “Geurae, Hyerin ssi geonganghage jal jinaeyo. Apeuro honja unjeonhaeseo domanggaji malgo.” “Eonni!”]

Iltimosni bajargandan so‘ng, Gang Min va Gim Minji Cha Hyerin bilan xayrlashdi.

–Minji opa, **barcha yaxshiliklaringiz uchun katta rahmat!**

–Arzimaydi, Hyerin, sog‘ salomat yaxshi yuring! Bundan buyon mashinani yolg‘iz haydab, qochmang.

–Opa!

O‘zbek tilida, odatda, “Safaringiz bexatar bo‘lsin!”, “Oq yo‘l!”, “Yo‘llaringiz oppoq bo‘lsin!” deb, ba‘zan uzoq muddatga, olis joyga ketayotgan yaqin insonlarni kuzatish paytida esa “Oy borib, omon kel!” deb xayrlashiladi.

Qayd etilganlar bilan birga, diniy e‘tiqodlar bilan bog‘liq “Xudoga topshirdim”, “Ollohga (omonat) topshirdim”, “Xudo o‘z panohida asrasin” singari qoliplar ham qo‘llanilib, ular, asosan, yaqin kishilar, qon-qarindoshlar va qadrdonlarga nisbatan ishlatiladi. Mazkur qoliplar ko‘pincha yoshi ulug‘ kommunikantlar tarafidan istifoda etiladi:

*Uyda yolg‘iz yotma. Xayr endi, sog‘-omon bo‘linglar. Sizlarni Ollohga topshirdim. Men Buxoroyi sharifga ketdim*²⁰⁶.

²⁰⁵ 아이언강. 이계귀환자 보다가드 되다 2 권. 알에스미디어, 2000. 204 쪽.

²⁰⁶ Аҳмад С. Киприкда колгап тонг: Қиссалар. Хотиралар. Ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 231.

Umuman, koreys va o‘zbek madaniyatida “Xayrlashish” vaziyatida muayyan qoliplarni nutqda qo‘llash bilan chegaralanmaydi. Suhbatdoshlar o‘rtasida aksariyat hollarda xushmuomalalikni bildiruvchi qo‘shimcha iboralar ham qo‘llaniladi. Mazkur iboralarni suhbatdosh bilan keyinroq bog‘lanish, uchrashish yoki ovqatlanish uchun emas, balki samimiylikni, yaqinlikni ifodalash uchun ishlatiladigan sof mulozamat iboralari deyish mumkin.

KOREYS VA O'ZBEK NUTQIY ETIKETLARI YUZASIDAN O'TKAZILGAN ANKETA-SO'ROVNOMALAR NATIJASI

So'rovnoma metodi dastavval psixologiya ilmida vujudga kelgan. Psixologiyada so'rovnoma metodini birinchi bo'lib ingliz olimi F.Galton tadqiqotchilarda aqliy xislatlarning yuzaga kelishini o'rganish maqsadida qo'llagan. Keyinchalik xorijiy psixolog-olimlar S.Hall, A.Binet, G.M.Andreyeva, E.Noel tomonidan so'rov o'tkazishning amaliy texnologiyasi rivojlantirildi²⁰⁷.

Sotsiolingvistik materiallarni taqdim etishning ham o'ziga xos xususiyati bor. Bundan tashqari to'plangan, qayta ishlangan va statistik mezonlar yordamida baholangan material til va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi obyektiv qonuniyatlarga asoslangan aloqalarni ko'rsatib bera oladigan sotsiolingvistik talqinga muhtoj bo'ladi²⁰⁸.

Sotsiolingvistlar ma'lumot to'plashda ko'proq **kuzatish** va turli xil **so'rovnomalardan**, shuningdek, **yozma manbalarni umumilmiy tahlil** metodidan foydalanadilar²⁰⁹. Sotsiolingvistikaga oid bir qator qo'llanmalar mualliflari ma'lumotlar to'plash usullari orasida so'rovnoma usulini birinchi o'ringa qo'yishadi (A.D.Shveyser va boshq. 1978: 179; V.D.Bondaletov 1987: 146). Ushbu usul sotsiologiyadan olingan bo'lib, uni qo'llashning barcha nozik tomonlari eng kichik detallarni ham hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, sotsiologik tadqiqotlarning deyarli 90 foizida so'rovnoma usuli qo'llaniladi²¹⁰.

Anketa-so'rovnoma usuli tilni egallashdagi ma'lum qonuniyatlarni aniqlashtirish va shu tilda so'zlashuvchilarning u yoki bu muloqot sharoitlarida til qo'llashlarini tekshirishga qaratilgan.

To'plangan ma'lumotlar jadvalga solinadi. Agar ma'lumot ko'p bo'lmasa, u qo'lda yoziladi. Keyin olingan ma'lumotlar va uning mazmuniy tahlili, matematik-statistik bahosi aniqlashtiriladi. Buning natijasida

²⁰⁷ Юлдашев С. Социологик тадқиқот методологияси. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2018. – Б. 119.

²⁰⁸ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолінгвістика. – М.: Рос. гос. гуманит. ун-т, 2001. – С. 190-191.

²⁰⁹ Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika (O'quv qo'llanma). – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 73.

²¹⁰ Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолінгвістику. – М.: Высшая школа, 1978. – С. 179.

tadqiqotchi tildan foydalanish va til egalarining ma'lum ijtimoiy xususiyatlari o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlashga muvaffaq bo'ladi²¹¹.

Demak, anketa so'rovi o'tkazish deganda insonlardan oldindan tayyorlangan so'rovnomalar asosida ma'lum obyektiv faktlar, voqea, hodisa va shaxslar to'g'risida fikr olish jarayoni tushuniladi. Sodda qilib aytganda, anketa so'rovi – anketa asosida suhbat qilishdir. Anketa so'rovi yordamida respondentlardan o'zlari guvohi bo'lgan, eshitgan, ko'rgan yoki mustaqil tushunchaga ega bo'lgan ma'lum voqea yoki shaxs to'g'risida ma'lumot olish jarayonini tushunish mumkin.

Anketa so'rovi respondentlarning soni bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

- individual anketa so'rovi (bitta respondent, ya'ni har bir fuqaro bilan alohida tartibda anketa so'rovini o'tkazish);
- guruhviy anketa so'rovi (bir vaqtning o'zida bir qancha (100 gacha) respondent bilan so'rov o'tkazish);
- ommaviy anketa so'rovi (yuzdan oshiq respondentni anketa so'roviga jalb qilish)²¹².

Xullas, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilayotganda tadqiqotchi to'plangan ma'lumotlarni tekshirish uchun o'zini qiziqtirgan ijtimoiy uyushmaning ma'lum qismini so'rovga tortish orqali yaxshi natijalarga erisha oladi. Shundan kelib chiqqan holda, biz ham o'z tadqiqotimizda anketa-so'rovnoma usuliga murojaat qildik.

Tadqiqotimizda anketa-so'rovnoma 2023-yilning aprel-may oylarida GOOGLE internet sayti vositasida o'tkazildi. Anketa-so'rovnoma koreys va o'zbek tilida kundalik hayotda ishlatiladigan xushmuomalalikni ifodalovchi so'zlarning turli vaziyatlarda qo'llanish shakllarini aniqlash maqsadida tuzildi. Anketa-so'rovnoma yopiq tipdagi savol (menyu savol) va ochiq tipdagi savol (nominal savol) dan iborat. (Ilova 1 – koreys tilida so'rovnoma, Ilova 2 – o'zbek tilida so'rovnoma).


Anketada so'rovnomaning maqsadi, respondentning yoshi, jinsi, ish joyi haqidagi savollar bilan birga, har bir mavzuga ko'ra, masalan, "Qanday so'zlar/ifodalar bilan salomlashasiz?" kabi savollar berilib, unga bir qancha javob variantlari keltirilgan. Bunda har bir respondent kundalik muloqotda

²¹¹ Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiologik (O'quv qo'llanma). – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 75.

²¹² Юлдашев С. Социологик тадқиқот методологияси. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2018. – Б. 120.


eng sermahsul qo‘llaydigan o‘ziga ma’qul variantni belgilashi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, anketa-so‘rovnomalarda respondent ishlatadigan javoblar mavjud bo‘lmagan holatlar uchun “Boshqa salomlashish so‘zlar/ifodalar bo‘lsa yozing (kim bilan qanday salomlashasiz)” varianti ham keltirilgan.

Tadqiqotimizda anketa-so‘rovnomaga Koreya Respublikasining Seul shahridan 140 nafar, O‘zbekiston Respublikasining Toshkent shahridan 140 nafar respondent jalb etildi. Respondentlarning ijtimoiy gender taqsimotiga ham e’tibor qaratish maqsadida 70 nafar erkak va 70 nafar ayol respondent jarayonda ishtirok etdi.




3.1-rasm

Jumladan, koreys respondentlardan **erkak**: davlat xizmatchisi 4 ta, o‘qituvchi 27 ta, ishsiz 1 ta, tadbirkor 3 ta, sayohatchi 1 ta, ish qidiruvchi 1 ta, o‘quvchi 6 ta, tashkilot xodimi 26 ta; **ayol**: davlat xizmatchisi 5 ta, o‘qituvchi 33 ta, tadbirkor 2 ta, hamshira (gimnastika bo‘yicha katta instruktor) 1 ta, nafaqaxo‘r 1 ta, uy bekasi 2 ta, o‘quvchi 11 ta, tashkilot xodimi 16 ta respondent jalb qilindi.



3.2-rasm


O‘zbek respondentlaridan **erkak**: davlat xizmatchisi 14 ta, dasturchi 1 ta, nafaqaxo‘r 9 ta, tadbirkor 8 ta, talaba 10 ta, tashkilot xodimi 17 ta, o‘qituvchi 9 ta, o‘quvchi 2 ta; **ayol**: davlat xizmatchisi 3 ta, nafaqaxo‘r 6 ta, tadbirkor 1 ta, talaba 9 ta, tashkilot xodimi 12 ta, uy bekasi 13 ta, o‘qituvchi 24 ta, o‘quvchi 2 ta respondent jalb qilindi.



3.3-rasm

Anketa-so‘rovnomada informantlar asosan to‘rtta: 20-29, 30-39, 40-49 va 50 yoshdan yuqori bo‘lgan yosh guruhlariga birlashtirildi (bunday guruhlariga birlashtirib tadqiqot o‘tkazish usulini A.A.Grebenyova,

T.I.Yerofeeva va boshqa sotsiologvistlarning tadqiqotlarida ham ko‘rish mumkin)²¹³.




3.4-rasm

Tadqiqotimizda anketa-so‘rovnomalar “Salomlashish”, “Xayrlashish”, “Tabriklash”, “Minnatdorchilik bildirish”, “Uzr so‘rash” singari 5 ta mavzuiy guruh asosida o‘rganildi. Biroq monografiyada, asosan, “Salomlashish” va “Xayrlashish” vaziyatlari tadqiq etilganidan, shuningdek, ishning hajmi cheklanganligidan kelib chiqib, ushbu bobda faqat “Salomlashish” va “Xayrlashish” vaziyatlarida qo‘llaniladigan qoliplarga oid anketa-so‘rovnomalar tahlilga tortildi.

²¹³ Гребенёва А.А. Тематические группы этикетных формул приветствия, прощания, извинения в обучении русскому языку как иностранному // Классическое лингвистическое образование – в современном мультикультурном пространстве: матер. междунар. науч. конф. – Пятигорск; Пятигорский гос. линг. у-т, 2004. – С. 363-368.; Ерофеева Т.И. Социолект: стратификационное исследование: Дисс. ... д-ра. филол. наук. – СПб., 1994. – 356 с.

“Salomlashish” mavzuiy guruhida qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari

Koreys tilidagi anketa-so‘rovnoma natijalari



3.5-rasm

Koreys tilidagi “Salomlashish” mavzuiy guruhida *qarindoshlar, do‘stlar va tengdoshlar, hamkasblar, yoshi kattalar, lavozimi yuqori shaxslar* bilan muloqot qilish vaziyatida quyidagi nutqiy etiket birliklar tahlilga tortildi: 안녕하십니까? [annyeonghasimnikka?] Assalomu alaykum! (rasmiy hurmat uslubi), 안녕하세요? [annyeonghaseyo?] Assalomu alaykum! (norasmiy hurmat uslubi), 안녕? [annyeong?] Salom! (do‘stona uslub), 오셨어요? [osyeosseoyo?] Assalomu alaykum! (so‘zma-so‘z: Keldingizmi?), (norasmiy hurmat uslubi, hurmat suffiksi bilan), 왔어요? [wasseyoyo?] Assalomu alaykum! (Keldingizmi?) (norasmiy hurmat uslubi), 밥 먹었어요? [bap meogeosseoyo?] so‘zma-so‘z: Ovqatlaningizmi? (norasmiy hurmat uslubi), 식사하셨어요? [siksahasyeosseoyo?] so‘zma-so‘z: Ovqatlaningizmi? (norasmiy hurmat uslubi, “yemoq” fe’lining hurmat shakli), 하이 (하이염) [hai (haiyeom)] Salom! (ingliz tilidan o‘zlashgan so‘z).

가족 – Qarindoshlar bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

1-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	140		140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
안녕하십니까? [annyeonghasimnikka?]	3	3	5	0	1	0
안녕하세요? [annyeonghaseyo?]	21	20	13	11	12	5
안녕? [annyeong?]	20	12	6	7	8	11
오셨어요? [osyeosseoyo?]	20	18	11	11	8	8
왔어요? [wasseoyo?]	16	17	6	10	9	8
밥 먹었어요? [bap meogeosseoyo?]	10	4	5	5	1	3
식사하셨어요? [siksahasyeosseoyo?]	4	2	1	2	0	3
하이 (하이염) [hai (haiyeom)]	3	7	5	3	1	1
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	97	83	52	49	40	39
Variativlik	8	8	8	7	7	7

Yuqoridagi 1-jadvalda 8 xil salomlashish shakli keltirilgan bo‘lib, unda erkaklardan 97 ta, ayollardan esa 83 ta javob olindi. “20-29”/ “30-39”/ “40-49”/ “50 dan yuqori” yosh bo‘yicha javoblar quyidagicha taqsimlandi: 52/49/40/39. Qarindoshlar bilan salomlashish vaziyatida nutqiy etiket birliklarining qo‘llanish chastotasida “jins” va “yosh” ijtimoiy omillarining ahamiyatini ta’kidlash lozim.

Jadvaldagi yosh omiliga ko‘ra tahlillar shuni ko‘rsatadiki, unda “20-29” yoshlilar tomonidan 8 ta bir xil javob, “30-39”/ “40-49”/ “50 dan yuqori” yoshlilar tomonidan esa bitta birlikka farq qiluvchi javob, ya’ni 7 xil javob belgilangan. Qarindoshlar bilan salomlashish vaziyatida 안녕하십니까?

[annyeonghasimnikka?] qolipi “30-39”/ “50 dan yuqori”lar tomonidan, 식사하셨어요? [siksahasyeosseoyo?] qolipi esa “40-49” yoshdagilar tomonidan qo‘llanilmasligi aniqlandi.

**또래 – Do‘stlar va tengdoshlar bilan salomlashishda qo‘llaniladigan
nutqiy etiket birliklari chastotasi**

2-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins 140		Yosh 140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
안녕하십니까? [annyeonghasimnik ka?]	1	0	0	0	0	1
안녕하세요? [annyeonghaseyo?]	12	3	5	3	3	4
안녕? [annyeong?]	45	53	26	25	26	21
오셨어요? [osyeosseoyo?]	0	0	0	0	0	0
왔어요? [wasseyo?]	7	7	0	1	5	8
밥 먹었어요? [bap meogeosseoyo?]	3	0	1	0	0	2
식사하셨어요? [siksahasyeosseoyo?]	1	1	0	0	1	1
하이 (하이염) [hai (haiyeom)]	10	16	13	11	1	1
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	89	80	45	40	36	38
Variativlik	7	5	4	4	5	7

2-jadvalda erkaklardan 89 ta, ayollardan esa 80 ta javob oldik. “20-29”/ “30-39”/ “40-49”/ “50dan yuqori” yosh bo‘yicha javoblar quyidagicha taqsimlandi: 45/40/36/38. *Do‘stlar va tengdoshlar* bilan muloqot jarayonida

nutq etiketi birliklarini qo'llash chastotasida “jins” va “yosh” ijtimoiy omillar ahamiyatlidir.

Berilgan 8 ta qolipdan erkaklar 7 ta javobni, ayollar 5 ta javobni belgilashgan. Yosh jihatdan esa “20-29” – 4 ta, “30-39” – 4 ta, “40-49” – 5 ta, “50 dan yuqori” respondentlar tomonidan – 7 ta javob belgilangan. Tahlillar natijasida “20-29”/ “30-39”/ “40-49” yoshli *do'stlar va tengdoshlar* bilan salomlashish vaziyatida 안녕하세요? [annyeonghasimnikka?] birligidan foydalanilmasligi, 오셨어요? [osyeosseoyo?] qolipining esa umuman qo'llanilmasligi aniqlandi. Shuningdek, 식사하셨어요? [siksahasyeosseoyo?] iborasining “20-29”/ “30-39” yoshlilar tomonidan ishlatilmasligi ma'lum bo'ldi. Tahlil natijalari *do'stlar va tengdoshlar* bilan salomlashish chog'ida 안녕? [annyeong?] Salom! qolipining eng faol qolip ekanligini ko'rsatdi.

동료 – Hamkasblar bilan salomlashishda qo'llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

3-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	Erkak 140 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
안녕하십니까? [annyeonghasimnikka?]	7	1	1	3	4	0
안녕하세요? [annyeonghaseyo?]	46	57	27	26	26	24
안녕? [annyeong?]	13	7	7	4	4	5
오셨어요? [osyeosseoyo?]	6	5	3	4	2	2
왔어요? [wasseoyo?]	4	5	4	1	1	3
밥 먹었어요? [bap meogeosseoyo?]	3	11	7	3	2	2
식사하셨어요? [siksahasyeosseoyo?]	7	4	4	3	2	2

하이 (하이염) [hai (haiyeom)]	3	2	3	1	0	1
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	89	92	59	35	41	39
Variativlik	8	8	8	8	7	7

3-jadvalda *hamkasblar* bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklarining ko‘rsatkichlari keltirilgan bo‘lib, unda erkaklar 89 ta, ayollar 92 ta javob belgilashgan. “20-29”/ “30-39”/ “40-49”/ “50 dan yuqori” “**yosh**” omili bo‘yicha javoblar quyidagicha taqsimlandi: 59/35/41/39. Ulardan “20-29”/ “30-39” yoshli respondentlar – 8 ta, “40-49”/ “50 dan yuqori” yoshdagi respondentlar – 7 ta javobni belgilashgan. Berilgan 8 turdagi salomlashish iboralari orasida 안녕하세요? [annyeonghaseyo?] *hamkasblar* orasida eng sermahsul qo‘llaniladigan qolip bo‘lib, u 46 nafar erkak va 57 nafar ayol respondent tomonidan belgilangan.

나이가 많은 사람 – Yoshi kattalar bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

4-jadval

Nutqiy etiket birliklar	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	Erkak 140 70	Ayol 140 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
안녕하십니까? [annyeonghasimnikka?]	42	29	18	19	17	17
안녕하세요? [annyeonghaseyo?]	35	45	26	18	19	17
안녕? [annyeong?]	0	0	0	0	0	0
오셨어요? [osyeosseoyo?]	7	8	4	4	3	4
왔어요? [wasseoyo?]	0	0	0	0	0	0
밥 먹었어요? [bap meogeosseoyo?]	0	0	0	0	0	0
식사하셨어요? [siksahasyeosseoyo?]	7	8	6	6	0	3

하이 (하이염) [hai (haiyeom)]	0	0	0	0	0	0
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	91	90	54	47	39	41
Variativlik	4	4	4	4	3	4

4-jadvalda erkaklardan 91 ta, ayollardan esa 90 ta javob oldik. “20-29”/“30-39”/“40-49”/“50 dan yuqori” yosh bo‘yicha javoblar quyidagicha taqsimlandi: 54/47/39/41. Olingan ma’lumotlarga asoslanib, shuni aytishimiz mumkinki *yoshi kattalar* bilan muloqot jarayonida nutq etiketi birliklarini qo‘llash chastotasida “**yosh**” ijtimoiy omili ahamiyatlidir. Tahlil natijalaridan ayon bo‘ladiki, berilgan 8 turdagi salomlashish birligidan 4 tasi ham erkak, ham ayol informantlar tomonidan belgilangan. Yosh omiliga ko‘ra, “40-49” yoshdagi respondentlar tomonidan 3 xil javob belgilangan. *Yoshi kattalar* bilan salomlashishda 안녕하십니까? [annyeonghasimnikka?] birligi 42 nafar erkak, 29 nafar ayol tomonidan ishoratlangan. Bu *yoshi kattalar* bilan salomlashish vaziyatida erkaklar ayollarga qaraganda ko‘proq rasmiy hurmat shaklidan foydalanishini ko‘rsatadi. Aksincha, *yoshi kattalar* bilan salomlashish vaziyatida ayollar norasmiy hurmat shaklidan foydalanadilar. Chunonchi 45 nafar ayol, 35 nafar erkak respondentning javobi buni dalillaganini ko‘rish mumkin.

지위가 높은 사람– Yuqori lavozimdagi shaxslar bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi


5-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
안녕하십니까? [annyeonghasimnikka?]	52	42	24	21	24	25
안녕하세요? [annyeonghaseyo?]	23	34	18	14	14	11
안녕? [annyeong?]	0	0	0	0	0	0
오셨어요? [osyeosseoyo?]	4	3	2	4	0	1
왔어요? [wasseoyo?]	0	0	0	0	0	0

밥 먹었어요? [bap meogeosseoyo?]	0	0	0	0	0	0
식사하셨어요? [siksaahasyeosseoyo?]	6	4	3	5	1	1
하이 (하이염) [hai (haiyeom)]	0	0	0	0	0	0
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	85	83	47	44	39	38
Variativlik	4	4	4	4	3	4

5-jadvalda *yuqori lavozimdagi shaxslar* bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklarining chastotasini aniqlash uchun erkaklarning 85 ta javobi va ayollarning 83 ta javobi tahlil qilingan. “20-29”/ “30-39”/ “40-49”/ “50 dan yuqori” yosh omili bo‘yicha javoblar quyidagicha taqsimlandi: 47/44/39/38. Olingan ma’lumotlarga asosanib, *yuqori lavozimdagi shaxslar* bilan muloqot jarayonida nutq etiketi birliklarini qo‘llash chastotasida “**yosh**” ijtimoiy omili ahamiyatliligini ta’kidlashimiz lozim. Yuqori lavozimdagi shaxslar bilan salomlashish vaziyatida 안녕하세요? [annyeonghasimnikka?] qolipining sermahsulligi aniqlandi. Mazkur birlik 52 nafar erkak, 42 nafar ayol respondent tomonidan belgilangan. Bu o‘rinda ham xuddi 4-jadval tahlilida ko‘rsatilganidek, *yuqori lavozimdagi shaxslar* bilan salomlashishda erkaklarning ayollarga qaraganda ko‘proq rasmiy hurmat shaklidan istifoda etishlari ayon bo‘ladi. Aytilganlar bilan birga, 왔어요? [wasseoyo?]/ 밥 먹었어요? [bap meogeosseoyo?] qoliplarining *yuqori lavozimdagi shaxslar* bilan salomlashish vaziyatida umuman ishlatilmasligi aniqlandi.

O‘zbek tilidagi anketa-so‘rovnoma natijalari



3.6-rasm

O‘zbek tilidagi anketa-so‘rovnomalarda ham salomlashish vaziyatida qo‘llaniladigan 8 turdagi nutqiy etiket birliklari berilgan. Anketa-so‘rovnomalar qarindoshlar, do‘stlar va tengdoshlar, hamkasblar, yoshi katta/lavozimi yuqori shaxslar bilan salomlashish vaziyatlariga ko‘ra mavzuiy guruhlarga ajratilgan.

Qarindoshlar bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

6-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	140		140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
Assalomu alaykum	62	60	33	34	29	26
Salomalaykum	4	3	0	0	3	4
Salom	1	4	0	1	2	2
Xayrli tong	0	0	0	0	0	0
Yaxshimisiz?	5	12	5	3	2	7
Qalaysiz?	2	3	1	2	1	1
Salomatmisiz?	6	1	0	2	1	4
Ishlar qalay?	4	0	4	0	0	0
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	84	83	43	42	38	44
Variativlik	7	6	4	5	6	6

6-jadvalda *qarindoshlar* bilan salomlashish vaziyatida qo‘llaniladigan birliklarning chastotasini aniqlash uchun o‘tkazilgan anketa-so‘rovnomalarning natijalari tahlil etilgan. Ushbu so‘rovnomada erkaklardan 84 ta, ayollardan esa 83 ta javob oldik. “20-29”/ “30-39”/ “40-49”/ “50 dan yuqori” yosh omili bo‘yicha javoblar quyidagicha taqsimlandi: 43/42/38/44. *Qarindoshlar* bilan salomlashishda nutq etiketi birliklarini qo‘llash chastotasida “**yosh**” ijtimoiy omili ahamiyatlidir. Berilgan 8 turdagi birlikdan erkaklar – 7 tasini, ayollar – 6 tasini belgilashgan. Yosh xususiyatiga e‘tibor qaratilganda, “20-29” yoshdagilar – 4 ta javob, “30-39” yoshdagilar – 5 ta javob, “40-49”/ “50 dan yuqori” yoshdagilar – 6 ta javobni belgilashgan.

Qarindoshlar bilan salomlashish vaziyatida *Assalomu alaykum* qolipi eng faol hisoblanib, mazkur birlikning “20-29”/ “30-39” yoshlilar tomonidan ko‘p qo‘llanilishi aniqlandi. Gender xususiyatiga ko‘ra, *Yaxshimisiz?* qolipi ayollar nutqida, *Salomatmisiz?/Ishlar qalay?* birliklari esa erkaklar nutqida qo‘llanilishi ayon bo‘ldi.

Do‘stlar va tengdoshlar bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

7-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	140		140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
Assalomu alaykum	37	27	17	17	18	12
Salomalaykum	1	6	0	3	1	3
Salom	8	20	5	8	9	6
Xayrli tong	0	2	0	1	0	1
Yaxshimisiz?	5	16	2	8	1	10
Qalaysiz?	6	17	9	6	5	3
Salomatmisiz?	7	0	1	2	1	3
Ishlar qalay?	21	6	11	6	1	9
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	85	94	45	51	36	47
Variativlik	7	7	6	8	7	8

7-jadvalda *do‘stlar* va *tengdoshlar* orasidagi salomlashish birliklarining chastotasini aniqlash uchun o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlil etilgan. Unda erkaklardan 85 ta, ayollardan esa 94 ta javob oldik. Berilgan 8 turdagi birlikdan 7 tasi ham erkaklar, ham ayollar tomonidan ishoratlangan. Yosh jihatidan “20-29” yoshlilar – 6 ta, “30-39” yoshlilar – 8 ta, “40-49” yoshlilar – 7 ta, “50 dan yuqori” yoshlilar tomonidan – 8 ta javob belgilangan. Bu yerda “**jins**” va “**yosh**” ijtimoiy omillar ahamiyatligini ko‘rishimiz mumkin.

Do‘stlar va *tengdoshlar* bilan muloqot qilishda *Assalomu alaykum/ Salomatmisiz?/ Ishlar qalay?* birliklarining erkaklar tomonidan ko‘p qo‘llanilishi, *Salomalaykum/ Salom/ Yaxshimisiz?/ Qalaysiz?* qoliplarining

esa ayollar tomonidan keng istifoda etilishi kuzatildi. Shuningdek, *Yaxshimisiz?* birligini “50 dan yuqori” yoshdagilar, *Qalaysiz?/ Ishlar qalay?* birligini esa “20-29” yoshlilar ko‘p qo‘llashi aniqlandi.

Hamkasblar bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

8-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	140		140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
Assalomu alaykum	49	45	25	31	20	18
Salomalaykum	4	5	2	3	1	3
Salom	3	4	1	2	3	1
Xayrli tong	1	0	0	0	1	0
Yaxshimisiz?	8	13	2	3	2	14
Qalaysiz?	1	7	2	3	1	2
Salomatmisiz?	4	5	2	4	1	2
Ishlar qalay?	6	0	3	2	0	1
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	76	79	37	48	29	41
Variativlik	8	6	7	7	7	7

8-jadvalda *hamkasblar* orasidagi salomlashish birliklarining chastotasi tahlil etilgan bo‘lib, so‘rovnomada savollarga erkaklar 76 ta va ayollar 79 ta javobni berishdi. Jadvalda berilgan 8 ta birlikdan erkaklar – 8 ta, ayollar – 6 ta javobni belgilashgan. Shuningdek, *hamkasblar* bilan muloqot qilish vaziyatida berilgan 8 ta salomlashish qoliplari orasida *Assalomu alaykum* iborasidan keng foydalanilgan. Bunda “**yosh**” omilida ham o‘ziga xos farqliliklar kuzatildi. *Hamkasblar* bilan muloqot qilish vaziyatida *Yaxshimisiz?* birligi ayollar va “50 dan yuqori”lar tomonidan ko‘p qo‘llanilishi aniqlandi. *Qalaysiz?* ayollar va *Ishlar qalay?* erkaklar tomonidan ishlatilishi aniqlandi.

Yoshi katta/lavozimi yuqorilar bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

9-jadval


Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins 140		Yosh 140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
Assalomu alaykum	64	65	33	35	29	32
Salomalaykum	3	2	1	0	3	1
Salom	0	0	0	0	0	0
Xayrli tong	0	1	0	0	1	0
Yaxshimisiz?	15	10	7	2	10	6
Qalaysiz?	1	0	0	1	0	0
Salomatmisiz?	15	6	1	2	11	7
Ishlar qalay?	2	0	1	1	0	0
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	100	84	43	41	54	46
Variativlik	6	5	5	5	5	4

9-jadvalda erkak respondentlarning 100 ta javobi va ayol respondentlarning 84 ta javobi tahlil qilingan. “20-29”/ “30-39”/ “40-49”/ “50 dan yuqori” yosh omili bo‘yicha javoblar quyidagicha taqsimlandi: 43/41/54/46. Olingan ma’lumotlarga asosanib, shuni aytish mumkinki, *yoshi katta/lavozimi yuqorilar* bilan muloqot jarayonida nutqiy etiket birliklarini qo‘llash chastotasida “**jins**” va “**yosh**” ijtimoiy omillari muhim ahamiyat kasb etadi.

9-jadvalda berilgan 8 ta birlikdan erkaklar – 6 ta, ayollar – 5 tasini belgilagan. “20-29”/ “30-39”/ “40-49” yoshlilar tomonidan 5 xil javob, “50 dan yuqorilar” esa 4 xil javob belgilagan. Mazkur guruhda *Assalomu alaykum* birligining ko‘p qo‘llanilishi, shuningdek, *Yaxshimisiz?*/*Salomatmisiz?* birliklarining erkaklar va “40-49” yoshlilar tomonidan faol ishlatilishi aniqlandi.

“Xayrlashish” mavzuiy guruhida qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari

Koreys tilidagi anketa-so‘rovnoma natijalari



3.7-rasm

“Xayrlashish” mavzuiy guruhida qarindoshlar, do‘stlar va tengdoshlar, hamkasblar, yoshi kattalar, lavozimi yuqori shaxslar bilan muloqot qilish vaziyatida quyidagi birliklar tahlilga tortildi: 안녕하세요 가십시오 [annyeonghi gasipsio] *Xayr! Yaxshi boring* (rasmiy hurmat uslubi); 안녕하세요 가세요 [annyeonghi gaseyo] *Xayr! Yaxshi boring* (norasmiy hurmat uslubi); 나중에 (다음에) 뵙겠습니다 [najunge (daeume) boepgetseumnida] *Ko‘rishguncha, xayr!* (rasmiy hurmat uslubi), 수고하십시오 [sugohasipsio] *Charchamang/ Hormang!* (rasmiy hurmat uslubi), 안녕. 잘 가 [annyeong. jal ga] *Xayr! Yaxshi bor* (do‘stona uslub), 바이바이 [baibai] *Bay-bay* (ingliz tilidan o‘zlashgan so‘z), 그럼 수고! [geureom sugo] *Bo‘pti, charchama!* (do‘stona uslub), 수고하세요 [sugohaseyo] *Charchamang/ Hormang!* (norasmiy hurmat uslubi).

가족 – Qarindoshlar bilan xayrlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

10-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	140		140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35

안녕히 가십시오 [annyeonghi gasipsio]	3	1	4	0	0	0
안녕히 가세요 [annyeonghi gaseyo]	25	22	11	12	16	8
나중에 (다음에) 봬겠습니다 [najunge (daeume) boepgetseumnida]	8	8	6	4	1	5
수고하십시오 [sugohasipsio]	6	2	2	3	1	2
안녕. 잘 가 [annyeong. jal ga]	23	31	9	12	17	16
바이바이 [baibai]	6	14	11	6	3	0
그럼 수고! [geureom sugo]	5	5	1	5	2	2
수고하세요 [sugohaseyo]	2	2	1	0	0	3
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	78	85	45	42	40	36
Variativlik	8	8	8	6	6	6

10-jadvaldagi so‘rovnomada qatnashgan erkaklardan 78 ta javob va ayollardan 85 ta javob olindi. Shulardan “20-29 yosh” – 45 ta, “30-39 yosh” – 42 ta, “40-49 yosh” – 40 ta, “50 yoshdan yuqori” – 36 ta javobni tanlashgan bo‘lib, “**jins**” va “**yosh**” omili ahamiyatliligini kuzatdik. Bu o‘rinda erkaklar va ayollar berilgan 8 ta birlikning barchasidan foydalanishgan. Ammo, yosh jihatidan “30-39” / “40-49” / “50 yoshdan yuqori”larning 6 tadan javob belgilashgani ma’lum bo‘ldi. Qarindoshlar bilan xayrlashish vaziyatida 안녕히 가세요 [annyeonghi gaseyo] *Xayr/Yaxshi* boring (norasmiy hurmat uslubi) birligida yosh xususiyatida farqliliklar ko‘ringan bo‘lsa, 안녕. 잘 가 [annyeong. jal ga] *Xayr. Yaxshi bor* (do‘stona uslub), 바이바이 [baibai] *Bay-bay* (ingliz tilidan o‘zlashgan so‘z) ifodalarida jins xususiyatida farqliliklar kuzatilib, bu nutq etiketi birliklaridan ko‘proq ayollarning foydalanishlari aniqlandi.

**또래 – do‘stlar va tengdoshlar bilan xayrlashishda qo‘llaniladigan
nutqiy etiket birliklari chastotasi**

11-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins 140		Yosh 140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
안녕히 가십시오 [annyeonghi gasipsio]	1	0	0	0	1	0
안녕히 가세요 [annyeonghi gaseyo]	10	5	4	1	6	4
나중에 (다음에) 뵈겠습니다 [najunge (daeume) boepgetseumnida]	4	5	2	1	2	4
수고하십시오 [sugohasipsio]	3	2	1	1	0	3
안녕. 잘 가 [annyeong. jal ga]	33	47	21	20	23	16
바이바이 [baibai]	18	23	18	18	3	2
그럼 수고! [geureom sugo]	12	10	7	8	3	4
수고하세요 [sugohaseyo]	1	2	0	1	1	1
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	82	94	53	50	39	34
Variativlik	8	7	6	7	7	7

11-jadvaldagi so‘rovnomada erkaklardan 82 ta, ayollardan 94 ta javob olingan bo‘lib, unda jins xususiyatidagi farqlarni ko‘rish mumkin. Yosh xususiyatida ham sezilarli farqlar ko‘zga tashlanadi, ya’ni “20-29” – 53 ta javob, “30-39” – 50 ta javob, “40-49” – 39 ta javob, “50 dan yuqori” – 34 ta javob. Variativlik tahliliga ko‘ra erkaklar 8 ta, ayollar 7 ta nutqiy etiket birliklaridan foydalanishgan. Yosh jihatiga ko‘ra, “20-29” – 6 ta, “30-39”/

“40-49”/ “50 yoshdan yuqori” respondentlar – 7 tadan javob belgilashgan. *Do'stlar va tengdoshlar* bilan xayrlashishi vaziyatida ayollar 안녕하세요 가십시오 [annyeonghi gasipsio] birligidan umuman foydalanmasliklarini ko'rishimiz mumkin. 안녕하세요 가세요 [annyeonghi gaseyo] qolipini esa erkaklarning ayollarga nisbatan ko'p qo'llashlari ayon bo'ldi. Shuningdek, 안녕. 잘 가 [annyeong. jal ga]/ 바이바이 [baibai] birliklarining ayollar tomonidan ko'p qo'llanilganligini ko'rish mumkin. 바이바이 [baibai] birligidan, asosan, “20-29”/ “30-39” yoshlilarning keng istifoda etishlari aniqlandi.

**동료 – hamkasblar bilan xayrlashishda qo'llaniladigan nutqiy
etiket birliklari chastotasi**

12-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins 140		Yosh 140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
안녕히 가십시오 [annyeonghi gasipsio]	5	1	1	3	2	0
안녕히 가세요. [annyeonghi gaseyo]	30	34	17	15	20	12
나중에 (다음에) 뵙겠습니다 [najunge (daeume) boepgetseumnida]	9	11	4	8	7	1
수고하십시오 [sugohasipsio]	12	12	8	7	1	8
안녕. 잘 가 [annyeong. jal ga]	12	7	6	4	3	6
바이바이 [baibai]	4	2	2	2	1	1
그럼 수고! [geureom sugo]	5	8	5	0	2	6
수고하세요 [sugohaseyo]	14	17	9	12	5	5

Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	91	92	52	51	41	39
Variativlik	8	8	8	7	8	7

12-jadvalda *hamkasblar* bilan xayrlashish vaziyatida nutqiy etiket qoliplarining chastotasi quyidagicha taqsimlandi: erkaklardan 91 ta, ayollardan 92 ta javob olingan bo‘lib, unda jinslar o‘rtasidagi tafovut deyarli kuzatilmadi. Yosh xususiyatiga ko‘ra, “20-29” – 52 ta javob, “30-39” – 51 ta javob, “40-49” – 41 ta javob, “50 dan yuqori” – 39 ta javob belgilangan. Variativlik bo‘yicha erkaklar va ayollar berilgan 8 ta nutqiy etiket birliklaridan foydalanishgan. Yosh jihatdan “20-29” – 8 ta, “30-39” – 7 ta, “40-49” – 8 ta, “50 yoshdan yuqori”lar – 7 tadan javob belgilashgan. *Hamkasblar* bilan xayrlashish vaziyatida 안녕히 가세요 [annyeonghi gaseyo]ga “50 yoshdan yuqorilar” – 12 ta, 나중에 (다음에) 뵈겠습니다 [najunge (daeume) boepgetseumnida]ga – 1 ta javob belgilangan bo‘lib, bu o‘rinda boshqa yoshdagilarga qaraganda ushbu birliklardan kam foydalanishi aniqlandi. 수고하십시오 [sugohasipsio] birligida ham yosh xususiyatida farqliliklar kuzatildi. Shuningdek, 안녕. 잘 가 [annyeong. jal ga] birligida jins xususiyatining ahamiyatli ekanligi ko‘zga tashlandi.

나이가 많은 사람 – Yoshi kattalar bilan xayrlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

13-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
안녕히 가십시오 [annyeonghi gasipsio]	37	23	16	15	11	18
안녕히 가세요 [annyeonghi gaseyo]	28	42	22	18	20	10
나중에 (다음에) 뵈겠습니다 [najunge (daeume) boepgetseumnida]	16	21	10	7	10	10

수고하십시오 [sugohasipsio]	8	5	5	6	1	1
안녕. 잘 가 [annyeong. jal ga]	0	0	0	0	0	0
바이바이 [baibai]	0	0	0	0	0	0
그럼 수고! [geureom sugo]	0	0	0	0	0	0
수고하세요 [sugohaseyo]	2	2	1	2	1	0
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	91	93	54	48	43	39
Variativlik	5	5	5	5	5	4

13-jadvalda *yoshi kattalar* bilan xayrlashishi vaziyatida erkaklardan 91 ta javob, ayollardan 93 ta javob olingan. Yosh xususiyatiga ko‘ra, “20-29”/ “30-39”/ “40-49” / “50 yoshdan yuqori” yoshdagilarda javoblar 54/48/43/39 taga taqsimlandi. Ko‘rinadiki, bu vaziyatda yosh xususiyati muhim hisoblanadi. Variativlik bo‘yicha erkaklar va ayollar berilgan 8 ta nutqiy etiket birliklarining 5 tasidan foydalanishgan. Shuningdek, “20-29”/ “30-39”/ “40-49” – 5 ta, “50 yoshdan yuqori”lar tomonidan – 4 ta javob belgilangan. Mazkur guruhda 안녕히 가십시오 [annyeonghi gasipsio] iborasining ayollarga qaraganda erkaklar tomonidan ko‘p ishlatilishi aniqlandi. Shuningdek, bu birlikning “40-49” yoshlilar “50 yoshdan yuqori”larga qaraganda kam qo‘llashlari kuzatildi. 안녕히 가세요 [annyeonghi gaseyo] hamda 나중에 (다음에) 뵙겠습니다 [najunge (daeume) boepgetseumnida] nutqiy etiket birliklaridan ayollarning ko‘proq foydalanishlari ma’lum bo‘ldi.

지위가 높은 사람– Yuqori lavozimdagi shaxslar bilan xayrlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

14-jadval


Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35

안녕히 가십시오 [annyeonghi gasipsio]	49	31	21	18	16	25
안녕히 가세요 [annyeonghi gaseyo]	24	35	19	18	13	9
나중에 (다음에) 뵙겠습니다 [najunge (daeume) boepgetseumnida]	14	19	11	8	10	4
수고하십시오 [sugohasipsio]	8	2	2	7	1	0
안녕. 잘 가 [annyeong. jal ga]	0	0	0	0	0	0
바이바이 [baibai]	0	0	0	0	0	0
그럼 수고! [geureom sugo]	0	0	0	0	0	0
수고하세요 [sugohaseyo]	1	2	3	0	0	0
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	96	89	56	51	40	38
Variativlik	5	5	5	5	5	3

14-jadvalda erkaklar 96 ta va ayollar 89 ta javoblarni tanlashgan. Yosh xususiyatiga ko‘ra, “20-29” – 56 ta, “30-39” – 51 ta, “40-49” – 40 ta, “50 yoshdan yuqori” – 38 ta nutqiy etiket birliklaridan foydalanishgan bo‘lib, unda “**jins**” va “**yosh**” xususiyatining ahamiyati ko‘zga tashlanadi. Variativlik bo‘yicha erkaklar va ayollar tomonidan 8 ta variantdan 5 tasi tanlangan. Yosh jihatidan “20-29”/ “30-39”/ “40-49” – 5 ta, “50 yoshdan yuqori”lar – 3 ta javobni belgilashgan bo‘lib, katta farqliliklarni ko‘rish mumkin. Bu o‘rinda “20-29” yoshlilar rasmiy va norasmiy hurmat uslubidan ko‘p foydalanishlarini alohida ta’kidlash kerak. 안녕히 가십시오 [annyeonghi gasipsio] birligidan ayollarga qaraganda erkaklarning ko‘proq foydalanishlari, 안녕히 가세요 [annyeonghi gaseyo] birligidan, ya’ni norasmiy hurmat uslubidan esa ayollarning ko‘proq foydalanishlari ayon bo‘ldi. Shuningdek, 안녕히 가십시오 [annyeonghi gasipsio] birligini “50 yoshdan yuqori”lar “20-29” yoshlilarga qaraganda ko‘proq qo‘llashlari kuzatildi. 안녕히 가세요 [annyeonghi gaseyo] birligidan esa “20-29”

yoshlilar ko‘p foydalanishini kuzatish mumkin. 나중에 (다음에) 뵈겠습니다 [najunge (daeume) boepgetseumnida] birligini “50 dan yuqori” lar boshqa yoshdagilarga qaraganda kam qo‘llashi hamda 수고하십시오 [sugohasipsio] birligini *yuqori lavozimli shaxslarga* juda kam ishlatilishi kuzatildi.

O‘zbek tilidagi anketa-so‘rovnoma natijalari



3.8-rasm

Qarindoshlar bilan xayrlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

15-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
Xayr	37	31	13	13	22	20
Yaxshi qoling	21	33	14	21	10	9
Ko‘rishguncha	10	11	4	5	5	7
Salomat bo‘ling	12	9	8	5	2	6
Omon bo‘ling	7	2	3	2	2	2
Yaxshi qol	5	6	5	5	0	1
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	92	92	47	51	41	45
Variativlik	6	6	6	6	5	6

15-jadvalda erkak va ayollar 92 ta javob belgilashgan. Yosh xususiyatiga ko‘ra, javoblar quyidagicha taqsimlandi: “20-29 yosh” – 47 ta,

“30-39 yosh” – 51 ta, “40-49 yosh” – 41 ta, “50 yoshdan yuqori” – 45 ta javobni tanlashgan. Ko‘rinadiki, *qarindoshlar* bilan xayrlashish chog‘ida jins xususiyatining ahamiyatga ega emas, biroq yosh xususiyati muhimdir. Variativlik bo‘yicha erkaklar va ayollar berilgan 6 ta nutqiy etiket birliklaridan foydalanishgan. Yosh jihatidan “20-29”/“30-39”/“50 yoshdan yuqori”lar tomonidan 6 ta javob, “40-49” yoshlilar tomonidan 5 ta nutqiy etiket birligi belgilangan. Mazkur mavzuiy guruhda *Xayr* birligining eng ko‘p qo‘llanilganini ta’kidlash joiz. *Yaxshi qoling* birligining ayollar hamda “30-39” yoshlilar tomonidan ko‘p qo‘llanilishi kuzatildi. *Omon bo‘ling* birligidan esa ko‘proq erkaklarning foydalanishi ayon bo‘ldi.

Do‘stlar va tengdoshlar bilan xayrlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

16-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	140		140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
Xayr	20	28	11	16	11	10
Yaxshi qoling	21	33	14	21	10	9
Ko‘rishguncha	23	29	13	11	14	14
Salomat bo‘ling	12	4	3	2	6	5
Omon bo‘ling	9	0	0	1	3	5
Yaxshi qol	16	18	12	11	5	6
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	101	112	53	62	49	49
Variativlik	6	5	5	6	6	6

16-jadvalda *do‘stlar va tengdoshlar* bilan xayrlashish vaziyatida erkaklar – 101 ta, ayollar – 112 ta javoblarni tanlashgan bo‘lib, bu vaziyatda “**jins**” omilining ahamiyatli ekanligini ko‘rish mumkin. Yosh xususiyatida ham farqlar kuzatiladi, binobarin: “20-29” – 53 ta javob, “30-39” – 62 ta javob, “40-49” va “50 dan yuqori”lar tomonidan – 49 ta javob belgilangan. Variativlik bo‘yicha erkaklar – 6 ta, ayollar – 5 ta nutqiy etiket birliklaridan foydalanishgan. Yosh jihatdan “20-29” – 5 ta, “30-39”/“40-49”/“50 yoshdan yuqori”lar – 6 tadan javob belgilashgan. *Do‘stlar va tengdoshlar*

bilan xayrlashish vaziyatida *Xayr*, *Yaxshi qoling*, *Ko‘rishguncha* birliklari ayollar tomonidan, *Salomat bo‘ling*, *Omon bo‘ling* birliklari erkaklar tomonidan qo‘llanilishini ko‘rish mumkin. Shuningdek, *Yaxshi qoling* birligini “30-39” yoshlilar tomonidan ko‘p qo‘llanilishi, *Yaxshi qol* birligini esa “20-29”/ “30-39” yoshlilar tomonidan ko‘p qo‘llanilishi ma’lum bo‘ldi.

Hamkasblar bilan xayrlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

17-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	140		140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
Xayr	23	28	8	14	16	13
Yaxshi qoling	20	24	13	19	7	5
Ko‘rishguncha	16	22	6	8	12	12
Salomat bo‘ling	17	10	5	5	7	10
Omon bo‘ling	11	1	0	3	5	4
Yaxshi qol	3	3	3	2	1	0
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	90	88	35	51	48	44
Variativlik	6	6	5	6	6	5

17-jadvalda *hamkasblar* bilan xayrlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi quyidagicha taqsimlandi: erkaklar – 90 ta, ayollar – 88 ta birlikni tanlashgan bo‘lib, bu o‘rinda “**jins**” omili ahamiyatsiz deb topildi. “20-29” – 35 ta javob, “30-39” – 51 ta javob, “40-49” – 48 ta javob, “50 dan yuqori”lar – 44 ta javobni tanlashgan bo‘lib, bu o‘rinda “**yosh**” omili nutqiy etiketi chastotasiga ahamiyatli deb topildi. Variativlik bo‘yicha erkaklar va ayollar berilgan 6 ta nutqiy etiket formulalaridan foydalanishgan. “**Yosh**” jihatidan “20-29” – 5 ta, “30-39”/ “40-49” – 6 ta, “50 yoshdan yuqori”lar – 5 ta javobni belgilashgan. Ushbu guruhda *Xayr*, *Ko‘rishguncha* birliklarining ayollar tomonidan ko‘p ishlatilishi; *Salomat bo‘ling*, *Omon bo‘ling* birliklarining esa erkaklar tomonidan ko‘p ishlatilishi aniqlandi. *Xayr* iborasini “20-29” yoshlilar boshqa yoshdagilarga qaraganda kam qo‘llashi, *Yaxshi qoling* birligini “40-49”, “50 dan yuqori”lar kam qo‘llashi kuzatildi.

Yoshi katta/lavozimi yuqorilar bilan xayrlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

18-jadval

Nutqiy etiket birliklari	Ijtimoiy omillar					
	Jins		Yosh			
	140		140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
Xayr	30	29	12	9	17	21
Yaxshi qoling	25	30	13	19	11	12
Ko‘rishguncha	5	7	4	4	2	2
Salomat bo‘ling	35	23	12	11	21	14
Omon bo‘ling	20	10	3	6	13	8
Yaxshi qol	2	2	3	1	0	0
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	117	101	47	50	64	57
Variativlik	6	6	6	6	5	5

18-jadvalda erkaklar – 117 ta javobni, ayollar esa – 101 ta javobni belgilashgan bo‘lib, bu guruhda jins omilining ahamiyatli ekanligi ko‘zga tashlanadi. Yosh xususiyatiga ko‘ra, “20-29”/ “30-39”/ “40-49” / “50 yoshdan yuqori” yoshdagilarning javoblarini 47/50/64/57 taga taqsimlash mumkin. Variativlik bo‘yicha erkak va ayollar berilgan 6 ta nutqiy etiket birliklaridan foydalanishgan. Yosh jihatidan “20-29”/ “30-39” – 6 ta, “40-49”/ “50 yoshdan yuqori”lar – 5 ta javobni belgilashgan. Ushbu guruhda *Xayr* birligi “40-49”/ “50 yoshdan yuqori”lar tomonidan ko‘p qo‘llanilgan bo‘lib, undan ham erkaklar ham ayollar foydalanishgan. *Yaxshi qoling* iborasi “30-39” yoshdagi respondentlar va ayollarning nutqida ko‘proq ishlatilishi kuzatildi. *Salomat bo‘ling*, *Omon bo‘ling* birliklaridan ko‘proq erkaklarning foydalanishlari ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, *Salomat bo‘ling* ifodasi “40-49” yoshlilarning nutqida faol qo‘llanilishi ayon bo‘ldi.

XULOSA

Koreys tilshunosligida nutqiy etiket nazariyasiga oid tadqiqotlar XX asrning oxirlarida boshlanib, ular, asosan, sotsiolingvistika va metodika yoʻnalishlarida amalga oshirildi. Oʻzbek tilshunosligida nutqiy etiket masalalari maxsus tadqiqot obyekti sifatida XX asrning oxirlariga kelib oʻrganila boshlandi. Mazkur tadqiqotlarda nutqiy meʼyorlar, nutqiy etiket birliklari ijtimoiy lisoniy, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistik, pragmalolingvistik hamda paralingvistik aspektlarda oʻrganildi.

Koreys va oʻzbek nutqiy etiketining “Salomlashish” va “Xayrlashish” vaziyatlarining tahlili shuni koʻrsatdiki, har ikki xalq vakillari odob-axloq qoliplari yordamida uchrashish va xayrlashish paytida oʻz munosabatlarini ifodalaydi. Lekin har bir til egasining oʻziga xos odob-axloq qoliplari fondi mavjud. Til egalari lingvojamoa tomonidan taklif qilingan muqobil salomlashish va xayrlashish qoliplarini oʻzlari xohlagancha tanlab, ulardan muloqot vaqti, joyi va muhitini hisobga olgan holda foydalanadilar. Biror guruhda faol qoʻllanilgan salomlashish va xayrlashish qoliplari yosh, zamon, makon va gender omiliga koʻra boshqa guruhda kamroq ishlatilishi mumkin.

Koreys va oʻzbek nutqiy etiketida “Salomlashish” vaziyatidagi yosh omili jamiyatdagi pogʻonali munosabatlarga asoslanadi. Bu oʻrinda koreys jamiyatidagi iyerarxik munosabatlarning oʻzbek jamiyatiga nisbatan kuchli ekanligini taʼkidlash kerak. Insonning yoshi qanchalik katta yoki maqomi qanchalik yuqori boʻlsa, u shunchalik koʻp hurmatga sazovor boʻladi. Shuningdek, har ikki madaniyatda turli yoshdagilarning salomlashish munosabatida katta yoshli adresatning hurmatini saqlash ustuvorligi kuzatiladi. Shu bois kichiklar oʻzlaridan kattalarga salom berishda qoʻllagan ifodalari va xatti-harakatlarining axloqiy mezon asosida boʻlishiga alohida eʼtibor qaratishadi.

Koreys madaniyatida qorin och-toʻqligini soʻrash ham salomlashishning bir shakli sifatida keng tarqalgan. Koreyslar biron kishidan “Ovqat yedingizmi?” deb soʻrash orqali bu insonga befarq emasligini, mehrini koʻrsatadi. Salomlashishning bu turi Koreya tarixidagi ocharchilik, oziq-ovqat tanqisligi bilan bogʻliq holda shakllangan. Hozirgi kunda toʻkinchilik, oziq-ovqat tashvishi boʻlmasa-da, koreys xalqi salomlashishning bu qolipidan voz kechmagan.

Aksariyat dunyo xalqlarining muloqotida kunning har bir qismi uchun maxsus qoʻllaniladigan salomlashish qoliplari mavjud boʻlib, ular

foydalanish vaqti bilan chegaralanadi. Koreys va o'zbek madaniyati uchun kunning vaqtiga qarab salomlashish me'yor bo'lmasa-da, rasmiy va norasmiy doiralarida kunning qismlariga qarab muayyan salomlashish birliklaridan foydalaniladi. Salomlashishning mazkur qoliplari, asosan, teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar va ijtimoiy tarmoqlarda keng qo'llaniladi.

Koreys va o'zbek nutqiy etiketining "Salomlashish" vaziyatida erkaklarning so'rashishi qisqa, ayollarniki esa ancha uzun, dialogga boyligi bilan ajralib turadi. Ayollar nutqida nazokat, muloyimlik belgilari kuzatilishi bilan birga, ular emotsional-ekspressiv birliklarga, qo'shimcha ma'no ifodalovchi vositalarga boyligi bilan erkaklar nutqidan ajralib turadi. Koreys xotin-qizlari nutqida ko'pincha [a] va [oe], o'zbek xotin-qizlari nutqida esa "voy" undovi keng qo'llaniladi. Shuningdek, o'zbek muloqotida xotin-qizlarning "Eson-omonmisiz?", erkaklarning esa "Salomatmisiz?", "Bardammisiz?" tarzida ko'rishishlari keng tarqalgan.

Noverbal salomlashish jarayonida o'zbek muloqoti tegish darajasining yuqoriligi (qo'l tegizish, quchoqlash, silash, o'pish va h.k.), oradagi masofaning yaqin bo'lishi, koreys muloqoti esa, aksincha, tegish darajasining pastligi va oradagi masofaning uzoqligi bilan xarakterlanadi. Koreys jamiyatidagi pog'onali munosabatlar hatto oila a'zolari va qarindosh-urug'lar bilan ham quchoqlashib, yelka qoqishib, o'pishib salomlashishga yo'l qo'ymaydi. Umuman, koreys muloqotida suhbatdoshga juda yaqinlashish, qo'l tegizish, uni quchoqlash, o'pish kabi harakatlar ma'qullanmaydi.

Koreys va o'zbek madaniyatida "Xayrlashish" vaziyatida to'satdan, birdaniga ketib qolish hurmatsizlik hisoblanadi. Shu bois xayrlashish chog'ida xushmuomalalikni bildiruvchi qo'shimcha iboralar, ya'ni "xayrlashuv kalitlari"dan foydalaniladi. Bu iboralar aksariyat hollarda suhbatdosh bilan keyinroq bog'lanish, uchrashish yoki ovqatlanish uchun emas, balki samimiy mulozamat ko'rsatish maqsadida qo'llaniladi.

Koreys va o'zbek muloqotida nutqiy etiketlarning qo'llanish holatini aniqlash uchun koreys va o'zbek respondentlari bilan anketa-so'rovnomalar o'tkazildi. Tahlil natijalariga ko'ra, koreys va o'zbek muloqotida nutqiy etiket birliklarining qo'llanish chastotasi va variativligi muloqot vaziyati hamda turli ijtimoiy omillarga bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi.

Koreys va o'zbek muloqotida "Salomlashish" va "Xayrlashish" mavzuiy guruhlari bo'yicha o'tkazilgan anketa-so'rovnomalarda 5 ta vaziyat

tahlilga tortilib, olingan natijalar 18 ta jadval asosida yoritildi. Anketa-so'rovnomalarda ijtimoiy omil ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq 5 ta birlikdan ko'p bo'lgan holatlarda mazkur omil ahamiyatli deb hisoblandi.

Koreys va o'zbek nutqiy etiketlari sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilib, har ikki tilning nutqiy etiket birliklaridagi universalisiya, xarakterologiya, unikalitalar hamda differensiyalar ochib berildi. Shuningdek, til egalarining muayyan ijtimoiy guruhlariga xos nutqiy etiket birliklaridan foydalanishlarining me'yoriy hol ekanligi ko'rsatib berildi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilarni tavsiya etish mumkin: oliy ta'lim muassalari o'quv rejasining majburiy fanlar blokiga "Etika" va "Nutqiy etiket" fanlarini kiritish; "Axborot soati" faning dasturiga nutqiy etiketga doir mavzularni qo'shish; o'rta umumta'limdagi "Tarbiya" fanida o'zbekona nutqiy odatni chuqurroq o'rgatishga e'tiborni kuchaytirish; shuningdek, "O'zbekona muomala madaniyati" mavzusida teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/3765586>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/4545884>.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/5426736>.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

5. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati. – Toshkent: "Ta'lim nashriyoti", 2009. – 156 b.

6. Mo'minov S. Muloqot mezonlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 96 b.

7. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – B. 54. www.ziyouz.com navoiy_mahbubul_qulub_com.doc

8. Sattor M. O'zbek udumlari. – Toshkent: Cho'lpon, 2007. – 192 b.

9. Usmanova Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistik (O'quv qo'llanma). – Toshkent: Universitet, 2014. – 84 b.

10. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: TDSHI, 2015. – 192 b.

11. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. – Toshkent: TDSHI, 2017. – 160 b.

12. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2019. – 246 b.
13. Shamsiyeva Sh. Madaniyatlararo muloqot (Xitoy va o‘zbek madaniyatlari misolida). – Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2023. – 140 b.
14. Бируни А.Р. Избранные произведения. Геодезия. Исследование, перевод и примечания И.Г. Булгакова. – Ташкент: Фан, 1966. Том 3, – 361 с.
15. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 158 б.
16. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – 176 б.
17. Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 40 б.
18. Маҳмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1997. – 112 б.
19. Маҳмудов К. Меҳмоннома. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989. – 240 б.
20. Неъматов О., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 32 б.
21. Расулов Р., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти. (ўқув-методик қўлланма). – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2004. – 112 б.
22. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 160 б.
23. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – 39 б.
24. Фаробий Абу Наср. Фазилат, бахт, саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 2002. – 64 б.
25. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ижтимоий одоблар. – Тошкент: Ҳилол-нашр, 2021. – 456 б.
26. Юлдашев С. Социологик тадқиқот методологияси. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2018. – 228 б.
27. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972. – 28 б.
28. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошкент: Фан, 1974. – 148 б.
29. Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошкент: Фан, 1991. – 91 б.

30. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.

2) Xorijiy nashrlar

31. Байбурин А.К., Топорков А.Л. У истоков этикета. Этнографические очерки. – Л.: Наука, 1990. – 165 с.

32. Беликов В.И., Крысин Л.П. Социолингвистика. – М.: Рос. гос. гуманитар. ун-т, 2001. – 315 с.

33. Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. – М.: Русский язык, 2009. – 144 с.

34. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика: учебное пособие. – М.: Просвещение, 1987. – 159 с.

35. Васильев А.А., Гурьева А.А. Как правильно общаться по-корейски: язык социального статуса в Корее. – СПб.: С.-Петербург. ун-т, 2017. – 120 с.

36. Запорожец М.Н. Социолингвистика: электронное учеб. пособие / М.Н. Запорожец. – Тольятти: ТГУ, 2014. – 138 с.

37. Каплан Т.Ю., Дерюгина Т.С. Речевой этикет современного корейского языка. – Владивосток: Дальневосточный университет, 2003. – 135 с.

38. Колесов В. В. Язык города. – М.: Высшая школа, 1991. – 192 с.

39. Конфуций. У истоков мудрости; [пер. с древнекит.; сост., пер., коммент. И.И. Семененко]. – М.: Эксмо, 2008. – 544 с.

40. Крысин Л.П. Очерки по социолингвистике. – М.: ФЛИНТА, 2021. – 360 с.

41. Кым Джантэ. Конфуцианство в Корее / Кым Джантэ; пер.: Ко Ен Чоль, Д.Е. Мартынов. – Казань: Казанский университет, 2022. – 182 с.

42. Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации: Сопоставление английской и русских лингвокультурных традиций. – М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. – 512 с.

43. Ожегов С.И. Лексикология. Лексикография. Культура речи. – М.: Высшая школа, 1974. – 352 с.

44. Рыданова И.И. Уроки этикета. – Минск: Вышэйшая школа, 1988. – 158 с.

45. Самсонов Д.А. Корейский этикет: опыт этнографического исследования. – СПб.: Наука, 2013. – 144 с.
46. Самсонов Д.А. Кинетические аспекты корейского этикета: традиционный глубокий поклон чоль и его варианты // <http://gauk.ru>.
47. Ступин Л.П., Игнатъев К.С. Современный английский речевого этикет. – Л.: ЛГУ, 1980. – 143 с.
48. Тань Аошуан. Китайская картина мира: Язык, культура, ментальность / Тань Аошуан – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 240 с.
49. Трофимова Н.А. Экспрессивные речевые акты в диалогическом дискурсе. Семантический, прагматический, грамматический анализ: Монография. – СПб.: ВВМ, 2008. – 376 с.
50. Формановская Н.И. Речевой этикет. – М.: Русский язык: Энциклопедия, 1979. – 432 с.
51. Формановская Н.И. Употребление русского речевого этикета. – М., 1982. – 192 с.
52. Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методологический аспекты. – М.: Рус.яз., 1982. – 126 с.
53. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – М.: Книга по Требованию, 1989. – 156 с.
54. Формановская Н.И. Культура общения и речевого этикет. – М.: ИКАР, 2005. – 2-е изд. – 250 с.
55. Формановская Н.И. Русский речевой этикет: Лингвистический и методический аспекты. М.: ЛКИ, 2008. – 160 с.
56. Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. – М.: Высшая школа, 1978. – 216 с.
57. Brown P., & Levinson S. Universals in Language usage: Politeness phenomena. – London, 1978. – 345 p.
58. Goffman E. Interaction ritual: Essays in face-to-face behavior. – New York: Pantheon Books, 1967. – 270 p.
59. Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.
60. Post P. Emily post's etiquette (16th ed). Harper Collins Publishers. 1997. – 845 p.

61. Schober O. Beden Dili: Davranış Anahtarı. Çeviren: Süeda Özbent. –Istanbul: Arion Yayınevi, 2003. – 194 s.
62. 구영본. 한국의 전통문화와 예절. 서울:형설, 2003. – 250 p.
63. 국어교재편찬위원회 편. 국어와 화법. (2 판). 부산: 부산외국어대학교 출판부, 1997. – 247 p.
64. 김득중. 실천예절개론. 경기: 교문사, 1997. – 473 p.
65. 나운정. 사회적 소통을 위한 언어 실태 조사. 서울: 국립국어원, 2017. – 241 p.
66. 이대성 외. 남북 언어예절 비교 연구. 국립국어원, 2013. – 237 p.
67. 전영우. 국어화법론. 서울: 집문당, 1987. – 418 p.
68. 전영우. 언어예절과 인간관계. 서울: 역락, 2004. – 425 p.
69. 정민영. 현대인의 언어 예절. 서울: 글누림출판사, 2016. – 242 p.
70. 표준언어예절. 국립국어원, 2011. – 264 p.

III. Lug ‘at va ensiklopediyalar

71. Сафаров Ш. Социоллингвистика: инглизча-русча-ўзбекча лугат. – Қарши: Intellect, 2023. – 143 б.
72. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “К” ҳарфи. – 900 б. [www. ziyouz.com](http://www.ziyouz.com).
73. Романова Н.Н., Филиппов А.В. Словарь. Культура речевого общения: этика, прагматика, психология. – М.: Флинта, 2009. – 304 с.
74. 고려대 한국어 대사전.고려대학교민족문화연구원. 2009.
75. 표준국어대사전 (한국어대백과 사전).I-III.서울: 두산동아. 1999.
76. 한국민족문화대백과사전.한국학중앙연구원. 2005.

IV. Badiiy adabiyotlar

77. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 416 b.
78. Анорбоева Н. Гоҳи шодлик, гоҳи ғам: қисса. – Тошкент: Yurist-media, 2012. – 256 б.
79. Аҳмад С. Киприкда қолгап тонг: Қиссалар. Хотиралар. Ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 320 б.
80. Аҳмад С. Уфқ. Трилогия. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. – 688 б.
81. Аҳророва Ш. Худонинг меҳмони (ҳикоя) <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/shahlo-ahrorova-1967/shahlo-ahrorova-xudoning-mehmoni-hikoya/>

82. Аъзам А. Сояни йўқотган одам. –Тошкент: Шарқ, 2004. – 350 б.
83. Аъзам А. Ўзи уйланмаган совчи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 313 б.
84. Бекмурадова И. Ҳайитлик. <https://www.samdu.uz/cy/news/18413>
85. Жўраева Ш. Ҳаётимсан/<https://ok.ru/group/55471892136182/topic/70898954207478>
86. Малик Т. Шайтанат. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 464 б.
87. Малик Э. Дуо олган келинчак (Оила китоби: ҳикоялар, пандномалар). – Тошкент: Шарқ, 2019. – 336 б.
88. Мамарасулов А. Барлос кишлоғининг зумрад тонглари: Ҳикоялар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – 112 б.
89. Мурод Т. Ойдинда юрган одамлар (қисса). – Тошкент: Sano-standart, 2017. – 192 б.
90. Мухтор О. Муҳаббат ўлимдан кучли. – Тошкент: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 212 б.
91. Мавланов Н. Шошма! (момоннинг айтганлари) <http://fitrat.uz/shoshma-momomning-ajtganlari>
92. Намозов А. Меҳмонлар дивизияси ёхуд бир кеча минг кеча эмас. <https://www.xabar.uz/mualliflar/anvar-namozov/mehmonlar-diviziyasi-yoxud-bir-kecha-ming-kecha-emas>
93. Намозов А. Тошкентда йўқолган чол-кампири. <https://xabar.uz/hajviya/toshkentda-yoqolgan-chol>
94. Ниёз Н. Сўнгги кун. Китоб 1: Ҳаёлий қисса. – Тошкент: Meriyus, 2012. – 272 б.
95. Нурилло А. Устоз: Биографик роман. – Наманган: Наманган, 2017. – 252 б.
96. Темиров Ҳ. Генералнинг беваси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – 372 б.
97. Қаҳҳор С. Дайди қизнинг дафтари. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 336 б.
98. Қодирий Ҳ. Эски Тошкентда. <https://shosh.uz/habibullo-qodiriy-eski-toshkentda-qissa/>
99. Ғафуров О. Аёл ори. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетасининг 2013 йил, 36-сони

100. Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2019. – 544 б.
101. Ҳошимов Ў. Нур борки, соя бор. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018. – 272 б.
102. 고영빈. 꿈을 찾아 왔단다. 스카이미디어, 2013. – 310 p.
103. 구혁서. 옆에 앉아서 좀 울어도 돼요? 서울: 해냄, 2021. – 180 p.
104. 김 승 옥. 누이를 이해하기 위하여. – P. 1-8.
105. 김보영 외. 이웃집 슈퍼히어로. 황금가지, 2015. – 460 p.
106. 김승옥. 무진기행. 사상계, 1964. – 15 p.
107. 김예은. 수상향 초콜릿가게. 부천시: 서랍의 날씨, 2022. – 229 p.
108. 김이환. 행운을 빕니다. 들녘, 2020. – 239 p.
109. 나운아. 미인의 법칙. 뜨인돌, 2021. – 240 p.
110. 루연.네게 달뜨다. Renee, 2018. – 364 p.
111. 박성원. 델러웨이의 창(窓), 2001 올해의 문제소, 한국현대소설학회: 신원, 2001. – 470 p.
112. 박완서. 나의 가장 나중 지니인 것. 문학동네, 2006. – 456 p.
113. 신경숙. 엄마를 부탁해. 서울: 창비, 2008. – 299 p.
114. 아이언강. 이계귀환자 보디가드 되다 2 권. 알에스미디어, 2000. – 320 p.
115. 알테. 당신은 나의 주인님 3. 도서출판 청어람, 2022. – 163 p.
116. 염상섭. 표본실의 청개구리. 개벽, 1921. – 33 p.
117. 윤사배. 궁금하면, 가져봐요 2. 베아트리카, 2022. E 북.
118. 윤지오. 용감하게. 지아스하트, 2018. – 281 p.
119. 은화성. 겨울의 강. 서울: 이색, 2022. – 194 p.
120. 이광수. 무정. 서울: 매일신보, 1917. – 568 p.
121. 이금이. 알로하 나의 엄마들. 창비, 2020. – 213 p.
122. 이기호. 누구에게나 친절한 교회 오빠 강민호. 문학동네, 2018. – 314 p.
123. 이민진, 파친코 1. 인플루엔셜, 2022. – 336 p.
124. 조세희. 난장이가 쏘아 올린 작은 공. 이성과 힘, 1987. – 262 p.
125. 지오. 아름다운 내일. 에피루스, 2018. – 230 p.
126. 천선란. 어떤 물질의 사랑. 아작, 2020. – 817 p.
127. 최은영. 내게 무해한 사람. 문학동네, 2018. – 297 p.

128. 한강. 채식주의자. 창작과비평, 32(2), 2004. – P. 247-284.
129. 한요나. 오보는 사과하지 않는다. 앤드, 2022. – 219 p.
130. 현진건. 운수 좋은 날. 서울: 개벽, 1924. – 12 p.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

131. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 135 б.
132. Аширбаева Д.Р. Корейс ва ўзбек дискурсида мурожаат бирликларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – 146 б.
133. Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 25 б.
134. Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвوماданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2023. – 140 б.
135. Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – 140 б.
136. Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Самарқанд, 1993. – 27 б.
137. Кахаров Қ. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2020. – 154 б.
138. Мўминов С.М. Окказионал нутқий номинацияда мотивациянинг роли: Филол.фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 1990. – 20 б.
139. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 235 б.
140. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – 47 б.
141. Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот ҳулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.
142. Саидхонов М.М. Новербал масалалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 1993. – 26 б.

143. Турдиева Ҳ.К. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 167 б.

144. Ҳожиёва Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нуткий хусусияти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2001. – 130 б.

145. Булыгина В. Речевой этикет в социолингвистическом аспекте (на материале марийской и эстонской коммуникативных культур: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тарту, 2017. – 136 с.

146. Бухаева Р.В. Этнокультурные стереотипы речевого общения (на материале бурятского языка): Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Улан-Удэ, 2015. – 409 с.

147. Ерофеева Т.И. Социолект: стратификационное исследование: Дисс. ... д-ра. филол. наук. – СПб., 1994. – 356 с.

148. Зубарёва А.А. Формулы русского речевого этикета: социолингвистическое исследование: Дисс. ... канд. филол. наук. – Пермь, 2007. – 274 с.

149. Ким Н.Д. Грамматическая и функционально-семантическая природа главных членов предложения в корейском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2006. – 141 с.

150. Лежнева И.И. Социолингвистическое развитие английского и русского речевого этикета (на материале форм обращения, формул приветствия и прощания): Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2001. – 163 с.

151. Рахматиллаева Б.Х. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 18 с.

152. Руднева Е.А. Стратегии лингвистической вежливости в спонтанном речевом взаимодействии: Дисс. ...канд. филол. наук. – СПб., 2018. – 280 с.

153. Тешабаева Д.М. Речевой этикет делового письма в торговой сфере (на материале узбекского и русского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2000. – 165 с.

154. 김정화. 청소년 언어 예절 교육 방안 연구. 중앙대학교 교육대학원. 석사학위논문. 2015. – 94 p.

155. 모 이. 한. 중 남녀의 성별 발화에 대한 사회언어학적 대조 연구. 한국외국어대학교 국제지역대학원. 박사학위논문, 2015. – 378 p.

156. 박석진. 한국어 성별 언어의 실현 양상과 발화 상황 요인 연구: 하십시요/해요체의 전략적 용법을 중심으로. 한국외국어대학교 석사논문. 2012. – 108 p.

157. 박영순. 한일 양국인의 인사행동에 관한 사회언어적 연구. 계명대학교 대학원. 박사학위논문. 2003. – P. 217.

158. 아바소바 딜푸자. 우즈베크어-한국어 번역에 나타난 복합문의 특성 연구. 계명대학교 대학원. 박사학위논문. 2021. – 154 p.

159. 이동민 . 청소년 화법의 사회언어학적 연구. 공주대학교 대학원. 박사학위 논문. 2013. – 166 p.

160. 장원호. 만 5 세 유아를 위한 언어예절교육 프로그램 개발 및 적용 효과. 중앙대학교 대학원. 박사학위논문. 2022. – 408 p.

161. 진주희. 그림책 읽기에 기초한 화법 교육이 유아의 화법 사용 능력, 또래 상호작용 능력, 자기조절력에 미치는 효과. 중앙대학교 대학원 석사학위논문. 2014. – 135 p.

162. 한영희. 율곡의 예절교육론 연구: 격몽요결과 학교모범을 중심으로. 성균대학교 생활과학대학원 석사학위논문. 2013. – 119 p.

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

163. Usmanova Sh. O‘zbekcha va koreyscha so‘zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. – Seoul, 2004. –Pp. 48-60.

164. Маҳмудов Н. Нутқнинг жўялилиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. 3-сон. – Б. 13-17.

165. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24.

166. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. 5-сон. – Б. 3-16.

167. Маҳмудов Н. Фан тили ва тил фани // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5.– Б. 3-10.

168. Маҳмудов Н. Зиддият ва маъно тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. 3-сон. – Б.16-24.

169. Нуруллахон хожи Абдуллахон ўғли. Таъзия одоблари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993, 12 март.
170. Усманова Ш. Корейс ва туркий тилларда ундалмалар // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент: “Университет”, 2004. – Б. 74-77.
171. Усманова Ш. Ўзбек ва корейс тилларида расмий мурожаат шакллари // Лингвист / Илмий мақолалар тўплами. III. – Тошкент, 2012. – Б. 162-166.
172. Усманова Ш. Оламнинг лисоний манзарасини яратишда ўхшатишларнинг ўрни // Sharqshunoslik № 1. – Тошкент: ТДШИ, 2015. – Б. 76-81.
173. Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, TDSHI, 2015. – 31-36 б.
174. Шодмонов Э. Муомала муносабатларида қўлланилган сўзгапларга доир. // Тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1970. – Б. 167-175.
175. Александров А. Пожмем друг-другу руки. // Новая строительная газета, 1992, № 16.
176. Борисова Е.Е., Лебедева В.В. Особенности национальной специфики приветствий в корейском и русском языках // Международный журнал экспериментального образования. – М., 2020. – № 1. – С. 27-30.
177. Васильев Л.С. Особенности системы мышления, поведения и психологии в традиционном Китае // Китай: традиции и современность: Сборник научных статей. – М.: Наука, 1976. – С. 52-82.
178. Гребенёва А.А. Тематические группы этикетных формул приветствия, прощания, извинения в обучении русскому языку как иностранному//Классическое лингвистическое образование – в современном мультикультурном пространстве: матер. междунар. науч. конф./Пятигорск; Пятигорский гос. лингв. ун-т, 2004. – С. 363-368.
179. Ко Ен Чоль, Чжу Сун Мен. Особенности речевого этикета в корейском языке // Глобальный научный потенциал / Языки народов зарубежных стран. № 12 (117), 2020. – С.267-273.

180. Малюга Е. Н. Лингвопрагматические аспекты женской и мужской речи в межкультурном деловом интервью // Научные ведомости Белгородского государственного университета. Серия Гуманитарные науки, том 13, № 156, 2013. – С. 107-112
181. Мызникова В.В. Речевое оформление и использование обращений в японском и корейском языках. Вестник СПбГУ. Сер. 13. 2013. Вып. 1. – С. 28-34.
182. Ратмайр Р. Вежливость в русском языке и культуре // Русская речь и рынок: традиции и инновации в деловом и повседневном общении. – М.: Языки славянской культуры, 2013. – С. 140-220.
183. Сивкова Т.Н., Юн Евон. Приветствие и прощание в русском и корейском речевом этикете // Материалы ежегодной международной конференции. 1-2 июня 2015. – Екатеринбург: УрФУ. – С. 106-117.
184. Сорокин Ю.А. Китайский психотип языковой личности / Ю.А. Сорокин // Филология и культура: Материалы III международной научной конференции 16-18 мая 2001 г./Отв. Ред. Н.Н. Болдырев. – Тамбов: ТГУ им. Г.Р. Державина, 2001. – С. 11-14.
185. Сорокин, Ю.А. Сознание и модусы его существования (китайская лингвокультурная общность в 1966-1976 гг.). Ретроспективные размышления / Ю.А. Сорокин // Языковая личность в дискурсе: полифония структур и культур. Материалы международной научно-практической конференции / Отв. Ред. Проф. А.А. Романов. – М., – Тверь: ИЯ РАН, ТвГУ, ТГСХА, 2005. – С. 75-92.
186. Формановская Н.И. Ритуалы вежливости и толерантность // Философские и лингвокультурологические проблемы толерантности: сборник статей. – Екатеринбург: Уралский государственный университет, 2003. – С. 345-362.
187. Akindele D.F. Lumela/Lumela: A socio-pragmatic analysis of Sesotho greetings// Nordic Journal of African Studies, 16 (1), 2007. – P. 1-17.
188. Grice, Paul. Logic and Conversation. // Peter Cole and Jerry Morgan (eds.) Syntax and Semantics, Vol.3: Speech Acts. New York: Academic Press, 1975. – P. 41-58.
189. Jdetawy, L., & Hamzah, M. Linguistic etiquette: a review from a pragmatic perspective. Technium Social Sciences Journal, 14, 2020. pp. 695-717.

190. Kasper G. Linguistic etiquette. Intercultural discourse and communication: The essential readings, 2005. – P. 58-67.
191. Labov W. Phonological correlates of social stratification. AA, 66 (6), part 2, 1964. – P. 164-176.
192. Lakoff R. The logic of politeness: or minding your p's and q's // Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1973. – P. 292-305.
193. 김선희. 여성어에 관한 고찰. 논문집-목원대학교. Vol.19. 1991. – P. 112-121.
194. 김성환. 세르비아어의 언어예절 연구: 대우법과 호칭법을 중심으로. 한국외국어대. 동유럽연구 제 10 권 2 호. 2002. – 19 p.
195. 김정선 외. 청소년 입말에 나타난 비속어와 공격적 언어 표현 사용 실태 조사. 국어교육 140, 한국어교육학회. 2013. – P. 153-181.
196. 김태경 외. 청소년 언어 사용 실태 조사. 사회언어학. 19-1, 한국사회언어학회. 2011. – P. 23-58.
197. 김태경. 일반 사회 (공공장소)에서의 언어 예절. 한양대학교 한국어문화원. 특집 4. – P. 73-87.
198. 문금현. 한국어 빈말 인사 표현의 사용 양상과 특징. 숙명여자대학교 국어국문학과, 2009. – 20 p.
199. 문금현. 한국어 인사 표현의 유형과 특징, 세계한국어문학, 1, 세계한국어문학회, 2009. – P. 93-122.
200. 민현식. 국어의 성별어(genderlect)연구사. 사회언어학. Vol.4 No.2, 한국사회 언어학회. 1996. – P. 3-29.
201. 서정수. 인사말 비교 연구. 한국어교육 8, 국제한국어교육학회, 1997. – P. 17-47.
202. 서정수. 한국어, 일본어, 영어 및 중국어의 인사말 비교 연구 = A Comparative Study of Greeting Expressions in Korean, Japanese, English, and Chinese, 비교한국학, 4, 국제비교한국학회. 1998. – P. 13-36.
203. 서현석. 표준화법 개선을 위한 ‘인사말’ 사용 실태와 개선 방안, 화법연구, 15, 한국화법학회. 2009. – P. 129-152.
204. 이석주. 한국 전통 사회와 언어 예절. 화법연구. 2009. 14, – P. 9-28.
205. 임홍빈. 국어의 여성어. 국어사회언어학 논총. 국학자료원, 1993. – P. 67~78.
206. 전은진 외. 청소년 글말 사용에 나타난 언어폭력과 규범 파괴. 한국언어문화 51, 한국언어문화학회. 2013. – P. 229-254.

207. 정유진, 김민진. 그림책 읽기 후 역할극 활동이 유아의 존댓말 학습에 미치는 영향. 미래유아교육학회지, 18(2), 2011. – P. 21-42.
208. 조영순. 은유의 문화 다양성 기술: 한국어와 영어의 [얼굴] 은유를 중심으로. 언어과학 제 22 권 2 호. 2015. – P. 77-97.
209. 황병순. 국어 인사말 연구. 배달말 25, 배달말학회, 1999. – 25 p.

VII. Internet saytlari

210. <https://uzreport.news/society/yoshligimizda-5-metr-nariga-chi-ib-u-ituvchiga-salom-berardik-shavkat-mirziyoev-u-ituvchil>
211. https://dunyo.info/cyrl/site/inner/ozbekiston_va_qozogiston__tiv
212. <https://m.facebook.com>
213. <https://menu.gerosyab.net/ko/romanizer>
214. <https://ok.ru/group/54072452644929/topic/68332996351297>
215. <https://qalampir.uz/news/mirziyeev-k-arshidagi-supermarketga-bordi-video-77853>
216. https://toshvil.uz/uz/malakat_shifokorlar_va_zamonaviy_sharoitlar_mascagni
217. https://uz.telegram-store.com/catalog/channels/azan_uzz/76313
218. <https://www.facebook.com/groups>
219. <https://www.uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/764>

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
NUTQIY ETIKETLAR TADQIQINING	
ILMIY- NAZARIY ASOSLARI	5
Nutqiy etiketlar va ularning tasnifi	5
Koreys tilida nutqiy etiketlarning tadqiqi	15
O‘zbek tilida nutqiy etiketlarning o‘rganilishi	27
KOREYS VA O‘ZBEK NUTQIY ETIKETIDA	
“SALOMLASHISH” VA “XAYRLASHISH”	
VAZIYATLARINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTLARI ..	33
“Salomlashish” vaziyati va unga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar	33
“Xayrlashish” vaziyati va unga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar	71
KOREYS VA O‘ZBEK NUTQIY ETIKETLARI	
YUZASIDAN O‘TKAZILGAN ANKETA-	
SO‘ROVNOMALAR NATIJASI	83
“Salomlashish” mavzuiy guruhida qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari	88
“Xayrlashish” mavzuiy guruhida qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari	99
XULOSA.....	110
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	113

YUSUPOVA GULCHEXRA ALISHEROVNA
KOREYS VA O‘ZBEK NUTQIY ETIKETLARI

Monografiya

ISBN 978-9910-8941-8-3

Mas’ul muharrir:
Shoira Usmanova,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Durdona Xudoyberganova,
filologiya fanlari doktori
Diloram Ashirbayeva,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024-yil 28-noyabrdagi 4-sonli majlisi bayoni asosida nashrga tavsiya etilgan.

Bosishga ruxsat etildi: 12.12.2024
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 8 b.t.
«Times New Roman» garniturası.
Ofset usulida bosildi.
50 nusxada bosildi. Buyurtma №
Toshkent davlat
Sharqshunoslik universiteti.
Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20 uy.

© **Yusupova G.A.**

© **Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024.**